

**HAMIDOVA MUHAYYOXON OBIDOVNA**  
**USMONOVA OYISTAXON YULDASHALIYEVNA**  
**HAMIDOVA SAYYORA OBIDOVNA**

**O'ZBEK TILINI SOHADA**  
**QO'LLANILISHI**

---

(60110500, 5111700 – Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi  
talabalari uchun darslik)

**«USMON NOSIR MEDIA»**



---

**NAMANGAN – 2023**

UO'K: 821.512.133

KBK: 81.20'zb- 923

H – 20

Hamidova Muhayyoxon Obidovna, Usmonova Oyistaxon Yuldashaliyevna,  
Hamidova Sayyora Obidovna

**O'zbek tilini sohada qo'llanishi:** / *darslik* / Hamidova Muhayyoxon, Usmonova  
Oyistaxon, Hamidova Sayyora.- Namangan, 2023.- 180 b.

KBK: 81.20'zb- 923

“O'zbek tilini sohada qo'llanishi” nomli darslik 5111700– Boshlang'ich ta'lim  
yo'nalishi uchun mo'ljallangan o'quv rejaning “Tabiiy-ilmiy va gumanitar fanlar”  
blokining 1.06. qismida berilgan “O'zbek tilini sohada qo'llanishi” fani asosida  
tayyorlangan.

Darslikda bo'lajak mutaxassislarning o'z kasblari sohasida o'zbek tilidagi  
og'zaki va yozma savodxonligini o'stirish, ularda o'z fikrlarini tushunarli va ravon  
tilda bayon qilish ko'nikmalarini shakllantirish haqida mufassal ma'lumot berilgan.

**Mas'ul muharrir:** filologiya fanlari doktori (DSs)

Sadiqov Zohid Yakubjanovich

**H.Usmonova** – Namangan davlat universiteti “O'zbek tilshunosligi”

kafedrası professori, filologiya fanlari doktori

**O.Tojiyev** – Andijon davlat universiteti “O'zbek tilshunoslik” kafedrası

dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

**M.Muhammadaliyeva** - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Boshlang'ich ta'limda ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitish  
metodikasi kafedrası

Darslik O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining

2023-yil 6-noyabrdagi 491-sonli buyrug'iga asosan № 491050 ro'yxat raqami

bilan nashrga tavsiya etilgan.

## KIRISH

O'zbek tilining sohada qo'llanishi fani, avvalo, til fani bilan bog'liq bo'lib, ilmiy nutq ilmiy uslub talabiga muvofiq aniq, lo'nda, ixcham, mantiqli va ishonarli bo'lishi bilan xarakterlanadi. Ilmiy uslub tili umumiste'moldagi adabiy tildan ajralmagan holda ishlatiladi, ya'ni o'zbek adabiy tili qonun-qoidalariga rioya qiladi.

Ilmiy ommabop uslubga xos materiallar huquqiy mazmunga ega bo'lishi mumkin. Ularning mohiyati, tayyorlanishi jamiyatdagi huquqiy mc'yorga rioya qilishi huquqshunoslik bilan aloqada ekanligini ko'rsatadi.

Ma'lumki, hayotda turli yo'nalishlar, ixtisosliklar mavjud. Har sohada umum bo'lgan til birliklaridan tashqari o'ziga xos, biri ikkinchisida ishlatilmaydigan terminlar mavjud. Ularni o'rganish ham ushbu fanning maqsadi va vazifasi. Shu jihatdan qaraganda O'zbek tilining sohada qo'llanishi fani ixtisoslik fanlari bilan ham aloqada ekanligi kelib chiqadi.

"O'zbek tilini sohada qo'llanishi" fani talabalarning o'zbek tilida egallagan bilim va ko'nikmalarini mustahkamlash va yanada kengaytirish, tanlangan ixtisosligi doirasida davlat tilini puxta bilishlariga yordamlashish, nutqini kasbiy atamalar bilan boyitish, o'zbek tilida yuqori darajada nutqiy savodxonlikni ta'minlash maqsadida oliy o'quv yurtlari o'quv rejasiga kiritilgan. Mazkur fanni oqitishdan maqsad bo'lajak soha xodimlari, ya'ni maktabgacha ta'lim tashkiloti vakillarining kundalik mehnat faoliyati hamda turmushda zarur bo'lgan nutqiy mavzularda o'zbek tilida mustaqil so'zlay olish va yozish malakalarini takomillashtirish, ixtisoslikka oid turli nutq uslublarida matn tuza olish, uni o'zgartira bilish malakalarini shakllantirishdan iborat. Muayyan nutqiy mavzular doirasida zaruriy grammatik bilimlarni berish, ixtisoslik doirasida og'zaki va yozma nutqni o'stirish, turli tipdagi matnlarni erkin tuza olish malakalarini oshirish, o'zbek tilidagi axborotni tushunish, unga tanqidiy, tahliliy munosabat bildirishni o'rgatish "O'zbek tilining sohada qollanishi" fani oldida turgan vazifadir.

Insondagi barcha qobiliyatlar ichida eng muhimi bo'lgan nutq qobiliyatiga e'tibor berish keyingi yillarda bir qator tilshunoslarning e'tiborini jalb qila boshladi.

Bu e'tiborning asosiy natijalaridan biri shu bo'ldiki, jahon tilshunosligida, aniqsa, rus tilshunosligida nutq madaniyati bo'yicha yaratilgan darslik, o'quv, uslubiy qo'llanmalarga tayanib, o'zbek tilshunosligida bir qator qo'llanma va darsliklar yaratildi.

Hozirgi tezkor zamonda mustaqil O'zbekiston yoshlarida yangicha dunyoqarashning shakllanishida notqlik san'ati sabog'i muhim ahamiyat kasb etadi.

Chunki yangicha dunyoqarash ruhida tarbiyalanayotgan har bir talaba, yangicha dunyoqarashga intilayotgan har bir xodim to'g'ri va savodli yozish, o'qish bilan birga chiroyli gapirish, nutqiy madaniyat va notqlik san'ati sirlaridan voqif bo'lishlari bugungi va ertangi kunning talabi ekanligini har taraflama his etmog'i shart.

Insonning ma'naviy kamolotga erishuvida, jamiyatning madaniy-ma'rifiy rivojida ona tilining o'rni kattadir. Til milliy ma'naviyat, ma'rifat va madaniyatning eng xolis va xira tortmas ko'zguvidir. Hadisi shariflarda "Kishining zebu ziynati, go'zalligi uning tilidadir", deyiladi. Qadim-qadim zamonlardan beri har bir millat, har bir qavm o'z tiliga buyuk hurmat bilan qaraydi. Bu tilning sohir ohanglari og'ushida erimoqdan adoqsiz huzur tuyadi. Bu tilga timsol topmaslikdan taskin topadi. Bu nodir boylikni dunyolarga bermaslikka hozir turadi. Chunki til millat degan birlikning tamal toshi, u boy berilsa, millat ham boy beriladi. O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning quyidagi so'zlarida ulkan ma'no bor: "Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga, avvalo, ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi... Ona tili – bu millatning ruhidir. O'z tilini yo'qotgan har qanday millat o'zligidan judo bo'lishi muqarrar".<sup>1</sup> Demakki, millatning borligi va birligining bosh belgisi tildir.

Bosh maqsadi Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi bo'lmish milliy g'oyamizning kurashchanligini ta'minlashda mukammal ma'naviyat va ma'rifat hal qiluvchi omil bo'lib, ona tiliga muntazam muhabbat, davlat tiliga barqaror chitrom ana shu omilni shakllantiradi, unga kuch beradi, ko'lam bahsh etadi.

<sup>1</sup> Махмудов Н. Укитувчи нутқи маданияти. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 2007. – Б. 3.

Shuning uchun ham milliy g'oya targ'ibida "millatning o'lmas ruhi bo'lgan ona tiliga muhabbat"<sup>1</sup> tarbiyasi muhim o'rin tutadi.

Mazkur darslikdan 5111700 va 60110500 – Boshlang'ich ta'lim o'quv rejaning "Tabiiy-ilmiy va gumanitar fanlar" blokining 1.06- "O'zbek tilini sohada qo'llanishi" fani bo'yicha olib boriladigan mashg'ulotlarda keng foydalanishlari mumkin.

---

<sup>1</sup> Миллий истиқлол ғояси: асосий тушунча ва тамойиллар.- Тошкент: Ўзбекистон, 2000.- Б. 49.

# I-MAVZU: O‘ZBEK TILINING SOHADA QO‘LLANISHI” FANINI O‘QITISHNING MAQSAD VA VAZIFALAR

## REJA:

1. Tilning boshqa fanlar bilan aloqasi.
2. Til va tafakkur.
3. Til va ma'naviyat.
4. Davlat tili tushunchasi.
5. O‘zbek tili va davlat qonunlari.

**Tayanch so‘z va iboralar:** *til, tafakkur, madaniyat, davlat tili, ijtimoiy hodisa, xalqaro til, sun'iy til.*

**Fanning o‘qitish maqsadi va vazifalari:** Respublikamizda ta'limni takomillashtirish borasida olib borilayotgan ishlar asosida mazmun jihatidan yangi o‘quv dasturlari va darsliklar yaratishga qaratilmoqda. Davlat tili maqomiga ega bo‘lgan o‘zbek tilini o‘qitishni ham bugungi davr talablariga javob beradigan darajaga o‘tkazish ana shunday muhim vazifadir.

Mustaqil davlatimizda o‘zbek tilining ijtimoiy mavqeyi tobora ortib borayotganligi, lotin yozuviga asoslangan yangi o‘zbek alifbosi va imlo qoidalarining joriy etilganligi, ish yuritishda to‘liq davlat tiliga o‘tilayotganligi barcha mutaxassislarning millatidan qat’iy nazar, o‘zbek tilini puxta egallashlarini taqozo etmoqda. Til birliklari va materialidan fikrni ifodalash maqsadida foydalanish jarayoni nutq sanaladi. Hayotning turli sohaları, turlicha nutq vaziyatlarida tildagi leksik, frazeologik, fonetik va grammatik vositalarni tanlash va ulardan foydalanish usullari ham har xil bo‘ladi. Masalan, fan sohaları muayyan shartli belgilar, formulalar, bayon qilish materialini bilan ajralib turadi.

Shuningdek, uzluksiz ta'limning barcha bosqichlarida, jumladan, oliy o‘quv yurtlarining o‘qish boshqa tilda olib borilayotgan guruhlarda ham, milliy guruhlarda o‘zbek tilining sohada qo‘llanishi borsida bilimlarni o‘rgatish yo‘lga qo‘yildi.

Fanning asosiy maqsadi talabalarning o'zbek tilidan egallagan bilim va ko'nikmalarini soha doirasida mustahkamlash va yanada kengaytirish, tanlagan ixtisosliklari bo'yicha davlat tilini puxta bilishlariga yordamlashish, nutqlarini kasbiy atamalar bilan boyitish, o'zbek tilidan yuqori darajada nutqiy savodxonlikni ta'minlashga erishishdir. Ushbu nuqtayi nazardan fan o'qituvchi va talaba oldiga qator vazifalarni qo'yadiki, bular mutaxassisning kundalik mehnat faoliyati hamda turmushida zarur bo'lgan nutqiy mavzularda o'zbek tilida mustaqil so'zlay olishlari va yozishlari, ixtisoslikka oid turli nutq uslublarida matn tuza olish, uni o'zgartira bilish malakalarini shakllantirishni ko'zda tutadi. Fan doirasida ana shunga e'tibor bergan holda muayyan nutqiy mavzular yuzasidan zaruriy grammatik bilimlarni berish, ixtisoslik qamrovida og'zaki va yozma nutqni o'stirish, turlicha tipdagi matnlarni erkin tuza olish malakalarini o'stirish vazifasi qo'yilgan.

"O'zbek tilining sohada qo'llanishi" kursi doirasida talabalarga o'z sohasidagi so'z va terminlarning shakllanish va qo'llanish, yasaliş va kirib kelish xususiyatlarini, matnga so'z va termin tanlash, matnni tahrir qilish – kengaytirish va qisqartirish, matn va hujjatlarni to'g'ri yozish, dastlabki ilmiy ishlarini yozishga o'rgatish, nutq turlari, nutqiy faoliyat, nutqning kommunikativ xususiyatlari, nutqiy etiket, nutqning tarkibiy qismlari, nutq tuzish usullari o'rgatiladi.

**O'zbek tilining sohada qo'llanishi fanini o'qitishdan maqsad:**

- turli uslublarda qo'llanilayotgan so'z va terminlarni tahlil qilish;
- mutaxassislikka oid matn, maqola va kurs ishlarini mazmunli va xatosiz yozish;
- matnlarning turlari va tuzilishini puxta bilish;
- mavzular bo'yicha dastlabki ilmiy ishlar va hujjatlarni savodli yozish haqida malakaga ega bo'lish;
- ilmiy, rasmiy, so'zlashuv uslublariga xos nutqiy faoliyat va etiketni amalga oshirish;
- nutqning tarkibiy qismlari va nutq tuzish usullaridan xabardor bo'lish;
- aniq va to'g'ri, mantiqiy va ta'sirli nutq tuza bilish;
- nutqning kommunikativ sifatlarini to'g'ri qo'llay olish;

- taqdimot tayyorlashda nutq vositalari bo'yicha ko'nikmalarga ega bo'lishi;
- mutaxassisligiga oid mavzularda bog'lanishli matn tuza olish va bunday matnlarni tarjima qilish;

- ixtisoslikka oid ilmiy atamalarni to'g'ri o'qish, ma'nosini izohlay bilish, ular ishtirokidagi gaplarni sintaktik jihatdan to'g'ri tuzishni bilishi va amalda qo'llay olishi;

- o'z ixtisosligi bo'yicha lug'atlardan foydalangan holda maqola, turli rasmiy ish hujjatlarini tayyorlay bilish;

- Mustaqil ta'lim mavzulari bo'yicha nazariy bilimlarini mustahkamlash.

**Fan mazmuniga qo'yiladigan malakaviy talablar:** Bakalavr "O'zbek tilining sohada qo'llanishi" fani bo'yicha - bilim va malakalarini puxta egallash uchun har bir talaba o'zbek tilining yozma ilmiy nutq shakllarini to'liq o'zlashtirishi, ilmiy uslubning terminlaridan to'g'ri foydalana bilishi zarur. Shunga ko'ra, talabalar "O'zbek tilini sohada qo'llanishi" fanidan:

- o'zbek tili ilmiy uslubining qonuniyatlarini;

- o'zbek tilining gap stilistikasini;

- ilmiy uslubga xos til birliklarini o'rinli ishlata olishni bilishi kerak;

- annotatsiya matnining tuzilishini;

- referatning zaruriy qismlarini;

- ilmiy maqolaga;

- ilmiy uslubda sintaktik jihatdan to'g'ri gap tuza olishni;

- ilmiy maqola yozish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak;

- kurs ishi va bitiruv malakaviy ishini yozish ko'nikmalarini o'quv faoliyatiga erkin tatbiq eta bilishi;

- nutqning barcha uslublarida bitilgan matnlarni o'rganishda o'z bilim va ko'nikmalarini qo'llashi, u yoki bu munosabat bilan o'z fikrini asosli bayon qilish ko'nikmasiga ega bo'lishi lozim.

- o'zbek tilining so'z boyligidan yozma nutq yaratish va uni ilmiy uslubda to'g'ri qo'llash hamda ulardan o'rinli foydalana bilishi;



- sohaga oid hujjatlarni tuzishda kasbiy atamalami ishlatish, ularni mutaxassisligi mavzusidagi muloqotda mustaqil qo'llay olishi;

- o'zbek tilining lug'aviy boyligi va ixtisoslik atamalaridan o'rinli foydalanish, ular yordamida o'z fikr-mulohazalarini asosli bayon etish tajribasiga ega bo'lishi zarur.

### **O'zbek tilining sohada qo'llanishi fanining boshqa fanlar bilan aloqasi:**

O'zbek tilining sohada qo'llanishi fani ijtimoiy-gumanitar fanlar blokining bir qismiga kiradi. Shu sababli u shu blokdagi boshqa fanlar bilan bevosita aloqada.

O'zbek tilining sohada qo'llanishi fani, avvalo, til fani bilan bog'liq bo'lib, ilmiy nutq ilmiy uslub talabiga muvofiq aniq, lo'nda, ixcham, mantiqli va ishonarli bo'lishi bilan xarakterlanadi. Ilmiy uslub tili umumiste'moldagi adabiy tildan ajralmagan holda ishlatiladi, ya'ni o'zbek adabiy tili qonun-qoidalariga rioya qiladi.

Ilmiy ommabop uslubga xos materiallar huquqiy mazmunga ega bo'lishi mumkin. Ularning mohiyati, tayyorlanishi jamiyatdagi huquqiy me'yorga rioya qilishi huquqshunoslik bilan aloqada ekanligini ko'rsatadi.

Ma'lumki, hayotda turli yo'nalishlar, ixtisosliklar mavjud. Har sohada umum bo'lgan til birliklaridan tashqari o'ziga xos, biri ikkinchisida ishlatilmaydigan terminlar mavjud. Ularni o'rganish ham ushbu fanning maqsadi va vazifasi. Shu jihatdan qaraganda O'zbek tilining sohada qo'llanishi fani ixtisoslik fanlari bilan ham aloqada ekanligi kelib chiqadi.

**O'quv fanini o'qitish bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar:** Fan bo'yicha talabalarning bilim, ko'nikma va malakalariga quyidagi talablar qo'yiladi, bu 'rinda talaba:

- o'zbek tilida ilmiy uslubning qonuniyatlarini;
- o'zbek tilining gap stilistikasini;
- ilmiy uslubga xos til birliklarini o'rinli ishlata olishni bilishi kerak;
- ilmiy maqola yozish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak;
- o'zbek tilining so'z boyligidan yozma nutq yaratish va uni ilmiy – ommabop uslubda to'g'ri qo'llash hamda ulardan o'rinli foydalana bilishi;

- sohaga oid hujjatlarni tuzishda kasbiy atamalarni ishlatish, ularni mutaxassisligi mavzusidagi muloqotda mustaqil qo'llay olishi;

- o'zbek tilining lug'aviy boyligi va ixtisoslik atamalaridan o'rinli foydalanish, ular yordamida o'z fikr-mulohazalarini asosli bayon etish tajribasiga ega bo'lishi zarur.

### **Topshiriq:**

a) Berilgan matnni o'qing va zarur qismlarini daftaringizga ma'lumot sifatida yozib oling.

b) Fan doirasida bilim va malakalarini puxta egallash uchun har bir talaba qanday tajribaga ega bo'lishi zarur? O'z mulohazangizni yozma bayon eting.

**1.Til va tafakkur. Til va ma'naviyat:** Tabiat va jamiyat mahsuli bo'lgan inson, ayni paytda, ularning oliy namunasi ham sanalib, olamni narsa va predmet shaklida, voqea va hodisa tarzida ongida aks ettiradi, idrok qiladi, fikrlaydi. Bu jarayonda muhim vosita hisoblangan tilning ahamiyati g'oyatda muhimdir. Shuning uchun ham til va tafakkurni bir-biridan alohida tarzda tasavvur qilib bo'lmaydi. "Til bilan tafakkur birbirini taqozo etadigan ajralmas hodisadir. Tilsiz tafakkur bo'lmaganidek, til ham tafakkursiz bo'lmaydi". Tilning inson uchun fikrlash vositasi bo'lishi, moddiy asos sifatida xizmat qilishi uning amalda bo'lishidagi birinchi bosqich hisoblanib, ikkinchi bosqichda fikr, tafakkur mahsuli reallashadi, ya'ni u miyadan tashqariga chiqadi. Shunday qilib, ikkinchi bosqichda til kommunikativ - aloqa vazifasini bajarishga kirishadi.

Til insonlar o'rtasida aloqa vositasi bo'lishi, tabiat va jamiyatdagi narsa va hodisalar to'g'risida xabar berishdan tashqari suhbatdosh yoki tinglovchiga ma'lum ta'sir o'tkazish, hissiyotini qo'zg'atish kuchiga ham ega. Agar bu holatni shartli ravishda beshinchi bosqich deb ataydigan bo'lsak, ta'kidlaganimizdek, tilning bosqichma-bosqich takomillashib, mukammalashib va imkoniyatlari ham astasekinlik bilan kengayib borishini kuzatamiz. Mana shu o'rinda tilning hycch bir imkoniyati nutqsiz, nutqiy jarayonsiz amalga oshmasligi, yuzaga kelmasligiga ham amin bo'lamiz. "Til va tafakkurning birligi nutqda o'z ifodasini topadi. Nutq og'zaki va yozma holda mavjud bo'lib, unda fikrimiz moddiy shaklga, ya'ni hissiy

idrok etiladigan shaklga kiradi va shu tariqa u endi bir shaxsga emas, balki jamiyatga tegishli bo'lib qoladi".

Ma'lum bo'ladiki, til nutqning o'ta muhim unsuri sifatida aloqa, xabar, ta'sir etishdek, shu bilan birga, imkoniyatlari nihoyatda kengayib borishi natijasi o'laroq kishilik jamiyati to'plagan tajriba va bilimlarni kelajak avlodlarga yetkazishdek ulug'vor ijtimoiy vazifani bajaradi. O'z shakllanishi va rivojlanib borishi davomida uzoq tarixiy yo'lni bosib o'tadigan til asta-sekinlik bilan bo'lsa-da, takomillashib ham boradi. Bu holni uning ichki qurilishida, amalda bo'lish qoidalarining ma'lum bir tizimga kela borishida kuzatamiz. "Ichki qurilish nuqtai nazardan til ma'lum miqdordagi bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lgan til birliklarining yig'indisi va ana shu birliklardan foydalanish qoidalaridan tashkil topgan murakkab sistemadir".

Nutq tilning namoyon bo'lishi, ro'yobga chiqish, voqeyalanish shakli bo'lib, u bevosita kuzatishda berilgan, moddiy (tabiiy, fizik) shaklga egadir.

**2.Davlat tili tushunchasi. O'zbek tili va davlat qonunlari:** Til – millatning ma'naviy boyligidir. Til - davlat timsoli, mulki. Tilni asrash, rivojlantirish – millatning yuksalishi demak. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida davlat tilining maqomi huquqiy jihatdan mustahkamlab qo'yilgan. Shu tariqa o'zbek tili mustaqil davlatimizning Bayrog'i, Gerbi, Madhiyasi qatorida turadigan, qonun yo'li bilan himoya qilinadigan muqaddas davlat ramziga aylandi.

Bundan 34 yil muqaddam o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilgan edi. Bu o'z davrida tom ma'noda olamshumul voqea bo'lgan edi. Chunki, Al Xorazmiy, Al Farg'oniy, Beruniy, Ibn Sino, Alisher Navoiy, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Bobur Mirzo singari buyuk siymolarni etishtirgan xalq tili yo'qolish arafasiga kelib qolgan edi. Mustaqillikka ilk qadamlar tashlanayotgan davrdayoq prezidentimiz tomonidan o'zbek tiliga davlat maqomi berish masalasi kun tartibiga qo'yilib, bu ish amalga oshirilgan edi. Ona tilimiz - o'zbek tiliga 1989-yil 21-oktyabrda davlat tili maqomi berildi. Bu mamlakatimiz, yurtdoshlarimiz hayotidagi unutilmas, tarixiy voqeaga aylandi. Agar o'shanda til to'g'risida qonun qabul qilinmaganda edi, o'zbek tili ham tarix saxifalaridan joy olgan bo'larmidi?! Shuni ta'kidlash

kerakki, o'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi xalqimizning milliy mustaqillikka erishish yo'lidagi muhim qadamlaridan biri bo'lgan edi. Istiqlol yillarida mamlakatimizda barcha sohalarda bo'lgani kabi tilimiz taraqqiyotida ham muhim o'zgarishlar yuz berdi. O'zbek tilining xalqaro miqyosda obro'si oshdi. "Davlat tili haqida"gi qonun ona tilimizning bor go'zalligi va jozibasini to'la namoyon etish bilan birga, uni ilmiy asosda rivojlantirish borasida ham keng imkoniyatlar yaratdi.

Yaqinda butun mamlakat bo'ylab Prezidentimiz "O'zbek tili bayrami kunini belgilash to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunini imzolagani haqida xabar tarqaldi. Bu xabarni nafaqat yurtimiz, balki butun dunyodagi 50 milliondan oshiq o'zbeklar va ona tilimiz ixlosmandlari quvonib qarshi oldilar.

O'tgan yilning 21-oktyabr kuni poytaxtdagi muhtasham majlislar saroyida O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev o'zbek tili haqida yoniq so'zlarini aytganida barcha tik oyoqqa turib, davomli qarsaklar bilan olqishlagan edi. Chunki yangilanayotgan O'zbekistonning rivojlanish tamoyillari belgilab qo'yilgan har bir sohasi o'z taraqqiyotida shiddat bilan davom etar ekan, ayni til sohasi e'tiborga muhtoj bo'lib turgan, vaqt-soati kelib bu borada ham tub islohotlar amalga oshiriladi degan umid bo'lsa ham, ayni o'sha kuni Prezident o'z xalqiga bunday xushxabarni aytishini ko'pchilik kutmagan edi. Mamlakat rahbari o'zbek tilining davlat va jamiyat hayotidagi mavqeini yanada oshirish, "Davlat tili haqida"gi qonunni bugungi kun talablaridan kelib chiqib takomillashtirish zarurligini ta'kidlab, bu boradagi dolzarb vazifalarni ko'rsatdi va "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" farmon qabul qilganini, unga binoan, 21-oktyabr sanasi O'zbekistonda "O'zbek tili bayrami kuni" deb belgilanganini ta'kidlab o'tdi.

Shundan so'ng bu boradagi ishlarning ijrosi tizimli ravishda davom etdi: Vazirlar Mahkamasida Davlat tilini rivojlantirish departamenti tashkil qilindi va uning tashabbusi bilan Atamalar komissiyasi tuzildi. Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 20-yanvardagi qarori bilan barcha davlat organlari, vazirliklar va ularga tenglashtirilgan tashkilotlarda ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish,

davlat tili to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta'minlash masalalari bo'yicha maslahatchi lavozimi tashkil qilindi. Shu yilning 9-mart kuni "Geografik obyektlarning nomlarini, shuningdek, jamoat joylari, ko'chalar, binolar peshtoqidagi turli lavha va reklamalarning qonun hujjatlari talablariga muvofiqlashtirish masalalari hamda joylarda Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 20-yanvardagi 34-son qarorining ijrosi haqida" bo'lib o'tgan yig'ilishda aynan shu masalaga e'tibor qaratildi va davlat tilini rivojlantirish chora-tadbirlarining ijrosiga oid qat'iy talablar belgilandi. Shuncha ishlar ortidan mana, millat fidoyisi Abdulla Qodiriy bobomizning tavallud kunlarida "O'zbek tili bayrami kunini belgilash to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni imzolandi. Unga ko'ra, har yilning 21-oktyabr kuni O'zbek tili bayrami kuni etib belgilandi. Endilikda u Mustaqillik bayrami kabi zalvorli, nodir va jonbaxsh, xalqning va davlatning qonuniy bayramiga aylandi. O'zbekistonning barcha hududlarida uning keng ko'lamda, tantanali nishonlanishi qat'iy belgilab qo'yildi.

Buni ona tilimizning haqqoniy tantanasi, davlatchilik an'analarimizning yuksak tarannumi desak arziydi. Masalan: shoir Mirzo Kenjabek quyigi she'riy parchada ta'kidlaganidek:

Yerning har burchagida odamlar goho  
Menga o'z tilimda so'ylar, gumon yo'q  
O'zbek ko'p butun Yer yuzida, ammo  
Olamda boshqa hech O'zbekiston yo'q!

Ona-Vatan shunday tushunchaki, u kishi qalbida hech qachon o'zgarmaydi. Vatanga muhabbat tuyg'usi ona suti bilan qonga kiradi.

Inson o'z Vatanida kamol topadi, qadrlanadi, hayot maktabini o'taydi, farovonlik va va baxt-saodatga erishadi.

Vatan qalbi beg'ubor olam, uni asrab avaylash har birimizning muqaddas burchimizdir. Vatan! Ne-ne aziz insonlar voyaga yetgan, uning porloq istiqboli uchun jon fido etgan zamin. Shuning uchun qadimda elim deb Vatanni

e'zozlaganlar. Vatan tushunchasi turli zamonlarda turlicha talqin etilgan. Vatan so'zi bugungidek mag'rur jaranglamagan.

1991- yil 31-avgust kuni O'zbekiston Respublikasi mustaqil deb e'lon qilindi va biz har yili birinchi sentabr kunini O'zbekiston Respublikasi mustaqillik kuni deb katta shodiyona bilan nishonlaydigan bo'ldik. Mustaqillik tufayli Vatan deb atalmish bu qo'hna zamin yanada chiroy ochdi, butun dunyoga yuz o'girdi. Bugungi kunda jahon ahli ham bizni tan olmoqda. Chunki bugun O'zbekiston-mustaqil yurt!

### Topshiriqlar:

**1-topshiriq.** Xalqaro til nima? Xalqaro tillar haqida ma'lumot bering.

**2-topshiriq.** Sun'iy tillar qanday xususiyatlarga ega.

**3-topshiriq.** Til va jamiyat o'rtasida qanday bog'liqlik bor?

**4-topshiriq.** Ijtimoiy hodisa deganda nimani tushunasiz?

**5-topshiriq.** Til ijtimoiy hodisa sifatida boshqa hodisalardan qanday farqlanadi. Fikrlaringizni izohlang.

**6-topshiriq.** Til va tafakkur, til va nutq, jamiyat va shaxs tushunchalari haqidagi fikrlaringizni yozma bayon eting.

**7-topshiriq.** Yozuv va nutq, yozuv va jamiyat, yozuv va adabiyot tushunchalari haqidagi fikr-mulohazalaringizni yozma bayon qiling.

**8-topshiriq.** "Davlat tili haqida"gi qonunning moddalari va ularning hayotga tatbiq etilishi bo'yicha fikrlaringizni yozma bayon-eting

**Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari:** *dialogik yondashuv, muammoli ta'lim, Venna diagrammasi, sinkveyn usuli.*

**1-mashq.** O'zbekiston Respublikasining Davlat tili haqidagi (yangi tahrirda) qonuni 24 ta moddadan iborat.

**1-modda.** O'zbekiston Respublikasining Davlat tili o'zbek tilidir.

**2-modda.** O'zbek uliga Davlat tili maqomining berilishi respublika hududida yashovchi millat va elatlarning o'z ona tilini qo'llashdan iborat Konstitutsiyaviy huquqlariga monelik qilmaydi.

**10-modda.** Korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va jamoat birlashmalarida ish yuritish, hisob-kitob, statistika va moliya hujjatlari - Davlat tilida yuritiladi.

**2-mashq. O'zbek tili, o'zbek alifbosi va imlosi.**

O'zbek tili O'zbekiston Respublikasining davlat tilidir. Vatanimizdagi 31 millionga yaqin xalq o'zbek tilini ona tilim deydi. Bundan tashqari o'zbek tili Saudiya Arabistonida, Turkiyada, AQShda, Afg'oniston va Qoshg'arda hamda bir qancha boshqa davlatlarda yashovchi o'zbeklarning ham ona tilidir.

O'zbek (turkiy) tili qadimiy tillardandir. Dastlabki yozma yodnomalar VI-VII asrlarga oid O'rxun-Enasoy yozuvlarida uchraydi. X-XI asrlardan boshlab o'zbek (turkiy) tilida yirik asarlar yaratila boshlandi. Jumladan, Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'atit turk", Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig", Ahmad Yugnakiyning "Hibbatul haqoyiq" asarlari.

Ahmad Yassaviy, Rabg'uziy, Lutfiy, Sakkokiy, Xorazmiylar turk (o'zbek) tilining rivojlanishida katta xizmat qildilar. Turk tilining rivojida Alisher Navoiyning o'mi beqiyosdir. Alisher Navoiy o'zbek tilini ham nazariy, ham amaliy jihatdan barqaror etdi.

1920-yillardan boshlab, maktab-maorif sohasida madaniyat va adabiyotda o'zgarishlar ro'y berdi. Adabiyotimizga yangi yorqin iste'dodlar kirib keldi. O'zbek tilining lug'at tarkibi boyidi, grammatik qurilishi aniqlasha bordi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi 1989-yil 21-oktabrdagi sessiyasi o'zbek tiliga davlat tili maqomini berdi, O'zbekiston Respublikasining Davlat tili deb e'lon qilindi.

O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyati va boshqaruv organlari faoliyatida qurultoy, sessiya, konferensiya, majlis va kengashlar respublika davlat tilida olib boriladi va aynan tarjimasini ta'minlanadi. Bu o'zbek xalqining siyosiy va madaniy hayotidagi eng yirik va muhim voqealardan biri bo'ldi.

1992-yil 2-sentabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining o'n uchinchi sessiyasida "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy qilish to'g'risida" O'zbekiston Respublikasining qonuni qabul qilindi.

### Matn yuzasidan topshiriqlar:

- a) matnni o'qing;
- b) matn asosida savollar tuzing;
- c) matnni gapirib bering.

### Nazariy ma'lumot:

Har bir adabiy til unda gapiruvchi barcha kishilar tomonidan ongli ravishda qabul qilingan talaffuz me'yoriga egadir. Tilning talaffuzi og'zaki nutq shakliga, imlo esa yozma nutq shakliga xos bo'lib, ular bir-biriga doim to'g'ri kclavermaydi. Orfoepiya (grekcha *orthos* – to'g'ri va *epos* – nutq) ma'lum tilning to'g'ri talaffuz me'yor va qoidalari hisoblanib, unda so'zlovchilarning barchasi uchun tushunarli me'yor qabul qilingan bo'ladi. Orfoepiyaning asosini tilning fonetik tizimi, ya'ni undagi tovushlar, bo'g'in, urg'u, ohang tashkil etadi. To'g'ri talaffuz etishni odatda tilning orfoepik me'yori deb yuritiladi. Albatta, orfoepik me'yordan chetga chiqish hollari ham mavjud. Chunonchi, shevalar talaffuzi, vulgar yoki buzib talaffuz qilish kabilar. Odatda ba'zi tayanch shevalar talaffuzi adabiy til talaffuz me'yoriga yaqin turadi. Masalan, rus adabiy tilining talaffuziga Moskva va Peterburg shaharlari talaffuzi asos qilib olingan. O'zbek adabiy tilining talaffuziga Toshkent, Farg'ona va Andijon shevalarining talaffuzi asos qilib olingan. Har bir til o'zining ma'lum davrdagi orfoepik me'yoriga ega bo'lib, davrlar o'tishi bilan undagi fonetik va boshqa o'zgarishlar natijasida uning orfoepik me'yori ham o'zgarishi mumkin. Fonetika va fonologiyadagi nazariy tamoyillarga asoslanib, orfoepiya tilning talaffuz me'yorlarini amaliy jihatdan qanday bo'lishini belgilab beradi. Ba'zan chet tilidan o'zlashgan so'zlarning talaffuzi ham shu qabul qilgan tilning orfoepik me'yoriga moslashtirib talaffuz etiladi. Masalan, *vokzal*, *rels*, *miniatyura*, *iyuri* kabi. Turkiy so'zlarda urg'u asosan so'zning oxirgi bo'g'iniga tushadi. Biroq rus tili va u orqali chet tillardan kirgan so'zlarda urg'u har xil bo'g'inlarda bo'lishi mumkin. Bu esa o'zbek tilining orfoepik me'yorida urg'uning dinamik, ya'ni so'zlarning har xil bo'g'inlariga tushish tartubini keltirib chiqardi. Masalan, *fizik*, *hozir*, *akademik* kabi.



d) qo'shma so'zlarning har bir qismi o'zining alohida urg'usi bilan talaffuz etiladi: *taomnoma*, *gultojixo'roz* kabi;

e) orfoepik me'yor og'zaki so'zlashuv nutqida va rasmiy nutqda ba'zi o'zgarishlarga uchraydi. Orfoepiya teatr, kino, radio, televideniya va notiqlik san'ati va nutq madaniyatidagi barcha talaffuz xususiyatlarining yig'indisini adabiy me'yorga solib turuvchi mezon hisoblanadi.



**Uyga vazifa:** mavzuni o'qib-o'rganib kelish "Davlat tili tushunchasi" mavzusida matn tuzib kelish.

**Topshiriq:** Berilgan "Til va tafakkur. Til va ma'naviyat. Davlat tili tushunchasi" mavzulari ostida o'z fikr-mulohazalaringizni og'zaki yoki yozma bayon eting. Yozma bayon etish davomida siz tomoningizdan yozilajak matnning uslubiy va imloviy jihatdan bexato bo'lishiga e'tibor qarating.

**Mavzu yuzasidan nazorat savollari:**

1. O'zbeklar yana qaysi davlatlarda yashaydilar?
2. Turkiy tilda ijod qilgan qanday buyuk ijodkorlarni bilasiz?

3. "O'zbekiston Respublikasining davlat tili haqidagi qonuni" qachon qabul qilingan?
4. Davlat tili haqidagi qonun nechta moddadan iborat?
5. O'zbek tili qanday tillar oilasiga kiradi?
6. Eski o'zbek adabiy tilining asoschisi kim?
7. O'zbek tili qaysi tillardan ko'p so'z o'zlashtirgan?
8. O'zbek (turkiy) tilidan boshqa tillarga qanday so'zlar o'zlashtirilgan?
9. Til va tafakkur tushunchalari o'rtasida qanday bog'liqlik bor?
10. Insoniyat tarixiy takomilida tilning o'rni qanday?
11. Til va tafakkurning aloqadorligi nimalarda ko'rinadi?
12. Orfoepiya sohasi qanday masalalarni o'rganadi?
13. Orfoepik me'yor nima?

## 2-MAVZU: TIL VA YOZUV MASALALARI

### REJA:

1. Yozuv haqida umumiy tushuncha.
2. O'zbek yozuvlari tarixi.
3. O'zbek yozuvlarining rivojlanish bosqichlari.
4. Grafika.
5. Orfografiya.

Insoniyat tarixida yozuvning ixtiro qilinishining qanday ulkan ahamiyat kasb etganligini alohida ta'kidlashga hojat yo'q. Agar odamlar taraqqiyotning ma'lum bosqichiga kelib, o'zlariga zaruriy axborotni ma'lum bir ramziy belgilar yordamida qayd qilib olishga va shu tarzda uni saqlab va boshqalarga tarqatishga o'rganmaganlarida edi, tamadduning umumiy ahvoli qaysi shaklga kelib qolishi mumkinligini tasavvur qilish ham qiyin. Shuni aniqlik, kishilik jamiyati hozirgidek taraqqiyot darajasiga erisha olmagan bo'lar edi.



Yozuvning dastlabki ko'rinishlari eramizdan avvalgi 4-ming yillikda paydo bo'la boshlagan. Lekin bungacha ham axborotni qayd etish va saqlashning turli usullari mavjud bo'lgan: ma'lum shaklda joylashtirilgan shox shabbalar, toschalar, va sanoq cho'plari va hokazolar tarzidagi eng sodda axborot saqlash usullari asta - sekinlik bilan murakkab shakldagi belgilar - ma'lum bir buyum yoki hodisani ifodalovchi tasvirlarga o'tib borgan. Masalan, qadimgi Inklar tugunchalar yordamida axborotni qayd etishning o'ziga xos uslubini ixtiro qilganlar. Buning uchun ular jundan tayyorlangan har xil rangdagi arqonlardan foydalanganlar. Bu arqonlarni turli xil ko'rinishlarda tugib qo'yib, tayoqchalarga bog'lab qo'yishgan. Xatlar ham shunday ko'rinishlarda manzilga yuborilgan. Olimlar orasida tarqalgan ba'zi fikrlarga ko'ra Inklar bu usul bilan o'z mahalliy qonunlarini, solnoma va she'riy misralarini «yozib» borganlar. Tugunchalar bilan «yozish» boshqa xalqlarda ham mavjud bo'lgan, masalan, bunday usuldan qadimgi xitoyliklar va mo'gullar ham foydalanishgan.

Lekin haqiqiy ma'nodagi yozuv, odamlar axborotni qayd etish va tarqatish uchun maxsus ko'rinishdagi grafik belgilardan foydalana boshlashgandagina paydo bo'lgan deyish mumkin. Yozuvning eng qadimgi ko'rinishi piktografik yozuvlardir. Piktogramma va bu turdagi yozuvda, so'z borayotgan hodisa, buyum yoki voqea haqidagi sxematik tasvirlar, aynan rasmlar ketma-ketligi namoyon bo'ladi. Taxmin qilinishicha, piktografiya so'nggi tosh davrida turli xalqlar o'rtasida juda keng tarqalgan va asosiy axborot saqlash usuliga aylangan ekan. u uncha katta bo'lmagan xabarlamni jo'natishga va qisqaroq hikoyalarni yo'zib olishga va qoldirishga butunlay yaroqli hisoblanadi. Bunday xat-xabar voqe'likning yoki fikrning juda ham yaqqol tasviri bo'lib, uni o'qish uchun maxsus bilim kerak bo'lmagan. Lekin, biror bir mavhum tushuncha (masalan, jangovorlik, aql, yashi tush, osmon jilvasi kabi) haqida so'z borganda, piktogrammaning imkoniyatlari birdaniga cheklanib qolgan. Sababi bunday tushunchani tasviriy ifodalashning imkoni yo'q edi. Shu tufayli, yozuvning inson hayotiga kirib kelishidagi ilk bosqichlardayoq, piktogrammalar tarkibida endilikda maxsus tushunchalarni ifodalovchi belgi yoki ramzlar - ideogrammalar paydo bo'ldi. Masalan, tasvir tarkibidagi bir biriga qovushtirilgan qo'l ramzi, biror narsani almashtirishni ifodalagan. Shu tarzda endilikda har bir ideogramma ma'lum bir piktogrammaga bog'lanib, ifodalanmoqchi bo'lgan mazmunni yanada tushunarliroq qilib borgan. Asta-sekinlik bilan piktogrammalar avvalgi yaqqolligini yo'qtib bordi, lekin, yanada mazmundorlik va aniqlikka erisha boshladi. Bu jarayon bi necha ming yilliklarni talab etdi. Ideogrammaning eng yuksak ko'rinishi ierogliflar ko'rinishidagi yozuvning paydo bo'lishiga olib keldi.

Iyerogliflarga asoslangan yozuv dastavval qadimgi Misrda paydo bo'ldi. Keyinchalik iyeroglifik yozuv uzoq sharqda - Xitoy, Yaponiya, va Koreya yarim orolida keng tarqaldi. Bu davlatlar hududidagi topilma iyeroglif yoki ideogrammalardan eng g'ayrioddiy va o'ta murakkab shakllarni uchratish mumkin. Ular orqali qadimgi yaqin sharq kishilari eng mavhum va murakkab fikrlarni ham ifodalay olishgan ekan. Lekin iyerogliflarning o'qish sirlarini bilmagan va maxsus tayyorgarlikdan o'tmagan odamga bunday yozuvlarning umuman tushunarsiz

bo'lgani tayin. Yozishni o'rganishni istagan har bir kimsa, minglab belgi va ramzlarni doimiy esda saqlashga majbur bo'lgan. Shu tufayli qadimda juda kam sonly odamlargina yozishni va o'qishni bilganlar.

Shuni ta'kidlash kerakki, ideografiyaning aynan o'zidan iborat yozuv hech qachon mavjud bo'lmagan. Masalan, qadimgi Misrda qandaydir tushuncha, buyum yoki so'zni ifodalovchi belgilar bilan birga, maxsus so'z bo'ginlarini va hatto alohida tovushlarni ifodalovchi belgilar qo'llanilgan. Bunday belgilarga talab tushunarli: hamma narsani ham, birinchi navbatda esa odamlarning ismini tasvir vositasida tushunarli qilib ifodalab bo'lmaydi.

Bunday hollarda misrliklar so'z-ierogliflarni harf-iyerogliflarga aylantira boshlashdi. Bunda eng avvalo, ma'lum bir tovushga mos keluvchi biror belgi o'yalb topilishi va bu belgini hamma bilishi kerak bo'lardi. Masalan uy tasviri tushirilgan iyeroglif, ikki tovushni ifodalovchi «xt» so'ziga almashtirildi. Bu vaqtlarda fonetik iyerogliflar - bo'lajak harflarning ahamiyati faqat mazmuni ifodalash uchun yordamchilik vazifasida bo'lgan. Lekin vaqt o'tishi bilan ularning o'rni tobora yuksalib borib, Misr yozuvining so'nggi davrlariga kelib, asosiy rol o'ynovchi belgi ramzlarga aylanib qolgan. Lekin fonografik (har bir belgi alohida bir tovushni ifodalaydigan) yozuvga misrliklar baribir to'liq o'ta olishmadi. Bunday muhim takomillashtiruvni boshqa xalqlar amalga oshirishdi.

Odamlar o'z nutqlarini oddiy elementlar - tovushlarga (fonemalar) ajratishni o'rganishlariga ancha vaqt ketdi. Bungacha esa, nisbatan osonroq bo'g'inlarga ajratishni o'zlashtirish zarur edi. Shu tufayli eramizdan avvalgi ikkinchi ming yillikda turli xalqlar orasida alohida bo'gimlarni ifodalashga asoslangan maxsus bo'ginli yozuv paydo bo'ldi. Bunga misol qilib krit (minoya) yozuvi yoki mayalarning yozuvini keltirish mumkin. Faqat ikkinchi ming yillik so'ngiga kelibgina qadimgi finikiyaliklar harfiy-tovushli alifboni ixtiro qilishdi. Bu alifbo keyingi asrlar davomida ham ko'plab xalqlar uchun namuna bo'lib xizmat qildi.

Finikiya alifbosi 22 ta undosh harfdan iborat bo'lib, ularning har biri alohida tovushni ifodalagan. Bu alifboning kashi etilishi butun boshli bashariyat uchun juda katta ahamiyatga molik hodisa edi. Bu alifboga yordamida deyarli hamma so'zni

grafik ifodalash mumkin bo'lardi va ideogrammalarga ham, ierogliflarga ham umuman hojat qolmasdi.

Yozuv butun jamiyatning ijtimoiy mulkiga aylandi. Hozirgi zamon alifbolarining ham beshdan to'rt qismi Finikiya alifbosi asosida shakllanganligi haqidagi g'oyani olimlar allaqachon ilgari surishgan. Finikiya yozuvining shakl o'zgarishlaridan biri -Puni yozuvi asosida Liviya alifbosi va yozuvi paydo bo'lgan. Xuddi shuningdek, Finikiya alifbosi - qadimgi yahudiy, qadimgi oramey va qadimgi yunon alifbolarining poydevori hisoblanadi, o'z navbatida, oramiy yozuvi asosida - arab yozuvi, xorazmiy, uyg'ur, fors va boshqa yozuvlar shakllangan.

Finikiya alifbosiga so'nggi va eng muhim takomillashtiruvni qadimgi yunonlar kiritishdi - ular alifboga faqat undosh tovushlarni emas, balki unli tovushlarni ham kiritishni joiz deb topishdi va unli harflarni ham o'z alifbolariga kiritib qo'yishdi. Yunon alifbosi Yevropaning ko'plab boshqa alifbolarining «ajdodi» hisoblanadigan lotin alifbosining ham asosini tashkil qilgan.

Ma'lumki, lotin alifbosi hozirgi zamon farang, ingliz, olmon, ispan alifbolarining ham asosi hisoblanadi. Shuningdek, kop tillardagi alfavitlar, xususan, arman, gruzin va slavyan alifbolari ham aynan yunon alifbosining avlodlaridir.

### **O'ZBEK TILINING IMLO QOIDALARI**

Lug'aviy, grammatik, uslubiy me'yorlar adabiy tilning hamma ko'rinishlari uchun xarakterli, imlo va tinish belgilarga oid me'yorlar adabiy tilning faqat yo z m a shakli uchun, to'g'ri talaffuz me'yorlari esa faqat og'zak i nutq shakli uchun xosdir.

O'zbek adabiy tili milliy tilning bir qismi bo'lib fonetik, leksik, Grammatik jihatdan sayqallashtirilgan, me'yorlashtirilgan tildir.

Adabiy til ikkita: og`zaki va yozma shaklga ega.

- og`zaki shakl – *orfoepiyada*

- yozma shakl – *orfografiyada* o`rganiladi

**ORFOGRAFIYA:** Adabiy tilning yozma shaklini, to'g'ri yozuv qoidalarini (imlo qoidalarini) o`rganadi. Imlo qodalarini quyidagi tamoyillarga – prinsiplarga asoslanadi:

**Fonetik yozuv**- bu yozuv qoidasiga ko'ra so'z o'zak-negizida birorta fonetik hodisa kuzatiladi. Fonetik hodisalarga asosga qo'shimcha qo'shilishi bilan yuz beradigan tovush tushishi, tovush almashishi, tovush orttirilishi hodisalarini kiradi.

**Tovush tushishi** - bunga ko'ra asosga qo'shimcha qo'shilishi natijasida asosda unli yoki undosh tovush tushib qoladi. Masalan:

\**past, sust* so'zlariga *-ay* fe'l yasovchi qo'shimchasi qo'shilsa tovush tushadi: *pasay, susay*.

\**ikki, olti, yetti* kabi sonlarga jamlovchi son qo'shimchasi qo'shilsa (*-ov, -ala, -ovlon*) asosdagi *i* unlisi tushib qoladi: *ikkov, yettalasi, oltov*.

\**men, sen* kabi olmoshlariga qaratqich va tushum kelishiklari qo'shimchasi (*-ni, -ning*) qo'shilsa: *meni, seni, mening, sening*.

\**bag'ir, ko'ngil, shahar* kabi so'zlarga egalik qo'shimchasi qo'shilsa ikkinchi bo'g'indagi *a, i, u* kabi unlihar tushib qoladi: *shahri, ko'ngli, bag'rim, burni* kabi.

**Tovush orttirilishi** - bunda asosga qo'shimcha qo'shilishi bilan asos tarkibida undosh tovushlar orttiriladi:

\**achi, isi, sasi* so'zlariga *-q* so'z yasovchi qo'shimchasi qo'shilsa tovush orttiriladi: *achchiq, issiq, sassiq*.

\**u, bu, shu* ko'rsatish olmoshlariga jo'nalish, o'rin-payt, chiqish kelishiklari (*-ga, -da, -dan*) hamda *-day, -cha* qo'shimchalari qo'shilsa *-n* tovushi orttiriladi: *unga, bunga, shunga, unda, bundan, shundan, shuncha, bunday*.

**Tovush almashishi (o'zgarishi)**- bunda asosga qo'shimcha qo'shilganda bir tovush boshqa tovushga almashadi:

\**bo'ya, tara, sana, sayla, tanla* kabi so'zlariga *-q* yoki *-v* qo'shimchalari qo'shilsa, asosdagi *-a* tovushi *-o* tovushiga almashadi: *bo'yoq, sanoq, taroq, saylov, tanlov*.

\**yosh, son, ot* kabi so'zlarga *-a* qo'shimchasi qo'shilsa: *son+a = sana, ot+a = ata*.

\**-ga, -gani, -guncha* kabi *-g* tovushi bilan boshlanuvchi qo'shimchalar oxiri *-k, q* tovushlari bilan tugagan so'zlarga qo'shilsa, asos yoki qo'shimcha tarkibida tovush almashadi: *tekkuncha, terakka, chiqqani, buloqqqa, oqquncha*.

\*oxiri *k,-q* tovushlari bilan tugaydigan so'zlarga egalik qo'shimchasi qo'shilganda asos tarkibidagi jarangsiz tovush jarangli tovushga almashadi: *buloq+ibulog'i, yurak+i-yuragi, tilak+i-tilagi, bilak+i-bilagi*. Lekin *idrok, huquq, mashq, park*, kabi so'zlarga egalik qo'shimchasi qo'shilsa, tovush almashishi yuz bermaydi: *idroki, mashqi, huquqi, parki* kabi.

**2. Morfologik yozuv** - so'z asosi va qo'shimchalarini aynan yozish demakdir.

Bunga ko'ra so'z va uning qismlari talaffuzidan qat'i nazar asliga ko'ra yoziladi, ya'ni asosga qo'shimcha qo'shilishi bilan so'z tarkibida tovush o'zgarishi kuzatilmaydi.

So'z va qo'shimcha aslan qanday bo'lsa, shunday yoziladi. Masalan:

\*fe'lning zamon va shaxs qo'shimchasi qanday eshtilishi va talaffuz qilinishidan qat'i nazar, doim *-di* shaklida yoziladi: *ket+di = ketdi, borib+di = boribdi*.

\**-dan, -da* qo'shimchalari talaffuzidan qat'i nazar doim o'zgarishsiz yoziladi: *ish+da = ishda, baland+dan = balandda* kabi.

\**-iston (so'z yasovchi), -inchi(tartib son), -ib(ravishdosh), -in, -il (fe'l nisbatlari)* qo'shimchalari asos qismida *-u* tovushi bo'lgan so'zlarga qo'shilganda u tovushiga moyil aytilsa ham asliga ko'ra yoziladi: *kul+ib = kulib, tug+il = tugildi, uch+inchi = uchinchi, ur+ish = urish, gul+iston = guliston*.

\*qo'shma va juft so'zlar ham morfologik yozuv qoidasi bo'yicha yoziladi: *qipqizil, har vaqt, baxt-saodat, atirgul* kabi.

**3. Shakliy yozuv** bu tamoyilga ko'ra boshqa tillardan o'zlashgan so'zlar o'sha tildagi shaklini saqlagan holda yoziladi: *tramvay, institut, teatr, drama, kongress*. O'zbekcha so'zlarning boshida va oxirida ikki undosh yonma-yon kelmaydi, ular orasida qisqa *i* unlisi yoziladi: *qizil, bilan, sir, shimol*. Ammo o'zlashgan so'zlar tarkibida ikki undosh yonma-yon keladi va shakliy yozuv qoidasiga muvofiq yoziladi: *stol, klub, prokuror, fikr, zikr*.

Yangi o'zbek yozuvining imlo qoidalari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 339-sonli qarori bilan tasdiqlangan. Imlo qoidalari 7 bo'limdan iborat:



1. Harflar imlosi. U ikki qismdan iborat: unililar imlosi va undoshlar imlosi.
2. Asos va qo`shimchalar imlosi.
3. Qo`shib yozish.
4. Chiziqcha bilan yozish.
5. Ajratib yozish.
6. Bosh harflar imlosi.
7. Ko`chirish qoidalari.

**“BALIQ SKELETI” chizmasi:**

Bir qator muammolarni tasvirlash va uni yechish imkonini beradi. Tizimli fikrlash, tuzilmaga keltirish, ko`nikmalarni rivojlantiradi

Chizmani tuzish qoidasi bilan tanishadilar. Alohida/ kichik guruhlarda yuqori “suyagida” kichik muammoni ifodalaydi, pastda esa, ushbu kichik muammolar mavjudligini tasdiqlovchi dalillar yozadi


Kichik guruhlarga birlashadilar, to`ldiradilar. Umumiy chizmaga keltiradilar.

Ish natijalarining *ликий аспаш кепак* taqdimoti

Mashg`ulot “Guruhlarda ishlash” shaklida bo`lmaganligi bois, o`quvchilar individual ishlashadi. 3 ta qatordan bittadan “lider” tayinlanib, qatorlari bo`yicha ma`lumotlarni jamlab, taqdimot qiladilar!

**“Baliq skeleti” ni tuzish qoidasi:** baliqning tepa “suyagi”da mavzu bo`yicha muammolarni yozishda davom eting va past suyagida muammoni tasdiqlovchi dalillarni yozing. Qaysi qator ko`p suyakli “baliq skeleti”ni tuzishsa, rag`batlantiriladilar.

**“Baliq skeleti ” usuli uchun ekspet varag`i:**



**Xulosa:**

a) o'rganilayotgan tilda muloqot malakasi egallandi.

b) talabalarda o'zbek tilining imlo qoidalari yuzasidan o'rtta umumiy ta'limdan olgan

bilimlarini mustahkamladik.

v) milliy tuyg'u bo'lgan Vatan tuyg'usi kabi fazilatlarni rivojlantirdik.

**Uyga vazifa:** Nazariy mavzuni o'qib-o'rganib kelish, "O'zbekiston" mavzusida

**MATN TUZIB KELISH.**

**Topshiriqlar:**

**1-topshiriq:** O'zbek xalq maqollarini ko'chirib oling, o'z ona tilingizdagi muqobilini toping.

Aqldan ortiq boylik yo'q.

Aytilgan so'z - otilgan o'q.

Botirning mushti ham yarog'.

Bilsang gapir, bilmasang eshit.

O'z yurtning - o'lan to'shaging.

Ona yurtning omon bo'lsa, rangi ro'ying somon bo'lmas.

Vatanni sevmiq iymondandir.

O'zga yurtida shoh bo'lguncha, o'z yurtningda gado bo'l.

**2-topshiriq:** Handalarni o'qing. So'z ma'nolarini tushintiring.

- O'g'lingiz yaxshi o'qiydimi?-deb so'radi bir ayol qo'shnisidan.

- Ha,- javob berdi qo'shnisi. - U hamma fanlarni yanada chuqur o'rganish uchun bir sinfda 2 yildan o'qityapti.

O'qituvchi:- Erkin, o'quvchilarning maktabda ko'pincha aytadigan so'zlari qaysi?

Erkin:- Men bilmayman.

O'qituvchi:- Barakalla, juda to'g'ri topding.

### 3-MAVZU: O'ZBEK TILINING LEKSIK QATLAMLARI

#### REJA:

1. So'z leksikologiyaning o'rganish obyekti sifatida.
2. So'zlardagi bir ma'nolilik va ko'p ma'nolilik.
3. Ijtimoiy leksika.
4. Sohaviy leksika.

**Tilning leksik qatlamlari:** Ozbek tili lug'at tarkibida o'z va o'zlashgan qatlam.

Hozirgi o'zbek tili lug'at tarkibidagi so'zlarning paydo bo'lishi va kelib chiqish manbai turlichadir.

Har bir til o'z lug'at tarkibi va grammatik qurilishiga ega bo'ladi. Biroq xalqlar orasidagi ijtimoiy-siyosiy va lisoniy aloqalar ularning tillariga o'z ta'sirini o'tkazadi. Bu holat, ayniqsa, tilning lug'at tarkibida yaqqol seziladi. Barcha tillar singari o'zbek tilida ham bu hodisa yuz bergan bo'lib, buning natijasida tilimizning lug'at tarkibida o'ziga xos qatlam bilan birga boshqa tillardan o'zlashgan qatlam ham ko'plab uchraydi.

O'z qatlamga turkiy tillar uchun umumiy bo'lgan so'zlar bilan birga o'zbek tilining o'ziga xos bo'lgan so'zlar kiradi. Masalan: *tog', tosh, yer, suv, oq, qora, bosh, bir, ikki, uch* kabi.

Shuningdek, o'z qatlamni o'zbek tilining ichki imkoniyatlari asosida hosil qilingan yasama so'zlar ham tashkil etadi. Bular:

a) o'zbekcha so'zlardan o'zbekcha qo'shimchalar yordamida yasalgan so'zlar: *suvoqchi, temirchi, terimchi, qo'llanma*;

b) o'zlashma so'zlardan o'zbek tili vositalari yordamida hosil qilingan so'zlar: *limonzor, mardlik, ovqatlanmoq*;

d) boshqa tillardan o'tgan yasovchi vositalar yordamida o'z va o'zlashgan so'zlardan hosil qilingan so'zlar: *tilshunos, kitobxon, ultratovush* kabi.

Demak, yasama so'z qismlaridan biri o'zga tilga oid bo'lsa ham, yasalma so'z shu tilning o'zida yaratilgan bo'lsa, bu so'z o'z qatlamga tegishli so'z

hisoblanadi. Boshqa xalqlar bilan uzoq yillar davomida yonma-yon yashash, o'zaro siyosiyijtimoiy, savdo-sotiq aloqalarining olib borilishi natijasida o'zbek tiliga juda ko'p tillardan ma'lum miqdorda so'zlar o'zlashgan. Bular: Tojikcha: *osmon, oftob, bahor, barg, kam, chala, agar, ham...*

Arabcha: *kitob, maktab, xalq, hayot, amma, rais, xuquq, ovqat, nomus, shifo.*

Ruscha baynalmilal: *brigada, televizor, agronom, radio, teatr, leksiya* singari so'zlardir.

O'tmishda arab va tojik tillaridan so'z o'zlashtirish faol bo'lgan. So'z o'zlashtirish asosan ikki usul bilan yuz beradi: 1) So'z aynan olinadi. 2) Kalkalab olinadi. Kalkalab olishda so'zning o'zi emas, uning ma'nosi o'zlashtiriladi. Bunda: 1. Boshqa til so'ziga xos ma'no zamirida ona tili materiali bilan yangi so'z yasaladi: *darslik* (uchebnik), *qatnashchi* (uchastnik). So'z o'zlashtirishning bunday usuli to'liq **kalka** deyiladi.

2. So'z tarkibida o'zga tilga oid so'z bilan birga o'z til qismlari ishtirok etadi: *hamkurs* (sokursnik), *sportchi*. Bu turdagi kalkalar yarim **kalka** deyiladi.

3. Semantik kalka. O'zbek tilida bir qancha so'zlar shu ma'noda qo'llanadigan begona tildagi so'zlarning ma'nolariga qarab, yangi ma'nolar olib semantik, ya'ni ma'no jihatidan kengaygan (semantik kalka). Misollar: *akkumulyator o'tirib qoldi* (o'tirdi-sel, jonli so'zlashuv nutqida), *quyon* – biletsiz yo'lovchi, *bu yigit imtihonda yiqildi* (provalilsya) kabi.

**Tarixiylik jihatdan o'zbek tili lug'ati:** Davr o'tishi bilan tildagi ayrim so'zlar eskirib, iste'moldan chiqib ketadi, shu bilan bir paytda tilda yangi so'zlarning paydo bo'lishi ham kuzatiladi.

Eski so'zlar jami eskirgan qatlamni, yangi so'zlar jami yangi qatlamni tashkil qiladi. Shuningdek, tilning lug'at tarkibida eskilik va yangilik buyog'iga ega bo'lmagan hamda zamonaviy qatlam deb ataladigan qatlam ham mavjud.

Tarixiylik nuqtai nazaridan o'zbek tili lug'at tarkibi zamonaviy qatlam, eski qatlam va yangi qatlamga bo'linadi. Zamonaviy qatlam umumiste'moldagi so'zlar yoki faol so'zlar deb yuritiladi. Eskilik va yangilik buyog'iga ega bo'lmagan so'zlar zamonaviy deb yuritiladi.

Eski qatlam tarixiy soʻzlar va arxaizmlarga boʻlinadi. Tarixiy soʻzlar yoki istorizmlar tarixga oid soʻzlar (hozirgi kunda yoʻq narsa-hodisalarning nomini bildiruvchi)dir.

Baʼzi soʻzlar maʼnosida semantik siljish boʻlsa bunday soʻzlar zamonaviy hisoblanadi. Masalan: *Boy choʻchib oʻzini chetga oldi. Iskandar xonadagi boy jihozlariga nazar tashlab qoʻydi.* (O.)

**Arxaizmlar-** (yunoncha *arhaios*- «qadimgi»). Hozirda mavjud (zamonaviy) narsa-hodisalarning eskirib qolgan atamaları arxaizmlar deb ataladi. Masalan, *ulus* (xalq), *firqa* (partiya), *tilmoch* (tarjimon), *oblast* (viloyat), *rayon* (tuman) kabi.

Arxaizmlar bildirgan narsa-hodisalar hozirgi davrda mavjud boʻlganligi sababli ularning yangi atamaları eskilarini siqib chiqaradi. Talabga koʻra biri qoʻ\_\_\_\_\_lib, ikkinchisi isteʼmoldan chiqib ketgan boʻladi.

Tildan butunlay chiqib ketgan soʻzlar *oʻmiq* (*koʻkrak*), *budun* (*xalq*), *bitik* (*kitob*) kabilar “oʻlik” soʻzlar deb yuritiladi.

**Neologizmlar** - Neologizm atamasi “*yangi soʻz*” maʼnosidadir. (yunoncha *neos*-«yangi»). Lingvistik adabiyotlarda bu atama odatda tilda yangilik belgisi (boʻyogʻi) sezilib turgan soʻzlarga nisbatan qoʻllanadi: *prezident*, *yurtboshi*, *biznes*, *ijarachi*, *firma*, *investitsiya*, *kadastr* kabi soʻzlar neologizmlar boʻlib, ular bugungi kunda umumxalq ishlatadigan soʻzlar qatoriga qoʻshilmoqda.

Soʻzlarning “neologizm” sifatidagi holati koʻp davom etmaydi. Agar soʻz toʻgʻri tanlangan boʻlsa va tildan oʻz oʻmini mustahkam topsa, u odatdagi soʻzga aylanib, neologizm boʻlishdan chiqadi, umumxalq ishlatadigan soʻzlar qatoriga kiradi. Demak, yangilik boʻyogʻini yoʻqotgan soʻzlar zamonaviy qatlamga oʻtadi. Neologizmlar miqdori oz.

**Umumiy va chegaralangan leksika-** Tildagi soʻzlarning qoʻllanish darajasi turlicha boʻladi. Baʼzi soʻzlar koʻpchilik kishilar tomonidan qoʻllanilsa, baʼzilari maʼlum hududda yashovchi yoki maʼlum kasb-hunar bilan shugʻullanuvchi kishilar tomonidan qoʻllanadi. Shu jihatdan oʻzbek tilidagi soʻzlar ikki turga boʻlinadi: isteʼmol doirasi chegaralangan soʻzlar va umumisteʼmoldagi soʻzlar.

Isteʼmol doirasi chegaralangan soʻzlar uch turga boʻlinadi:

1. Dialektal soʻzlar. 2. Terminologik soʻzlar. 3. Jargon va argo.

Maʼlum hududda yashovchi kishilar nutqiga xos boʻlgan, adabiy til lugʻat boyligiga kirmaydigan soʻzlar dialektal soʻzlarni tashkil qiladi. Maʼlum dialekt va sheva vakillari qoʻllaydigan bunday soʻzlar dialektizmlar deb yuritiladi. Masalan: *dangim* (Gurlan)-tos, *karvich* (Xorazm)-gʻisht, *doyi* - togʻa, *taka* - yostiqlik kabi.

**Jargon va argo** - Jargonlar sinfiy ayirmachilikni koʻrsatib beradigan, yuqori tabaqa vakillari uchun tushunarli boʻlgan soʻz va iboralardir. Jargonlar oʻzbek tilining oʻz soʻzlaridan, baʼzan boshqa tillardan (arab va tojik) olinib, qoʻllangan soʻzlardir.

Oʻtmishda oʻzbek tilida ayrim jargonlar mavjud boʻlgan. Kishilar oʻzlarini boshqalardan yuqori tutish, oʻz maqsadlarini yashirish uchun jargonlarni qoʻllaganlar. Masalan: *Bizga ziyofat malhuz emas, neʼmati jannatni keltir.* (H.H.) *Avomunnosning koʻziga sallai bomujarrad koʻrinish bilan inon va ixtiyori qoʻldan ketadir.* (H.H.)

Argolar qiziqishi, mashgʻulotlari, yoshlari bir xil boʻlgan juda tor doiraga mansub kishilar qoʻllaydigan soʻzlar. Ular umumxalq tiliga oid soʻzlardan boʻlsa-da, bunday soʻzlar keng xalq ommasiga tushunarli boʻlmaydi. Otarchi, bezori va boshqalarning oʻz argolari boʻladi. Masalan, *yakan* (pul), *joyi* (yoʻq)-otarchi; *loy* (pul), *shabas* (menga berib yubor)-oʻgʻri; *zamri* (jim boʻl), *qayon* (qoch)-bezorilar tiliga xos argolardir.

Argolar davr oʻtishi bilan oʻzgarib turadi.

**Tilning leksik qatlamlariga oid:** Bizni qurshab turgan olamdagi hamma, narsa va hodisalar uzluksiz oʻsishda-rivojlanishdadir. Masalan, hovlingizga koʻchat ekingiz. U koʻkarib, asta-sekin rivojlana boshlaydi, lekin uning rivojlanish jarayonini oddiy koʻz bilan kuzata olmaysiz. Koʻchat ekilgan holat bilan uning bir necha oy yoki yil oʻtgandan keyingi holatini solishtirsangiz, undagi roʻy bergan oʻzgarishlarni payqaysiz. Xuddi shuningdek, siz bilan biz gaplashib turgan til ham muttasil rivojlanishda, oʻzgarishdadir. Bu oʻzgarishlarni shu tilning ikki davr oraligʻidagi holatiga qarab bilib olamiz. Masalan, Navoiy tili bilan hozirgi davrdagi oʻzbek tili yoki Fitrat, Choʻlponlar davri bilan bugungi oʻzbek tilini solishtirsak, bu

ikki davr oralig'ida ro'y bergan o'zgarishlar leksikada ko'proq aks etganini sezishimiz mumkin. Ko'rinadiki, bunday o'zgarishlar tilning lug'at jamg'armasida ko'proq namoyon bo'ladi, chunki xalqimiz tarixida ro'y bergan iqtisodiy-ijtimoiy, siyosiy o'zgarishlar tufayli yangi so'zlar kirib keladi, ayrim so'zlar iste'moldan chiqib ketadi. Masalan, eski o'zbek tiliga xos *cherik (askar)*, *o'kush (ko'p)*, *talim (bir qancha)* singari so'zlar bugungi kunda qo'llanilmaydi. Ular o'zbek tili leksikasining eskirgan qatlamini tashkil qiladi. Ularga nisbatan eskirgan so'zlar yoki arxaizmlar va istorizmlar atamasi ishlatiladi. Bunga zid o'laroq *konsalting*, *audit*, *sammit* singari so'zlar esa tilimizga endigina kirib kelyapti. Ular yangi paydo bo'lgan so'zlar, ya'ni neologizmlar sanaladi. Sobiq sho'rolar davrida siyosiy *byuro*, *pioner*, *komsomol*, *oktabryat* singari so'z va birikmalar faol qo'llanilgan bo'lsa, mustaqillik sharoitida bunday so'zlarni ifodalaydigan tushunchalarga hayotda o'rin qolmadi.

Shuning uchun ular iste'moldan chiqib ketdi. Hozirgi kunda yangicha davlat va xo'jalik boshqaruviga, bozor iqtisodiyotiga doir bir qator yangi so'zlar paydo bo'ldi. Ayrim eski o'zbek tilida qo'llanilgan so'zlar yangitdan olib kirildi. Masalan, *hokimiyat*, *hokimlik*, *vazir*, *vazirlik*, *devonxona* va boshqalar. Shunday qilib, o'zbek tili leksikasi turmushimiz uchun keraksiz bo'lib qolgan tushunchalarni bildiruvchi so'zlarning iste'moldan chiqib ketishi, yangi paydo bo'lgan tushunchalarni ifodalovchi so'zlarning esa kirib kelishi hisobiga doimo o'zgarib, rivojlanib, boyib boradi.

**Leksikologiya** tilshunoslikning leksikani o'rganuvchi sohasidir. Tildagi so'zlarning jami leksikani tashkil etadi. Bu so'zlar bii qator umumiy xususiyatlari bilan xarakterlanadi. Leksikologiyada so'zlar quyidagi xususiyatlari bo'yicha o'rganiladi.

1. So'zning semantik strukturasi.
2. So'laring shakl va ma'no munosavati.
3. Leksikologiyadagi so'zlarning o'z yoki o'zlashgan so'z ekani.
4. Qo'llanilishiga ko'ra sozlarning umumiy yoki chegaralanganligi.
5. Tarixiy jihatdan o'zbek tili leksikasi.

6. So'zlarning emotsional - ekspressiv bo'yoq va stilga munosavati.

So'zlarning semantik strukturasi shu so'zga xos ma'nodan iborat bo'ladi. So'zning semantik strukturasi va u bilan bog'liq hodisalarni o'zgartiruvchi so'z semasiologiya deyiladi. Har qanday so'z paydo bo'lishidayoq o'z shakli va ma'nosiga ega bo'ladi.

Boshqacha aytganda, har qanday so'z shakl va ma'no butunligiga egadir; *uy, daraxt, qovun, achchiq, xursand, yaxshi, alvatta* va hokazo.

Tildagi varcha so'zlar ma'noli bo'lsada, lekin ular ma'noning eng umumiy xususiyatlariga ko'ra ham o'zaro farqlanadi. Tildagi so'zlarning asosiy qismi obektiv borliqdagi narsa, belgi, harakat haqidagi tushunchani bildiradi: *paxta, suv, oq, tekis* kabi.

Shuningdek, undov va taqlid so'zlar ham tushuncha ifodalaydi. So'zning obektiv borliqdagi narsa, belgi harakat kabilari haqidagi ma'lumoti **leksik ma'no** deyiladi. Masalan: *tosh, tuz, kartoshka, chopmoq, kulmoq* fe'llari ma'lum harakat va holat haqidagi ma'lumot beradi.

Leksik ma'noli so'zlar narsa, belgi yoki harakatning o'zini emas, balki ularning tushunchasini ifodalaydi.

Tushuncha esa narsa, belgi, harakat kabilarning kishi ongidagi umumiy in'ikosidir. Masalan: Borliqda daraxtnitig turi juda ko'p, uning miqdori behisob. *Daraxt* so'zi shulardan ko'proq bittasini atamaydi, balki shu predmet haqidagi umumiy tushunchani ifodalaydi. Bir ma'nolilik va ko'p ma'nolilik.

So'zlar bir yoki birdan ortiq ma'noga ega bo'lishi mumkin. Bir ma'nolilik monosemiya, ko'p ma'nolilik polisemiya deb ataladi. Har ikkala hodisa ham so'zning semantik strukturasi xos hodisalardir umumistemoldagi so'zlarning asosiy qismi ko'p ma'nolilikdir.

Til jiddiy so'zlarning quyidagi misollaridagi ma'nolarga e'tibor bering: *Olga Petrovna kasalning tilini chiqartirib ko'rdi. Bu yerda tikuv sexi bo'zchilar tili bilan aytganda, do'konxonona.*

*Birinchi xil muhabvat tilda, ikkinchi xil muhabvat dilda bo'ladi. Rustam dehqonchilikning tilini yaxshi o'rgangan.*



Bu o'rinda tildagi so'zlarning ikki - uchta ma'nosigagina misol keltiriladi. Ko'p ma'nolilik ikki asosiy yo'l bilan paydo bo'ladi:

1. So'zning yangi ma'no kasb etishi natijasida.

2. Ko'p ma'noli so'zdan yoki ko'p ma'noli affiks vositasida so'z yasashi natijasida.

Birinchisi asosiy yo'l hisoblanadi. Misol tariqasida yer so'zining quyidagi misollardagi ma'nolarini ko'rsatish mumkin: *Bir vaqt yer osti dukillagandek bo'ldi.*

*Ko'rdingiz - ku qancha yerga ekin ekanman. Hokim cho'zilib yotgan yeridan turib, tashqariga chiqdi.*

Yer so'zi dastlab, xuddi boshqa so'zlar singari bir ma'noli bo'lgan. Uning hozirgi tildagi manolariga esa shu so'z semantik stilistikasining taraqqiyoti natijasidir. Misollarga e'tibor berilsa, ularda o'zaro bog'lanish borligi ko'riladi.

Yasovchi so'zning ko'p manoli bolishida yasovchi affiksning yoki so'z yasalishiga asos bo'lgan so'zning ko'p ma'noligi ham rol o'ynaydi. *Hamma vaqt shohsupada taltayib o'tiradigan yo'g'on gavdasi mana endi kichrayib, nortuyadek novcha bo'yi pasaydi.*

*Ziyofatga borib ko'p yedik, ko'p ichdik. Qornimiz to'yib, ovozimiz pasaydi. Choyning suyuq, oshing tuzsiz deb xotinning ko'zini ochirmay qo'ydim.*


Polisemantik so'z qancha ma'noga ega bo'lmasin, bu ma'nolar o'zaro bog'langan bo'ladi. Xuddi shu xususiyat ko'p ma'noli so'zni omonimlardan farqlanadi, ko'p ma'noli so'zlar orasidagi aloqa uzilsa, omonim vujudga keladi. Masalan: *Bugun juma bo'lgani uchun Hakim boyvachcha va Mirzakarimboy o'z ulfatlarinikiga gapga kelishgan.*

Izohli lug'atda lug'aviy birliklarning ma'nosi izohlanadi. Agar lug'aviy birlik ko'p ma'noli bo'lsa, uning barcha ma'nolari belgilanadi va har bir ma'nosi izohlanadi.

Umumiy izohli lug'atlarda so'zlarning ma'nosi izohlanadi, shuningdek, ularning grammatik stilistik, frazeologik iborada qatnashishi kabi belgi xususiyatlari ko'rinadi.

Lug'aviy birlikning ma'nosi izohlangach shunga misol keltiriladi. Bu tipdagi izohli lug'at o'zbek lug'atchiligi tarixida birinchi marta 1979 yilda yaratildi va Moskvada nashr etildi.

**Talabalarda dastlab leksik qatlam tushunchasi haqida ko'nikma hosil qilish  
(Klaster usulida)**



**Mavzu bo'yicha savollar :**

1. O'zbek tili leksikasining o'z va o'zlashgan qatlamlari haqida nimani bilasiz?
2. Kalka nima? To'liq kalka, yarim kalka va semantik kalka haqida gapiring.
3. Zamonaviy qatlamning o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
4. Istrizm va arxaizmlarga nimalar kiradi?

5. Umumiy va chegaralangan leksikaning guruhlariga nimalar kiradi?
6. Jargon va argolar haqida nimalarni bilasiz?
7. Emotsional-ekspressiv jihatdan o'zbek tili leksikasi qanday turlarga bo'linadi?
8. Tilning rivojlanishi deganda nimani tushunasiz?
9. O'zbek tili leksikasidagi o'zgarishlar haqida gapiring.
10. Mustaqillik sharoitida yangi paydo bo'lgan so'zlarni ayting.
11. O'zbek tili leksikasi qaysi yo'llar bilan boyib, rivojlanib bormoqda?
12. Leksikaning ichki manbalar asosida rivojlanishi deganda nimani tushunasiz va ularning usullari qanday?
13. Tashqi manbalarga qanday holatlarda murojaat etiladi? Quyidagi chizmani daftaringizga ko'chiring va uni yodda saqlang.
14. Nutqda so'zni to'g'ri tanlash mezonlari nima?
15. Tilshunoslikda ko'p ma'nolilikning ahamiyati qanday?
16. Bir ma'noli so'zlar ko'lami to'g'risida nimalar deya olasiz?
17. Polisemiya va monosemiya haqida ma'lumot bering?

### **Topshiriqlar**

**1 - topshiriq.** Quyidagi so'zlarni faol va passiv so'zlarga ajrating.

Yer, quyosh, odam, bashar, chaqmoq, uy, yo'l, dinozavr, uzoq, imlo, g'azal, koinot, ayol, odob, daryo, rejalashtirish, tabib, jadallashtirish, ekmoq, olim, magistratura, bakalavr, zilzila, toshqin, kuldi, sun'iy, agrotexnika, iste'mol, yig'lamoq, yilnoma, yoqilg'i, hafta, sut, qatiq, tovar.

**2 - topshiriq.** Arxaik so'zlarga ma'no jihatidan muqobil zamonaviy so'zlar toping. Yog'iy, dubulg'a, bitik, cherik, firqa, yovuq, pud, qadoq, etmak, handasa.

**3 - topshiriq.** So'zlarning tarixiylik jihatidan qaysi qatlamga xosligini aniqlang. Qarol, feodal, rejissor, yulduz, tashabbus, Turkiston, rasadxona, ochilg'on, teleskop, kuyov, teatr, malay, san'at, dizayn, arbob, epizod, rutba, musofirxona, mirshabxona, devon, milliy xavfsizlik, diplomatiya, aviasozlik, jumhuriyat, dukchi, charx, mug'anniy, ashula, fermer, kompyuter, cho'pchak,

musallas, nota, professor, studiya, sanatsiya, asov, taqa, tarbiya, erk, ma'rifat, aravakash, mahliqo, qalandarlar, rafiq, mushk-u anbar, faytun, mehmon, g'oyibona, g'anim.

**4 - topshiriq.** Quyidagi arxaik so'zlarga ma'no jihatdan muqobil zamonaviy so'zlar toping. Bitik, cherik, etmak, yog'iy, dubulg'a, firqa, yovuq, handasa, fasohat, fiqh.

**5 - topshiriq.** A.Qahhorning «Jonfig'on» hikoyasidan olingan parchani o'qib, eskirgan va zamonaviy so'zlarni toping va izohlang.

Malohatxon Jonfig'on izvoshchilikdan haydalgan yili, mahalladagi aktiv ayollarning himoyasi ostida, erining qarshiligiga qaramay, rayon Sovetiga farrosh bo'lib ishga kirgan ekan, o'qibdi, hademay savodi chiqibdi, bir yilbir yarim yildan keyin hatto majlislarda dokladchiga: «O'rtoq, Sizga savolim bor», deydigan bo'libdi. Tuman hokimining shofyori Timchenko degan ayol uning sog'lomligiga, kuchiga, abjirligiga, ayniqsa, zehniga qoyil bo'lib yurar ekan, bir kuni uyga chaqirib, «sen shofyor bo'lg'in, nima yordam kerak bo'lsa beraman», debdi. Malohat ham shunday bir narsani orzu qilib yurar ekan, darrov ko'ribdi. Shundan keyin Timchenko uni birmuncha vaqt shofyorlar kursiga tayyorlabdi, oqibatda kirgizib ham qo'yibdi. Jonfig'on avvallari uning niyatiga, o'qishga «motovon ko'ngil..., orzuga ayb yo'q» degan nazar bilan qarab yurar ekan, bir vaqt qarasaki, Malohat kursni bitirib, gruzovoy minib yuribdi! Jonfig'on bunga ham ko'nikibdi — «ha, endi, minsa minibdi-da, shu ham martabami, mashinani o'zi o'ylab chiqaribdimi» deb, o'ziga tasalli beribdi, biroq Malohat ikki yilda uch marta mukofotlanibdi. Jonfig'on mukofotni o'z gazi bilan o'lhagani uchun bunga ham uncha parvo qilmabdi. Tayanch tushunchalar eski qatlam, yangi qatlam, arxaizmlar, istorizmlar (eskirgan so'zlar), neologizmlar (yangi paydo bo'lgan so'zlar).

**6 - topshiriq.** O'zlashma so'zlarning qaysi tilga oid ekanligini ko'rsating (arabcha, forscha, lotincha, ruscha).

Saodat, taxi, mashina, a'lo, she'r, karaxt, badjahl, shoir, maorif, xo'roz, gazeta, baxt, ruchka, sehr, stol, bioximiyasi, dazmol, ruxsat, ro'za, qoida, sur'at, obyekt, donishmand, parta, paravoz, muomala.

7 - topshiriq. O'zbek tiliga oid bo'lgan quyidagi turkiy so'zlarni uch guruhga ajratib ko'chiring.

1. Tub so'zlar.
2. Aslida yasama, hozirda bir o'zakni tashkil qiluvchi so'z.
3. Yasama, qo'shma, juft so'zlar.

Tush, ish, bor, kel, uch, qush, bugun, bog'ich, qalin, burun, ochko'z, bo'yinbog', bog'lash, iturug', ayg'oqchi, bola, dala, ertaga, to'ng'ich, kunbotar, miskar, tuz, baldoq, oltov, to'ng'iz ... Yuqoridagi so'zlarni siz ham davom ettiring. Tayanch tushunchalar o'zbek tili leksikasining boyish manbalari, ichki manba, tashqi manba, arabcha so'zlar, forsha-tojikcha so'zlar, ruscha-baynalmilal so'zlar.

#### 4-MAVZU: TIL VA TERMINOLOGIYA

##### REJA:

1. O'zbek terminologiyasining taraqqiyot bosqichlari.
2. Tilning lug'at tarkibi.
3. O'zbek leksikografiyasi.
4. Umumiy va maxsus lug'atlar (Akademik, ommabop va o'quv lug'atlari).
5. Sohaviy lug'atlarda terminlar.
6. Tezaurus haqida ma'lumotlar.

*So'zlar fan va texnikaning ma'lumi tarmog'ida qo'llanilib, tashqi aloqalar chegaralangan ma'noda tashqi aloqalar ma'nolariga ega bo'ladi.*

Respublikamiz mustaqil deb o'lon qilingandan keyin, bu sohadagi ahvol butunlay o'zgardi. Tashqi iqtisodiy aloqalar yanada rivojlanib ketdi.

Dunyoning juda ko'p mamlakatlari bilan xilma-xil aloqalarga keng yo'l ochildi.

Bu omillar o'zbek tilida yangi-yangi terminlarning paydo bo'lishiga sabab bo'ldi.

Bu yangi terminlar sirasida iqtisodiy terminologik tizim ham o'ziga xos o'rinni egallab kelmoqda.

Shu boisdan, fan va texnika taraqqiyotining hozirgi bosqichida iqtisodiy terminlarni ham tilshunoslik nuqtai nazaridan tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

*Termin usuliy, konkret tushunchalarni bildirib, his-hayajon ma'nolaridan xali bo'lmadi. So'zning ma'nosi muvakkil bo'lib, bunda tushuncha qo'shuncha ma'no va ustulubiy belgilariga ega bo'ladi.*

Amaliy, ayniqsa, nazariy masalalarni hal etish uchun iqtisodiy terminlar tizimini, ularning yuzalish qonunlarini, shakllanish manbalarini, umumtilda qo'llanish doirasini, muzkur tizimda ro'y berayotgan kamchiliklarni va ularni bartaraf etish yo'llarini aniqlash kabi qator masalalarni o'rganish zaruriyati paydo bo'ldi.

Fanning yana bir maqsadi hozirgi o'zbek tilida

qo'llanib kelinayotgan iqtisodiy terminlarni to'plash va sistemalashtirishdan ham iboratdir. Hozirgi bosqichda, ya'ni yuqori saviyadagi ilmiy-texnik inqilob davrida ishlab chiqarish, fan va texnikaning barcha sohalarida yangidan-yangi narsa, predmet va tushunchalar paydo bo'la boshladi. Bu hol til lug'at tarkibining salmoqli ravishda boyishiga olib kelmoqda. Binobarin, termin muammosi hozirgi leksikologiyaning asosiy masalalaridan biri bo'lib qoldi.

“Terminlar paydo bo'lib qolmaydi”, aksincha, ularning zaruriyati anglangan holda “o'ylab topiladi”, “ijod qilinadi”.

*Terminlar  
rasmiylashgan so'zlar  
bo'lganligi sababli  
respublika miqyosida,  
hatto dunyo miqyosida  
bir tushunchani  
anglatadi.*

*Termin soha terminlari  
tizimining bir elementi  
bo'lib, har doim bir tizim  
doirasida qo'llaniladi.*

Yuqorida terminshunoslarning terminning asosiy vazifasi va xususiyati haqidagi, ya'ni terminlarning nominativligi yoki definitivligi haqidagi fikrini keltirdik. Terminologik birikmalarning ko'p leksemaliligi, ya'ni ular komponentlarining soni nechtagacha bo'lishi keyingi yillarda terminshunoslarning diqqat-e'tiborini jalb etib kelmoqda. Haqiqatan ham keyingi yillarda miqdoran ortib borayotgan ko'p komponentli birikma terminlar tushuncha mazmunini to'laroq ifodalashga xizmat qilsa-da, ularni amalda qo'llash va esda saqlab qolish ancha noqulaydir. Aslini olganda, bunday terminlar ikki, nari borsa uch, to'rt komponentdan iborat bo'lishi lozimki, natijada, birikma terminlarning

*Termin kasbiy ma'no bildiruvchi, kasbiy tushunchani ifodalovchi va shakllantiruvchi ayrim obyektlar va ular o'rtasidagi aloqalarni muayyan kasblar muqatai nazaridan bilish hamda o'zlashtirish jarayonida ishlatiladigan so'z yoki so'z birikmadir.*

komponentlari, tegishli belgilarni to'laroq aks ettirish maqsadida, aniqlovchilar, sifatdoshli o'ramlar qo'shish orqali hosil qilinishi lozim.

Ta'kidlash joizki, terminlar masalasi bilan shug'ullangan deyarli barcha olimlar mazkur tushunchaning ta'rifini berishga urinib ko'rishgan. Ularning barchasigina emas, ayrimlarini, ham namuna tariqasida keltirib o'tish ko'plab sahifani egallagan bo'lardi.

Shuning uchun ularni jamuljam etgan holda "termin" tushunchasiga quyidagicha ta'rif berish mumkin.

Har bir sohaning, tarmoqning termini borki, u o'sha soha, tarmoq doirasida qo'llanadi, aniqroq qilib aytganda, kasb-hunar egasining nutqini shakllantiradi, o'zaro nutqiy muomala uchun shart-sharoit yaratadi.

Bu o'rinda shuni qayd etish lozimki, muayyan kasb-hunar yoxud mutaxassislikka ega bo'lgan kishilar ko'pincha u yoki bu sohaning o'ziga xos spetsifik terminlari bilan ish ko'radi.

*Iqtisodiyot sohasining qator terminlari ham borki, ular muayyan til egalarining deyarli barchasi nutqida bab-baravar ishlatilaveradi.*

*Bozor, mol, savdo, savdo-sotiq, pul, huridor, bozorchi, olib-sotar, chayqovchi kabilar shular jumlasidandir.*

Masalan, bo'lajak iqtisodchilarning yozma yoki og'zaki nutqida *kartel, kliring, tovar oboroti, mayda mulkchilik, mablag' ajratish, renta* kabi tor doiradagina qo'llaniladigan terminlar ishlatilishi tabiiy bir holdir. O'z-o'zidan ayonki, bu xildagi terminlar iqtisodiyotdan uzoqroq biror kasb egasining nutqida ishlatilmaydi.

Ta'kidlash lozimki, nafaqat iqtisodiyot balki fan-texnika, ishlab chiqarishning xilma-xil soha va terminlar majmui, ya'ni yig'indisi terminologiya deb ataladi. Masalan, matematika terminologiyasi, tibbiyot terminologiyasi, iqtisodiyot terminologiyasi va boshqalar.



*O'zbek tilshunosligida  
terminlarni o'rganish.  
ularni tartibga solish,  
terminologik lug'atlar  
tuzish kabi qator chora-  
tadbirlar XX asrning  
20-yillari o'rtalaridan  
boshlangan.*


Zero, ayrim leksikografik ishlarni hisoblamaganda, o'zbek tilini ilmiy asosda o'rganish, hozirgi o'zbek tilshunosligining fan sifatida yuzaga kelishi ham shu davrdan boshlangan. Albatta, terminlarni o'rganish ehtiyoji o'z-o'zidan kelib chiqqan emas, barcha bilim sohalari bo'yicha o'zbek tilida ta'lim berishni yo'lga qo'yish, bilim sohalarining sezilarli darajada rivojlana borishi, ilmiy tafakkur doirasining kengayishi, sobiq ittifoqdagi milliy tillar, jumladan, o'zbek tili lug'at tarkibining boyib borishi, binobarin, tilda terminlarning ko'payib borishi ularni (terminlarni) har tomonlama o'rganish va tartibga keltirishga turtki bo'lgan edi.

*1984-yilda O'zbekiston  
Fanlar akademiyasi  
Prezidiumi qoshidagi  
Respublika  
Munassalarara  
terminologik komiteta  
(KMTK)ning  
Atamashunoslik  
qo'mitasi tashkil  
etilgan.*

O'zbek tilshunosligida turli fan sohalariga oid terminologik tizimlarni lingvistik jihatdan har tomonlama ham ilmiy, ham amaliy o'rganish, asosan, 1930-yillardan keyin izchilroq tus ola boshladi; termin va terminologiyaning nazariy masalalariga bag'ishlangan maqolalar ayrim fan sohalarini terminlarini lingvistik jihatdan tahlil etishga bag'ishlangan nomzodlik dissertatsiyalari yuziga keldi, mukammal terminologik lug'atlar yaratishga kirishildi.

Bugungi kunda terminologiyaning amaliy va nazariy jihatlarni yanada chuqurroq o'rganish, termin qo'llashni tartibga solish davlat ahamiyatidagi masalaga aylandi.

O'zbekiston Respublikasining Davlat tili haqidagi Qonuni qabul qilinishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Respublika terminologiya qo'mitasining ish boshlashi, terminologiya masalalariga bag'ishlab Respublika miqyosida bir necha ilmiy-amaliy, ilmiy-nazariy konferensiyalarning



o'tkazilganligi fikrimizning yaqqol dalilidir.

RMTK o'z faoliyati davomida "O'zbek tili terminologiyasi" nomli byulleten nashr etishni yo'lga qo'ydi. unda o'zbek tili terminologiyasining dolzarb masalalariga bag'ishlangan qator maqolalari bilan birga, har bir qo'llanuvchi terminlarning ro'yxati ham berib borildi.

Shuni qayd etish lozimki. Atamaqo'm RMTK an'anasini davom ettirib, ko'rsatilgan "Byulleten" ni nashr etishni yo'lga qo'ydi.

Ta'kidlash lozimki, Atamaqo'm keyingi yillarda o'zbek tili terminologiyasi tizimlarini barqarorlashtirish va terminlarni har xilligiga chek qo'yish borasida

ancha-muncha ishlarni amalga oshirdi, boshqacha qilib aytganda, respublikamizda terminologiya masalalarini hal etish jonlantirib yuborildi. Xususan, uning tashabbusi bilan terminlarni nomlash prinsiplari ishlab chiqildi va e'lon qilindi. O'zbek tilining iqtisodiy terminlarini to'plash, sistema lashtirish, ilmiy nuqtai nazardan tadqiq etish va shu asosda bu terminologik tizimni imkon boricha tartibga solish zarurati tug'ildi.

Shuni aytish kerakki, tilda an'anaviy tarzda qadimdan saqlanib kelayotgan iqtisodiy atamalar bilan zamonaviy iqtisodiy terminlar o'rtasida juda katta farq bor.

Qadimgi iqtisodiy atamalarning miqdori ancha cheklangan bo'lsa, hozirgi yangi davr, ya'ni bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida iqtisod terminlariga ehtiyoj ortishi munosabati bilan iqtisodiy terminlar benihoya boyib bormoqda.

*Atamashunoslik  
qo'mitasi ilm-fan,  
ishlab chiqarishning  
turli sohalariga oid  
terminologik lug'atlar  
seriyasini chiqaru  
boshladi.*

## O'zbek leksikografiyasi (lug'atshunosligi).

Tilshunoslikning lug'at tuzish ishi bilan shug'ullanadigan bo'limi **leksikografiya** deyiladi. Lug'atlar tilning lug'aviy boyligini to'plovchi kitobdir. Lug'atlar muayyan mavzularda tuzilib, unda so'zlar alfavit tartibida joylashtiriladi. Lug'at tuzish ishi bilan lug'atshunoslar qadimdan shug'ullanib kelishgan. Masalan, XVI asarda usmonli turk tilida «Abushqa» lug'ati yaratilgan. Lug'atlar xarakteriga ko'ra ikki turga bo'linadi: **1) qomusiy (entsiklopedik lug'at) lug'atlar; 2) lingvistik lug'atlar.**

Qomusiy lug'atlar ilmiy, siyosiy, adabiy va ishlab chiqarishga xos tushunchalar, borliqdagi predmetlar va voqea-hodisalar haqida ma'lumot beradi.

«O'zbek milliy entsiklopediyasi», «Uy-ro'zg'or entsiklopediyasi», «Salomatlik entsiklopediyasi», «U kim, bu nima?» kabi lug'atlar qomusiy lug'atlar sirasiga kiradi. So'zlarni tilshunoslik nuqtai nazardan izohlaydigan lug'atlar lingvistik lug'at deb yuritiladi. Lingvistik lug'atlar bir tilli, ikki tilli va ko'p tilli bo'ladi. Bir tilli lingvistik lug'atlarda lug'aviy birliklar bir tilning - o'zbek tilining o'zida izohlanadi.

Bunday lug'atlarga «Imlo lug'ati», «Orfoepik lug'at», «O'zbek tilining morfem lug'ati», «O'zbek tilining sinonim so'zlar lug'ati», «O'zbek tilining omonim so'zlar lug'ati», «O'zbek tilining antonim so'zlar lug'ati», «O'zbek tilining frazeologik lug'ati», «Etimologik lug'ati», 1981-yilda yaratilgan «O'zbek tilining izohli lug'ati» (2 jild) kabilar. «O'zbek tilining izohli lug'ati»da so'z va iboralarning o'z va ko'chma ma'nolari haqida to'la ma'lumot beriladi.

Ikki tilli va ko'p tilli lug'atlar tarjima lug'atlari bo'lib, ular boshqa tilning lug'at tarkibini o'zbek tiliga yoki aksincha o'zbek tilining lug'at tarkibini boshqa tilga tarjima qilish uchun xizmat qiladi. Ikki tilli va ko'p tilli lug'atlarga o'zbekcha-ruscha, ruscha-o'zbekcha, o'zbekcha-inglizcha, inglizcha-o'zbekcha, o'zbekcha-inglizcha-nemischa kabi lug'atlar kiradi.

Ko'p tilli lug'atlar o'tmishda ham tuzilganligi arabcha-forscha-turkcha lug'atlardan ma'lum. Hozirgi kunga kelib ko'p tilli lug'atlar tuzish ancha

jadallashdi. Chunki, ko'p tilli lug'atlar hozirgi tillarni qiyosiy o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.


Lug'at fan va texnika, madaniyat, umuman jamiyatning taraqqiyotini borayotganini o'zida aks ettiradi. Lug'atlar muhim madaniy boylikdir, chunki lug'at nutq madaniyati, so'zlarning ma'nolarini aniq tushunish va ularni nutqda to'g'ri qo'llash, savodxonlikka erishishning asosidir.

#### Savollar :

1. Leksikologiyaning bo'limlari haqida gapiring.
2. Lug'atshunoslik deganda nimani tushunasiz ?
3. O'zbek tilida mavjud lug'at turlarini sanang.

**Matn ustida ishlash: Kitob – bilim manbai.**

Matn mavzusi doskaga yoziladi va sharti tushuntiriladi. Talabalar uch guruhga bo'linadi. Guruh talabalar o'zaro bahs-munozara yuritgan holda muammoni hal qiladilar. Tayanch so'zlar doskaga yoziladi: *bilim o'chog'i, ma'naviyat xazinasi, yozma yodgorliklar, bilimli kishi xor bo'lmaydi, kitobning mening hayotimdagi o'rnini va boshqalar.*



**Matn yuzasidan ishlash uchun FSMU usulidan foydalanamiz.**

Bu usul quyidagicha tarkibga ega: F – fikrlang; S – sabab ko'rsating; M – misol keltiring; U – umumlashtiring.

Berilgan topshiriq yuzasidan talabalar o'z fikrlarini bildiradilar. Kitobning afzalliklari haqida mulohazalarini yozma og'zaki tarzda bayon etadilar.

**Mavzuni mustrahkamlash:** bunda talabalar tomonidan tayyorlangan tarqatma materiallar va krossvordlardan foydalanish. Shu bilan bir qatorda testlar bilan ham ishlash.

#### **Xulosa:**

a) o'rganilayotgan tilda muloqot malakasi egallandi.

b) talabalarda sodda gap va uning grammatik asosi va bir bosh bo'lakli va ikki bosh bo'lakli gaplardan o'rinni foydalanish ko'nikmasini shakllantirildi.

v) milliy qadriyatlarimiz ma'naviy boyligimiz bo'lgan hikmatlardan foydalangan holda insinuy fazilatlarni rivojlantirdik.

**Uyga vazifa:** mavzuni o'qib-o'rganib kelish so'zlarning tobe bog'lanish yo'llari

yuzasidan gaplar tuzish va tahlil qilish.

#### **Topshiriqlar:**

**1-topshiriq:** Amir Temur tomonidan aytilgan o'gitlarni daftaringizga yozib oling va ular haqida bahs tashkil qiling.

Ulamolar suhbatida bo'l, pok, sof niyatli kishilarga talpin. Kechira olishlik - mardlik, kechira bilmaslik - nomardlik. Ahli ehson bilan jahon gulshani obod bo'lar. Bir kalima shirin so'z qilichni qinga kiritadi. Kitob barcha bunyodkorlik, yaratuvchilik va aql-idrokning, ilmu donishning asosidir, hayotni o'rgatuvchi murabbiydir. Ilm va dinning mashhur kishilari o'z maslahatlari bilan podshohlarga yordam berib kelganlar. Dushmanning kulgani - siringni bilgani. Bir kunlik adolat yuz kunlik toat-ibodatdan afzal. Kuch - adolatdadir.

**2-topshiriq:** Hadislarni o'qing. Ularning hayotimizga naqadar to'g'ri keli-shi haqida fikr yuriting. O'zingiz ham hadislarga namunalar ayting va daftaringizga yozing.

Kasbning eng yaxshisi - kishining o'z qo'li bilan bajarilgan ishi va halol savodi. Sadaqaning afzali - musulmon kishining ilm o'rganib, so'ng boshqa musulmon birodarlariga ham o'rgatishi. Halol kasbdan charchab uxlagan odam gunohlari kechirilgan holda tunaydi. Ilmni yozib qo'yish bilan bog'lab olinglar. Ilm ibodatdan afzal. Jannat onalar oyog'i ostidadir. Kimki shoshmay, sabr-qanoat bilan ish qilsa, qilgan ishi to'g'ri chiqadi. Saxiy kishining taomi shifodir. Odamlar bilan murosa-yu madoraga kirishish ham sadaqa hisoblanadi.

## 5-MAVZU: TERMINLARNING YASALISHI

### REJA:

- 1.Sohaviy terminlarning morfologik usul bilan yasalishi.
- 2.Sohaviy terminlarning sintaktik usul bilan yasalishi.
- 3.Sohaviy terminlarning semantik usul bilan yasalishi.

Ma'lumki, fan-texnika, qishloq xo'jaligi, sanoat tarmoqlarida qo'llanilayotgan so'z va iboralar eng qadimgi davrlarda o'sha sohalarning boshlang'ich davrlarida qo'llanilayotgan so'z va iboralar kabi ma'lum predmetlarga atab qo'yilgan va o'sha predmetlarni bildiradigan bir ma'noli so'z va terminlardir.

Aslida termin va oddiy so'zning farqli jihatlariga e'tibor qaratmoqchi bo'lsak, bu hodisalarga o'sha soha bilan shug'ullangan olimlarning fikrlariga nazar solish va shu asosda termin va oddiy so'z oppozitsiyani hal qilish maqsadga muvofiqdir. Odatda, olimlar terminlarning quyidagi belgilarini ko'rsatadilar:

- 1) termin bir ma'noli yoki bir ma'noli tendentsiyaga ega;
- 2) termin aniq, nominativ funktsiyaga ega bo'lib, unga emotsionallik, ekspressivlik, modallik funktsiyalari xos emas. Termin o'zining bu xususiyatini kontekstda ham, kontekstdan tashqarida ham saqlaydi;
- 3) terminning ma'nosi tushunchaga tengdir;
- 4) termin stilistik jihatdan neytraldir;
- 5) terminologik leksika alohida sistemadir va hokazo.


Tilshunoslikda terminlarning o'zgarishi hamda yangi terminlarning paydo bo'lishi fan va texnika taraqqiyoti bilan uzviy bog'liqdir. Bu haqda tilshunos olim

L.I.Bojno quyidagilarni ta'kidlaydi: «Texnika taraqqiyoti ta'sirida terminologiya o'zaro aloqador ikki qonuniyat asosida, birinchidan, ilmiy-texnika progressi qonuniyatlari bilan, ikkinchidan, til rivojlanishining umumiy qonuniyatlari bilan bog'liq ravishda o'zgarib boradi». Texnik malakaning endilikda ma'lum tor doiradan chiqib, ommaviy xarakterga ega bo'layotganligi va turli sohalarning mutaxassisleri kundalik faoliyatida fan va texnika yutuqlaridan keng foydalanayotganligi terminlarga bo'lgan yuksak talab bilan uning hozirgi holati orasidagi nomuvofiqlikni bartaraf etishni talab etadi. Shu jihatdan, terminlarni tartibga solish juda katta ilmiy va ijtimoiy ahamiyatga egadir. D.S.Lotte qanday kategoriyadagi so'zlar terminlashishi mumkinligi haqida gapirib: "...texnikada quyidagi tushunchalarni anglatuvchi asosiy kategoriyalar terminlashadi: jarayonlar (hodisalar); texnika predmetlari (materiallar, qurollar, asboblari, detallar va h.k.); xossalari; hisobiy tushunchalar (parametrlar, geometric obrazlar va hokazo); o'lchov birliklari", A.V.Kalinin esa termin bilan kasb-hunar so'zlarining bir-biridan farqli ekanligini quyidagicha asoslashga intiladi: "...termin – bu muayyan fan, sanoat sohasi, qishloq xo'jaligi, texnikadagi tamomila rasmiy bo'lgan, qabul qilingan va qonunlashtirilgan biror tushunchaning ifodasidir, nomidir, kasb-hunar so'zlari esa – biror kasb, mutaxassislik o'rtasida ko'pincha jonli tilda tarqalgan, aslini olganda, tushunchaning qat'iy, ilmiy tavsifiga ega bo'lmagan yarim rasmiy so'zdir".

Fan-texnikaning tez sur'atlar bilan rivojlanib borishi natijasida yangidan-yangi mashinalar, apparatlar, asbob-anjomlar va texnologik jarayonlarning paydo bo'lishi bilan ularni ifodalovchi yangi terminlar ham vujudga kelmoqda. Shu sababli, yangi texnika vositalari qaysi sohaga ko'proq kirib kelgan bo'lsa, shu soha terminologiyasi to'xtovsiz ravishda kengayib bormoqda.

Natijada, ushbu soha terminologiyasiga juda ko'plab yangi tushunchalar va ular bilan birga yangi ilmiy-texnikaviy terminlar ham kirib kelmoqda. Albatta, bunday o'zgarishlar o'zbek tilining ish ko'rish doirasini kengaytirib, uning leksik tarkibini yangi-yangi ilmiy va texnik terminlar bilan boyitdi. Ko'pchilik hollarda

yangi terminlar yaratish ishiga oddiy tarjima yoki kalkalash jarayoni sifatida qaraymiz. Terminologiyadagi mavjud kamchilik hamda tartibsizliklarning asosiy sabablaridan biri ham shundadir. Zotan, yangi termin yaratish har tarafdin mukammal bo'lgan ijodiy jarayondir. Har qanday ilmiy-texnikaviy termin oddiy so'zning yoki so'z birikmasining terminologiyadagi aksi bo'lib, u aniq chegaralangan hamda belgilangan mazmunga, bu mazmun esa, kontekstdan qat'iy nazar, faqat shu terminga oid bo'lishi lozim. To'g'ri, hech qanday til faqat o'z termin elementlari hisobiga terminologiyasini qura olmaydi. Til qurilishi jarayoni shuni ko'rsatadiki, dunyoda sof tilning o'zi umuman mavjud emas. Har doim boshqa tillardan termin o'zlashtirish jarayoni sodir bo'lib turadi, bu jarayondan chekinish mumkin emas. Ammo chtiyoj sezilmagan holatlarda ham xorijiy terminlarni sun'iy ravishda tilga olib kirish har doim o'zini oqlayvermaydi. Bunday holatlarda ko'proq o'z til imkoniyatlaridan foydalanish va bunda termin ifodalashi lozim bo'lgan tushuncha mohiyati bilan termin o'rtasidagi mutanosiblikni saqlashga e'tiborni qaratish lozim. Ma'lumki, muayyan terminologik tizim yoki umumiste'moldagi ma'nosi ko'chirilgan leksemalar boshqa sohaning "mulki"ga aylana ekan, yakka holatda ham, ma'lum so'zlar qurshovida (ya'ni birikma tarkibida) ham shu sohaga doir tushunchalarni ifodalay oladi. Masalan, shunday bir tushunchani olib ko'raylik: "qimmatbaho qog'ozlar, valyuta, tovar narxining pasayishidan foydalanuvchi birja chayqovchilari". Bu tushuncha iqtisodchilar tilida "ayiqalar" deb ataladi.





**Matematik terminlar** iqtisod termini vazifasini bajarib kelishi mumkin. Masalan: *chorak reja, normativ qiymat, differensial renta, yig 'ma ko 'rsatkich, ish haqi darajasi, daromadning qoldig'i, iqtisodiy integratsiya, bozor hajmi, nisbiy daraja, narx darajasi, foyda miqdori, qiymat o'lchovi, bo'linma, qiymat solig'i.*

**Texnika vositalari va ularning qismlari hamda atributlarini anglatuvchi terminlar.** Masalan: *amortizatsiya fondi, mashinalashgan hisob, kreditning elastikligi, talabning egiluvchanligi, bozor mexanizmi. Moliyaviy mexanizm har bir soha va bo'g'inlar bir butun yaxlitlikning tarkibiy qismi hisoblanadi.*

**Fizikaviy terminlar bilan aloqador so'zlar iqtisod termini vazifasini bajarib kelishi mumkin.** Masalan: *bozor muvozanati, mehnat sig'imi, kapital sig'im, nisbiy daraja, pul massasi, tebranuvchi talab, o'zgaruvchan xarajat, doimiy xarajat, o'zgaruvchan narx, mutloq daraja, talabning egiluvchanligi, fond sig'imi.*

**Qishloq xo'jaligi va uning atributlarini anglatuvchi terminlar:** *agrar, krizis, sohibkorlik, qiymatning o'sishi, tovar xojaligi, o'sim, qarz o'simi, undirilgan pul, pulundirish, unumsiz chiqim, unumsiz xarajat, undiriladigan soliq, iqtisodiy o'sish, talabni o'stirish, agrobiznes, agrosanoat.*

**Ijtimoiy fanlar va ularning atributlarini anglatuvchi terminlar.** Masalan: *moliya oligarxiyasi, qadrlı mablag', ixtisoslashtirilgan sarmoya, avtonom byudjet, absolyut renta, ta'sischi aksiyalari, mutlaq naf, erkin savdo, tovar moddiy qadriyatlar, to'lov qobiliyatsizligi, yetakchi valyuta, tovar turkumi, bozor unsurlari, daromad samarasi, ixtiyoriy ishsizlik, shiddatli inflyatsiya, o'rinbosar tovarlar, xayriya fondi, vaqf fondi, iqtisodiy inqiroz, iqtisodiy tanazzul, pulning qadrsizlanishi, muomala fondlari.*

**Zoologiya terminlari ham iqtisod termini vazifasini bajarib kelishi mumkin.**

Masalan: *o'rmalovchi inflyatsiya, suzib yuruvchi inflyatsiya, yuguruvchi inflyatsiya.*

Turkiy tillarda leksemalar hosil qilishning keng tarqalgan yo'llaridan biri affiksalar orqali so'z yasashdir. Bu usulning terminlar yasash ko'lamı keyingi davrlarda yanada kengaydi, terminologik tizimga mansub terminlarning ayni shu usul bilan yasalayotganligi shundan dalolat beradi. Terminologiyaga oid

tadqiqotlardan ma'lum bo'lishicha, biror terminologik tizimda affiksatsiya usuli bilan terminlar yasash bir qadar faol bo'lsa, boshqasida esa kam mahsuldur.

## TERMINLARNING YASALISHI

**Morfologik usul bilan termin yasashda o'zak-negizga so'z yasovchi qo'shimchalar qo'shuladi va yangi terminlar hosil qilinadi.** *Islo'holchi, tadbirkor, mulkdor, shartnoma, taqsimot, hojxona*

**Sintaktik usul bilan termin yasashda birikmali terminlar hosil qilinadi.** *ot+ot= bozor narx, yer rentasi; sifat+ot= yalpi mahsulot, sof daromad; sifatdosh+ot= cheklangan xarajat, kechiktirilgan talab, uyushgan narxlar*

**Semantik usul bilan termin yasashda ma'no ko'chirishning metafora usuli asosiy rolni o'ynaydi.** *Yig'ma ko'rsatkich, kreditning elastikligi, kapital sig'imi, undirilgan pul, o'rnatilgan tushyatsiya, pul massasi*

**Mavzuni mustahkamlash:** bunda talabalar tomonidan tayyorlangan tarqatma materiallar va krossvordlardan foydalanish. Shu bilan bir qatorda testlar bilan ishlash.

### Xulosa:

- o'rganilayotgan tilda muloqot malakasi egallandi.
- talabalarda terminologiya yuzasidan o'rta umumiy ta'limdan olgan bilimlarini mustahkamladik.

### Topshiriqlar

**1-topshiriq:** So'zlarning qaysi sohaga tegishli ekanligini ajratib ko'rsating:

Landshaft, dizayn, forsaj, kompozitsiya, san'at, atama, urg'u, affiks, davlat, jamiyat, demokratiya, paleolit, feodalizm.

**3-topshiriq:** Ixtisoslikka oid atamalar lug'atini tuzing.

Namuna: *orfoepiya* - grekcha *orfo* - to'g'ri, *epos* - nutq ma'nolarini bildiradi;  
*Leksikografiya* - grekcha *lexikos* -- so'z, *tushuncha*; *grafos*- yozmoq degan ma'nolarni bildiradi.

## 6 - MAVZU: MATN VA UNING TURLARI. MIKRO MATN VA MAKRO MATN

### REJA:

1. Ilmiy va ilmiy-ommabor matnlar.
2. Ixtisoslikka oid ilmiy matnlarda sohaviy terminlar.
3. Xulosa.

**Matn va uning turlari:** Matn ma'lum fikrlar yig'indisi hisoblangan nutq, nashrdan chiqqan asardir. U o'ziga xos asar hisoblanishi va mazmunga (ilmiy, rasmiy, badiiy va hokazo) yoki hujjat xarakteriga ega bo'ladi.

Matn ikki xil ko'rinishda bo'ladi: dialogik va monologik.

Dialogik matn ikki va undan ortiq suhbatdoshning turlicha mazmundagi fikraxonorot almashinuvidan iborat.

Dialogik matn tarkibida so'roq olmoshlari, muomala odobiga oid so'z va iboralar, yuklamalar, undovlar, kirish so'zlar keng qo'llanadi. Kop kishilik dialoglarda suhbat mavzusi savol-javobdan iborat bo'lmay, o'rtaga tashlangan savol, taklif, da'vat, biror xabar, dalillar bilan xulosalanadi. Bunday matndagi gaplar, asosan, sodda gaplardan tashkil topadi, sodda gaplarning bir tarkibli turlari, to'liqsiz gaplar, so'z-gaplar faol ishlatiladi.

Tavsifiy(monologik) matn so'zlovchi yoki yozuvchi tomonidan bayon etilgan voqea-hodisa, narsa yoki shaxs tasviri, tavsifi yoxud xabar, ma'lumot bayonidir.


Maqola, insho ham tavsifiy matnning bir turi sanaladi. Ma'lum voqea-hodisalarga, narsa va shaxslarga oid fikr-mulohaza bildirish, ularni badiiy-tasviriy vositalar yoki dalillar bilan ta'riflash, izohlash, isbotlash, asoslash tavsifiy matnga xos xususiyatlardandir. Tavsifiy matnda belgi-xususiyat ifodalovchi so'zlar, atamalar, modal so'zlar, fe'lining funksional shakllari, ravishlar faol qo'llanadi.

Akademik matnlar yaratishning o'ziga xos xususiyatlari.

Matn tilini ilmiy o'rganishda undagi tovush (harf) va mazmun munosabatiga alohida e'tibor qaratish kerak.

Matn tilshunosligi ilmiy jihatdan boshqa tilshunoslik sohalaridan farq qiladi. Tilshunoslik, umuman, tilda fonema (tovush), morfema (eng kichik ma'nodor birlik), so'z (tilning asosiy markaziy birligi), so'z birikmasi va gapni birliklar sifatida ajratib, ulami fonologiya, morfologiya, leksika, sintaksis va stilistika kabi til bosqichlarida o'rganadi.

An'anaviy tilshunoslik va matn tilshunosligi o'rtasida katta farqlar bor. Matnga bir butun sistema va struktura sifatida yondashilsa, farqlar yanada oydinlashadi. Hozirgi davrda mavjud bo'lgan matn tilshunosligiga doir turli nazariy qarashlar ham o'zaro farqlanadi, lekin ular negizidagi eng asosiy muammo matn tuzilishi va unda mazmunning tildagi ifoda vositalari bilan berilishidir. Biroq matndagi har bir birlik doirasida tildagi turli kategoriyalar va ularning qo'llanishini alohida o'rganish mumkin.



**Matn - til taftlatning barcha xususiyatlari nujussamlanadigan hisoniy birlikdir.**

**Matn - tilning yashash, «hayot kechirish» shakli va shunga nisbatan uning maqom belgilanadi.**

Nutqda ishlatilish doirasi ma'lum kasb-hunarga ko'ra chegaralangan so'zlar kasbhunarga oid so'zlar hisobalanadi. Bunday so'zlar qaysi hududda yashashidan qat'i nazar, bir xil kasb egalariga tushunarli bo'ladi. Masalan, *doska* (kulollar xom idishlar ichini dasmollashda suv quyib ishlatadigan sopol idish), *jo'sha* (tog'dan olinadigan qizil kesak), *volash* (loyni ochib-yorib tozalash) kabi so'zlar kulollargagina tushunarlidir.

Kasb-hunarga xos so'zlarning asosiy qismini shu sohaga oid atama (termin)lar tashkil etadi. Atamalar fan, texnika, madaniyat kabi sohalardagi aniq chegaralangan tushunchalarni ifodalaydigan bir ma'noli so'z va so'z birkimlaridir. Atamalar qo'shimcha ma'no jilolariga ega emas. Atamalarning ko'pchiligi boshqa tillardan o'zlashgan so'zlardan iborat. Masalan, *advokat*, *argon*, *diolog*, *debitor*, *grant*, *modul*, *metr*, *test*, *tormoz*, *marketing* kabilar.

#### **Xulosa.**

- a) o'rganilayotgan tilda muloqot malakasi egallandi.
- b) talabalarda so'z ma'nolari yuzasidan o'rta umumiy ta'limdan olgan bilimlarini mustahkamladik.

#### **Topshiriqlar:**

**I - topshiriq:** Matnni o'qing. Sohaga oid atamalar qo'llangan gaplarni ko'chirib oling, qavs ichidagi atamaning ma'nosini yozing.

Bir xil ma'noli ifodalarni nutqda ortiqcha kiritish mantiqiylikning buzilishiga sabab bo'ladi. Bir xil ma'noli birdan ortiq ifodalar pleonazm deb yuritiladi: men, o'zim, shu bugun, bugundan boshlab kabi. Mantiqiy aloqalar va munosabatlarni

ifodalashning muhim vositalari bo'lib kirish so'z, kirish birikmalar, yordamchi so'zlar, bog'lovchilar, yuklamalar hisoblanadi. Ulardan to'g'ri foydalanish yaxshi nutq yaratishning garovi hisoblanadi.

**2-topshiriq:** O'zbek va rus tilidagi so'zlarni oqing va taqqoslang.

Согласный звук «Q'» - более глубокий, чем русский «Г». «Q'» скользит между основанием языка и нёба:

g'uncha- бутон                      g'or-пещера

g'alla-зерно                         g'am-горе

g'azal-газель                        g'oya-идея

Согласный звук «H»- мягко скользящий.

hayot-жизнь                         haqiqat-правда

havo- воздух                         haykal-монумент

hosil-урожай                        baho-оценка

В узбекском языке есть один носовой звук, который в орфографии передается сечением звук букв-«нг».

ong-разум                             ming-тысяча

bong-колокол                        teng-равный

tong-рассвет                         keng-широкий

Согласный звук «J» орфография этого звука мягче чем в русском языке:

jahon-мир                             Jahongir-имя собств.

jon-душа                              jonajon-родной

Произношение звука «J» в заимствованных словах не изменяется:

abajur-абажур                        jurnal-журнал

jargon-жаргон                        injener-инженер

**7-MAVZU: O'ZBEK ADABIY TILI UNLI VA UNDOSH HARFLARI  
IMLOSI: KASBIY SOHAGA DOIR MATNLAR TANLANIB, UNLI VA  
UNDOSH HARFLARNING TO'G'RI YOZILISHI USTIDA AMALLAR  
BAJARILADI**

## REJA:

1. O'zbek-lotin alifbosining imlo qoidalari.
2. O'zbek tili imlosining nazariy asoslari va tamoyillari.
3. O'zbek tili imlo qoidalarining bo'limlari
4. Unlilar imlosi
5. Yonma-yon keladigan unlilar imlosi
6. Undoshlar imlosi
7. Yonma-yon keladigan undoshlar imlosi

**Tayanch soʻz va iboralar:** *lotin alifbosi, imlo, imlo qoidalari, orfografiya, unli harflar, undosh harflar, asos, qoʻshimcha, alifbo, hurf.*

**Qoʻllaniladigan taʼlim texnologiyalari:** *dialogik yondashuv, muammoli taʼlim, Venna diagrammasi, sinkveyn usuli, frontal savollar*

### Topshiriqlar:

1-topshiriq. Kirill va lotin yozuviga asoslangan alifbolar bo'yicha tuzilgan imlo qoidalari haqidagi fikrlaringizni og'zaki bayon eting.

2-topshiriq. Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosiga o'tilishi munosabati bilan ishlab chiqilgan imlo qoidalari va uning ayrim bndlari bo'yicha fikrlaringizni og'zaki bayon eting.

3-topshiriq. O'zbekiston Respublikasining "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida"gi qonunini o'qing.

4-topshiriq. O'zbek lotin yozuvi tarixi haqida gapiring.

5-topshiriq. Yangi o'zbek lotin alifbosi haqida gapiring.

6-topshiriq. Asos va qo'shimchalar imlosi haqida so'zlang.

7-topshiriq. Qo'sh unli harflarning ishlatilishini aytib bering.

8-topshiriq. Qo'sh undosh harflarning qo'llanishini izohlang.

9-topshiriq. Harflarning qo'shaloq kelishiga misollar ayting va daftaringizga yozing.

### NAZARIY MA'LUMOT

XX asr hozirgi o'zbek tilining sayqal topishi, takomillashishi, ijtimoiy faollashuvi va birdaniga ikki davlatda davlat tili deb e'lon qilinishi bilan

xarakterlidir. Shunday ekan o'zbek tilining orfografikasi, orfoepiyasi ma'lum tartibga solinishi lozim edi. 1995-yil 24- avgustda lotin yozuviga asoslangan o'zbek yozuvi uchun Vazirlar Mahkamasining 339-sonli qarori bilan o'zbek tilining imlo qoidalari tasdiqlandi. Imlo qoidalari "lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish" bo'yicha respublika davlat kommissiyasi topshirig'i bilan tegishli olimlar tomonidan tayyorlandi va keng muhokamaga qo'yildi. Imlo qoidalarining nazariy asoslariga o'zbek adabiy tilining avval yaratilgan imlo qoidalari asos qilib olingan. Unda o'zbek tilining o'ziga xos xususiyatlari, tovushlarning hosil bo'lish o'ri, usuli, uzun-qisqaligi, qo'shimchalar qo'shilish tartibi, unli va undosh harflar imlosi, bosh harflar imlosi, o'zakning yozilishi, chiziqcha bilan yozish, qisqartib yozish, alfavit tartibi kabi tamoiylarga alohida e'tibor berilgan.

Lotin yozuviga o'tilishi munosabati bilan tovush-harf munosabatiga oid ayrim masalalar berilmadi. Masalan, kirill alifbosidagi yo, ya, yu harflaridan vab (yumshatish), Ъ (ayirish) belgilaridan voz kechildi. Ammo bunday harf va belgi qatnashgan so'zlar yozilishi imlo lug'atida ko'rsatildi. Alifboni o'rgatish maqsadida yaratilgan o'quv qo'llanmasida bayon qilindi.

Ma'lumki, o'zbek tili lug'ati tarkibida yasama so'zlar juda ko'p. Bunday so'zlarning, aniqrog'i ulardagi so'z yasovchi qismining imlosi asosan bir xil bo'ladi. Ammo imlosida chalkashlik, qiyinchilik yuz berishi mumkin bo'lgan so'zlar ham bor. Masalan, -li, —lik yasovchi qo'shimchalari yasalgan so'zlar, alangali salom, (iliq munosabatni ifodalaydi) alangalik salom (bunday deyilmaydi), yigitlik burchim, (yigitlarning zimmasidagi ish) yigitli (yigiti bor), otali (otasi bor) bola, otalik (otalik qilmoq), bolali (bolasi bor), bolalik (g'or, yosh, tajribasiz). Imlo qoidasida shu kabi masalarga ham aniqlik kiritilgan.

Hozirgi o'zbek adabiy tilida o'ntadan ortiq ko'makchi fe'l bor. Ular yordamida yangi so'z yasalmaydi, balki fe'lning murakkab shakllari hosil qilinadi. Imlo qoidasida komakchi fe'l bilan yetakchi fe'l ajratib yozilishi aniq ta'kidlandi. Masalan, voza boshladi, (yozmoq, boshlamoq), aytib qo'y (aytmoq, qo'ymoq), olib berdi, qo'ya qol, degan cdi.



Imlo qoidalari quyidagi bo'limlardan iborat: 1. Harflar imlosi: Unlilar imlosi, undoshlar imlosi, yonma-yon keladigan unlilar imlosi. 2. Asos va qo'shimchalar imlosi. 3. Qo'shibyozish, 4. Ajratib yozish. 5. Chiziqcha bilan yozish. 5. Bosh harflar imlosi. 6. Ko'chirish qoidalari.

Harflar imlosi bo'limi o'z navbatida unli harflar imlosi va undosh harflar imlosi qismlariga ajraladi. Unlilar imlosi qismida tilimizdagi mavjud olti unlining yozilishi hamda yonma-yon keladigan unlilar imlosi haqida batafsil ma'lumot beradi. Ma'lumki o'zbek tilida tovushlar hosil bolish orniga ko'ra ham tafsivlanadi. Imlo qoidalarida unlilarning til oldi yoki til orqa o'rnida hosil bo'lish o'rniga ko'ra yozilishi ham berilgan. Masalan, A, a harfi:

1) aka, alanga, aloqa, og'a; sentabr, noyabr kabi so'zlarda old qator keng unlini ifodalash uchun yoziladi;

2) bahor, zamon, savol, gavda, vasvasa kabi so'zlarning oldingi bo'g'inida, vaqt, vahm so'zlarda a aytiladi va yoziladi.

I, i harfi:

1) ish, iz, qilmoq, xirmon, ilhom, ikki, ixtisos, shoyi, tulki, volida, piramida, bilan, biroq, sira, qishloq, chiroq kabi so'zlarda old qator tor unlini ifodalash uchun yoziladi;

2) o'tin, o'rik, bo'lim kabi oldingi bo'g'inida o' unlisi keladigan so'zlarning keyingi bo'g'inida keng i aytiladi va yoziladi.

Mazkur bo'limda yonma-yon keladigan unlilar imlosi quyidagi tartibda berilgan: 1) unlilar orasida ba'zan y undoshi qo'shib aytilsa ham, yozilmaydi: a) ia; material (yozilishi), mo'eriyal (aytilishi), tabiat (yozilishi), tabiyat (aytilishi); b) io: biologiya, million, stadion, radio kabi; ai: mozaika, ukrain, said, maishat kabi; e) oi: alkaloid, ellipsoid, doim, shoir, oila kabi; d) ea: teatr, okean, laureat kabi; e) ae, oe unlilari so'z ichida kelganda ikkinchi unli y aytilsa ham, asliga muvofiq e yoziladi: acroport, acrostat, roo'na kabi.

Boshqa hollarda yonma-yon kelgan unlilar odatda aynan aytiladi va yoziladi: manfaat, kauchiu, aorta, saodat, burjua, shuaro, inshoot, sanoat, vakuum, muammo, matbuot, tabiiy, rioya va hokazo.

Undoshlar imlosi bo'limida 23 ta undosh harflarning yozilishi, yonma-yon keladigan undoshlar imlosi va tutuq belgisining qo'llanishi haqida ma'lumot berilgan.

Ma'lumki, undosh tovushlar, labning va shovqning ishtirokiga kora ham turlarga bo'linadi. Bundan tashqari, sonor tovushlari, til orqa, til oldi, chuqur til orqa va bo'g'iz undoshlariga ham bo'linadi. Imlo qoidasida ana shularga alohida e'tibor berilgan.

**Masalan: B, b harfi.**

1) bobo, bahor, bir, majbur, zarb kabi so'zlarda jarangli, portlovchi, lan undoshini ifodalash uchun yoziladi;

2) kitob, yuzlab, kelib kabi sozlar oxirida p aytilsa ham, b yoziladi.

3) qibla, tobla kabi so'zlarda va'zan v aytilsa ham, b yoziladi. Shu tariqa har bir undosh hargning o'ziga xususiyatlari ko'rsatiladi.

Shuningdek, yonma-yon kelgan undoshlarning yozilishi ham batafsil yoritilgan:

1) baland, Samarqand, poyezd, do'st, go'sht, artist, g'isht kabi so'zlar oxirida d, t tovushi ba'zan aytilmasa ham, yoziladi.

2) Metall, kilogramm, kilovatt, kongress kabi o'zlashgan so'zlar oxirida bir harf aytilsa ham, ikki undosh yoziladi. Lekin bunday so'zlarga shu tovush bilan boshlanadigan qo'shimchalar qo'shilsa, so'z oxiridagi bir harf yozilmaydi: Metal+lar=metallar, kilogram+mi=kilogrami kabi.

**Undosh harflar orasida tutuq belgiga ham o'rin berilgan.** Aslida bu o'zbek tiliga o'zlashgan so'zlar orqali kirib kelgan va mustahkam o'rnatilgan qolgan, shuning uchun uning qo'llanish tamoyillariga ham imlo qoidalarida o'rin ajratilgan.

**So'ngra asos va qo'shimchalar imlosi berilgan.** Bunda qo'shimcha qo'shilishi bilan asos tarkibida yuz beradigan tovush tushishi, tovush o'zgarishi, tovush ortirilishi kabi xususiyatlarga e'tibor qaratilgan. Masalan: **Qo'shimcha qo'shilishi bilan so'z oxiridagi unli o'zgaradi:**

1) a unlisi bilan tugagan fe'llarga -v, - q , - qi qo'shimchalari qo'shilganda a unlisi o tarzda aytiladi: sayla + V = saylov, oqla + V = oqlov, sina + V = sinov,

tanla + V = tanlov; so'ra + q = so'roq, bo'ya + q = bo'yoq, o'yna + qi = o'naqi, sayra + qi = sayroqi kabi;

2) i unlisi bilan tugagan ko'pchilik fe'llarga -v, -q qo'shimchalari qo'shilganda asosda tovush o'zgarishi sodir bo'ladi: o'qi + v = o'quv, sovi+q= sovuq kabi. Undosh bilan tugagan barcha fe'llarga -uv, -uq qo'shimchalari qoshiladi. k,q undoshlari bilan tugagan ko'p bo'g'inli so'zlarga, shuningdek, bek, yo'q kabi ayrim bir bo'g'inli so'zlarga egalik qo'shimchasi qo'shilganda k undoshi g undoshiga, q undosgi g' undoshiga aylanadi va shunday yoziladi: tilak+ing= tilaging, yurak+im= yuragim; kubok+i= kubogi, qo'shiq+i=qo'shig'i, yashiroq= yaxshiroq'i, yo'q= yo'g'i. Lekin ko'p bo'g'inli o'zlashma so'zlarga egalik qo'shimchalari qo'shilganda -k, -q tovushi aslicha aytila va yoziladi: ishtirok+ing= ishtiroking, ocherk+i= ocherki, ravnaq= ravnaqi kabi.

### **MAVZUNI MUSTAHKAMLASH UCHUN MASHQLAR**

*1-mashq. Berilgan so'zlarning birinchi harflariga qarab alifbo tartibida joylashtiring.*

Sabzavot, zamin, gulbog', dangasa, xo'roz, muallim, kitob, baxt, hunar, xarsang, teletanlov, teleko'rsatuv, teleserial, televizor, tarjimon, xazina, bahor, yulduz.

*2-mashq. Matni o'qing. Tutuq belgisi haqida olgan nazariy ma'lumotlaringiz asosida misollar tuzing.*

Tutuq belgisining vazifalari:

1.A'lo, ra'no kabi so'zlarda unidan keyin kelib, uning cho'ziqroq talaffuz qilinishini talab etadi.

2.San'at, in'om singari so'zlarda unidan oldin qo'yiladi va unining undoshdan ajratib talaffuz etilishini ifodalaydi.

3.Is'hoq, as'hob kabi so'zlarda "s" va "h" undoshlarini "sh" harf birikmasidan farqlash uchun ishlatiladi.

4.San'at-sanat, sa'va-sava, qal'a-qala, she'r-she'r, ta'na-tana, a'yon-ayon kabi so'zlarda so'z ma'nosini farqlaydi.

5. Mo'tadil, mo'jiza, mo'tabar kabi so'larda tutuq belgisi yozuvda tushirib qoldiriladi.

### Mavzu yuzasidan nazorat savollari:

1. "Lotin grafikasiga asoslangan yangi o'zbek alifbosiga o'tish to'g'risida"gi qonun qachon imzolandi?

2. Alifbo nima?

3. Harf nima?

4. "Orfografiya" so'zining ma'nosi?

5. "Orfografiya" nima?

6. O'zbek tili imlosining nazariy asoslari va tamoyillarini bilasizmi?

7. Tutuq belgisining qanday vazifalari bor?

## 8-MAVZU: O'ZBEK ADABIY TILIDA QO'SHIB YOZISH: KASBIY SOHAGA DOIR MATNLAR TANLANIB, QO'SHIB YOZISH USTIDA AMALLAR BAJARILADI

**Tayanch so'z va iboralar:** lotin alifbosi, imlo, imlo qoidalari, orfografiya, qo'shib yozish, ajratib yozish, chiziqcha bilan yozish, qo'shma so'z, just so'z, takror so'z.

### Topshiriqlar:

1-topshiriq. Qo'shib yoziladigan qo'shma so'zlarga misollar ayting.

3-topshiriq. Imlo qoidalarini yodlang.

4-topshiriq. Matbuot nashrlaridan sohangizga oid imlo qoidalari buzilgan matnlarni toping va ularning xatolarini to'g'rilang.

5-topshiriq. O'zbek tilining asosiy imlo qoidalarini yoddan ayting.

6-topshiriq. Qo'shma so'zlar haqida ma'lumot bering.

7-topshiriq. Qo'shma so'zlar imlosini so'zlab bering.

**Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari:** *dialogik yondashuv, muammoli ta'lim, Venna diagrammasi, sinkveyn usuli*

## NAZARIY MA'LUMOT

Quyidagicha tuzilishdagi qo'shma so'zlar qoshib yoziladi:

a) bir tushunchani bildiradigan va birbosh urg'u bilan aytiladigan qo'shma so'zlar: belbog', asalari, oshqozon, sheryurak, qshqargul kabi;

b) xush, kam, ham, umum, bop, noma, xoma, sifat, rang, baxsh, poya, mijoz, talab kabi so'zlar yordamida yasalgan qo'shma so'zlar: xushxabar, kamhosil, hamfikir, umumxalq, hammabop, tavsiyanoma, taklifnoma, bedapoya, qabulxona, sovuqmijoz, devsfat, suvtalab kabi;

d) ikkinchi qismi -(a) r, -mas qo'shimchalari bilan tugayqigan qo'shma so'zlar: o'rinbosar, otboqar, cho'lquvar, ishyoqmas, qushqo'nmas;

e) takror taqlid so'zlarga qo'shimchalar qo'shish bilan tugaydigan qo'shma ot va fe'llar qo'shib yoziladi: pirpirak (pir+pir+ak), hayhayla (hay+hay+la), gijgijla (gij+gij+la);

f) narsani uning rangi, mazasi, o'zidagi biror narsasi va shu kabi belgilari asosida bildiruvchi qo'shma otlar: olaqarg'a, qisilishton, achchiqtosh, mingoyoq kabi;

g) narsani boshqa biror narsaga nisballash(qiyoslash), o'xshatish yo'li bilan bildiruvchi qo'shma ot va qo'shma sifatlar qo'shib yoziladi: kamaygul, oybolta, devqomat, sheryurak, bodomqovoq, qirg'iyko'z kabi;

h) narsani biror maqsad, ish uchun mo'ljallanganligini bildiruvchi qo'shma otlar: kirsovun, qiymataxta, tokqaychi, oshrayhon, molqo'ra, nosqovoq, ko'zoynak kabi.

I. Ikkinchi qismi turdosh ot yoki obod so'zi bilan ifodalangan geografik nomlar: Amudarvo, Yangiyol, Kosonsoy, Yunusobod, Mirzaobod, Husanko'l kabi, ammo ikkinchi qismi atoqli ot bo'lgan joy nomlari ajratib yoziladi: O'rta Chirchiq, Eski Arab, Yangi Arab, O'rta Osiyo kabi.

**Mavzuni mustahkamlash uchun mashqlar:**

*I-mashq. O'qing. Qo'shma so'zlarni aniqlab, yozislishiga diqqat qiling*

Respublikamizda uzluksiz ta'lim tizimi joriy qilindi. Uning bosh maqsadi chuqur bilimli, yuksak ma'naviyatli, hozirjavob yoshlarni tarbiyalashdan iborat.

Mehmondo'sti, mehnatsevar, bolajon xalqimizga mos bo'lgan sofdil, mard va dovyurak, dono yoshlar kelajak poydevoridir.

*2-mashq. Quyidagi qo'shma so'zlarning qanday yozilishini aniqlang va ko'chirib yozing.*

Qirq-bo'g'im, qashqar-gul, chala-savod, xush-bichim, ish-yoqmas, millatlararo, tez-oqar, havo-rang, ayta-oladi, qayta-qurish, chanqov-bosdi, umum-davlat, odam-sifat, Tyan-Shan, Chil-ustun.

*3-mashq. Matnni o'qing. Matn asosida savollar tuzing. Qo'shma so'zlarni toping*

### JOY NOMLARI

Geografik nomlarning to'g'ri yozilishi masalasi juda muhim va murakkab masala. Chunki geografik nomdagi biror harf noto'g'ri yozilib qolsa, ma'no butunlay o'zgarib ketishi mumkin. Masalan, Qoraqo'l (Qirg'izistondagi daryo) va Qorako'l (Tojikistondagi ko'l). «Q» harfi «K»ga almashib qolishi, daryo ko'lga aylanib, joyi o'zgarib ketadi. 1980-yilda O'sh shahridagi to'qimachilik kombinatidan Ukrainaning Nemirovo stansiyasiga gazlama yuborilishi kerak bo'lgan. Xo'jalik bo'limi boshlig'ining e'tiborsizligi oqibatida yuk Nemirovoga emas Sibirdag Kemerovo shahriga yuborilgan. Beshariq, Oltiariq, (Farg'ona viloyatida) aslida Peshariq va Ortariq bo'lgan. Fonetik o'zgarishlar oqibatida boshqa ma'noli toponimlarga aylangan. Toponimlarning to'g'ri yozilishi masalasining murakkabligi shundaki, ular turli tillarda bo'lib, aslida o'sha tillar qoidalariga muvofiq yoziladi. Boshqa tillarga o'tganda talaffuzida ham, yozilishida ham o'zgarishlar bo'lishi mumkin.

Geografik nomlarning yozilishida chalkashliklar ko'p uchraydi. Geografik nomlarni to'g'ri yozish juda muhim. Bu xalqning bilim va madaniy saviyasini ko'rsatadi. Kundalik matbuotda, xususan gazetalar, jumallarda, radio va televideniya, darsliklarimiz hamda badiiy adabiyotda mamlakatimizga va chet ellarga doir minglab geografik nomlar uchraydi. Bularning hammasining ham to'g'ri ekanligiga hech kim kafolat bera olmaydi. Hatto davlatlar nomi (shahar, qishloq va h.k.larni qo'yaturaylik) har hil aytiladi, har xil yoziladi. Biri Olmoniya desa, biri

Germaniya, biri Fransiya desa, biri Farangiston deydi, biri Tursiya desa, yana biri Turkiya deydi. Aslida bizga tradision bo'lib qolgan Germaniya, Fransiya, Turkiya deb yozish va aytish lozim.

Geografiyada nomlarni yozishning bir qancha tartib qoidalari mavjud.

Chet el nomlarini yozishda ko'pincha transkripsiya usuli qo'llaniladi. Ba'zan transliterasiya usulidan foydalaniladi. Umuman, har bir geografik nomi uning mahalliy tildagi asl talaffuziga yaqinlashtirib yozishga harakat qilinadi.

Agar biror mamlakat o'z nomini, poytaxti, shahar, qishloq va boshqa geografik ob'yektlari nomini o'zgartirishni rasmiy ravishda taklif etsa, o'zbek tilida ham o'sha nom qabul qilinadi.

Qo'shma geografik nomlarni yozishda ko'pincha xatoga yo'l qo'yiladi. Agar geografik xaritalarni ko'zdan kechirsangiz bunday nomlar bir joyda qo'shib yozilganini (Kattaqo'rg'on, Qorasuv), boshqa joyda ajratib yozilganini (Moyli suv) (O'zbekiston iqtisodiy xartasida) ko'rasiz. Ba'zi nomlar defis bilan ajratib yoziladi (Volga-Don, Petropavlovsk-Kamchatsk).

O'zbekistondagi bunday geografik nomlarni yozishda quyidagi qoidaga amal qilinadi: agar murakkab (qo'shma) geografik nomlarning ikkinchi o'zagi (komponenti) atoqli ot bo'lsa, ularning har biri alohida – alohida va bosh harf bilan yoziladi. Masalan, Eski Toshkent, Yuqori Chirchiq, Quyi Chirchiq, O'rta Chirchiq, Yangi Urganch, Qo'hna Urganch va h.k. Agar murakkab geografik nomlarning ikkinchi komponenti turdosh ot bo'lsa, u holda qo'shib yoziladi: Kattaqo'rg'on, Yangiyo'l, Jumabozor, Bekobod. Murakkab geografik nomlarning har ikkala komponenti bosh kelishikdagi atoqli otlardan iborat bo'lsa, u holda defis orqali bosh harf bilan yoziladi; Orexovo-Zuyevo, Volga-Don, Kualo-Lumpur, Buenos-Ayres va boshqalar.

Geografik nomlarni yozishda bizda rus tilidagi manbalar – atlas, xarita, lug'at va qo'llanmalar asos qilib olinar edi. Bunda geografik nomlarni yozish osonlashgan. Chunki turli shakldagi toponimlardan foydalanilmasdan faqat rus tilidagi shakldan foydalanilgan. Lekin ruscha yozishda yo'l qo'yilgan xatolar o'zbekcha yozganda ham takrorlangan. Masalan, Xamburg-Gamburg, Xollandiya-

Gollandiya, Xenova-Genuya, Norge-Norvegiya, Napoli-Neapol, Kyobexavn-Kopengagen va h.k. deb yozilgan. Endi bularni tuzatish mumkin, lekin ayrimlari an'anaviy (tradision) nomga aylantib qoladi va shunday xatoligacha yozilaveradi.

Rus tilida geografik nomlar ba'zan bosh kelishikda (mis Chelyuskin, ostrov Chkalov, gora Amundsen, ozero Rudolf), ko'pincha qaratqich kelishikda (mis Dejneva, ostrov Vrangelya, gora Kuka, proliv Laperuza) yoziladi. O'zbek tilida bunday nomlarning hammasi, rus tilida qanday yozilganidan qat'iy nazar, bosh kelishikda yozila beradi. Masalan, Chelyuskin burni, Chkalov oroli, Amundsen tog'i, Rudolf ko'li, Dejnev burni, Vrangel oroli, Kuk tog'i, Laperuz bo'g'ozi.

An'anaviy nomlar, ya'ni o'zbek tilida qadimdan muayyan shaklda yozilib kelinayotgan joy nomlarining talaffuzi ham, yozilishi ham bir xil. Bunday nomlar o'zgartirilmay yozilaveradi. Ular o'zbek tilida o'nlab va yuzlab yillar davomida bir xil yozilib kelmoqda. Qadimgi ilmiy, tarixiy va sayohatnoma, badiiy asarlarda ko'p uchraydi. Bular asosan sharq mamlakatlaridagi nomlardir: Bag'dod, Dehli, Iroq, Misr, Tehron, Hirot, Eron, Qashg'ar, Hindiston, Marokash, Xitoy, Suriya, Damashq, Bombay, Karochi va b. Rus tilida an'anaviy bo'lib qolgan ko'pchilik geografik nomlar o'zbek tiliga o'tib, shundayligicha saqlanib qolgan. Bularga Avstriya (asli Osterreyx), Albaniya (Shkiperiya), Angliya (Inglan), Bryussel (Bryuksel), Buxarest (Bukaresht), Vashington (Uoshington), Oslo (Uslo), Rim (Roma), Tibr (Tevere), Finlyandiya (Suomi), Fransiya (Frans), Shvesiya (Svere), Yaponiya (Nippon) va boshqalarni misol qilib keltirish mumkin.

An'anaviy nomlar ham o'zgarishi mumkin. Eski an'anaviy nomlar yangilari bilan almashinadi. Bunda hozirgi zamon nomlari bilan almashinadi, hato bo'lsa tuzatiladi. Afriqo Afrika deb, Amriqo Amerika deb tuzatildi. Bahri Muhit Kabiriy o'rniga Tinch okean, Bahri Muhit Atlosiy o'rniga Atlantika okeani, Bahri Muhit Hindiy o'rniga Hind okeani, Bahri Hazar o'rniga Kaspiy dengizi, Otalar dengizi o'rniga Egey dengizi deyiladigan bo'ldi.

O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilgandan keyin (1989-yil) tilimizni chetdan, asosan rus tilidan kirib kelgan yod so'zlardan tozalash bahonasi bilan yangi



an'anaviy nomlarni yana eski nomlar bilan almashirishga urinishlar bo'ldi. Albatta bu to'g'ri emas. Xato bo'lsa tuzatish kerak. lekin eskisiga noo'rin qaytish noto'g'ri.

O'rta Osiyo o'lkasidagi geografik nomlarni yozishda tog'larning nomiga qo'shiladigan tog' atamasi tog', tov, too, dog', Qirg'iziston va Qozog'istonda tov shakllari qo'llaniladi.

### **Mavzu yuzasidan nazorat savollari:**

1.O'zbek tili imlosining nazariy asoslari va tamoyillarini bilasizmi?

2.O'zbek tili imlo qoidalarini tasdiqlash to'g'risidagi Vazirlar Mahkamasining qarori qachon qabul qilingan?

3.Qo'shma so'zlar deganda nimani tushunasiz?

4.Juft so'zlar deganda nimani tushunasiz?

5.Qo'shma so'zlar imlosi. ularni ajratib, qo'shib va chiziqcha bilan yozishni bilasizmi?

6.Xona, noma, poya, bop, xush, ham, kam, unum, rang, mijoz, sifat, talab kabi so'zlar yordamida yasalgan qo'shma ot va qo'shma sifatlar o'zi birikkan so'zlar bilan qanday yoziladi?

7.Narsani boshqa biror narsaga nisbatlash, o'xshatish yo'li bilan bildiruvchi qo'shma ot va qo'shma sifatlar qanday yoziladi?

8.Narsani uning rangi, mazasi, o'zidagi biror narsasi va shu kabi belgilari asosida bildiruvchi qo'shma otlar qanday yoziladi?

9.Narsalarning biror maqsad, ish uchun mo'ljallanganini bildiruvchi qo'shma otlar qanday yoziladi?

10.Narsani joyga nisbat berish asosida bildiruvchi qo'shma otlar qanday yoziladi?

11.Marosim, afsona kabilarni bildiruvchi qo'shma otlar qanday yoziladi?

12.Qanday holatlarda so'zlar chiziqcha bilan yoziladi?

13.Bir pas, bir oz, bira to'la, bir varakayiga, bir muncha, bu yon. Berilgan so'zlarning nechtasi imloqoidalariga muvofiq qo'shib yozilishi kerak?

14.Sifat oldidan klib, belgining ortiq yoki kamligini bildiradigan so'zlar qanday yoziladi?

15. Murakkab son qismlari qanday yoziladi?

16. Birinchi qismi chiqish kelishigida, ikkinchi qismi jo'nalish kelishigida bo'lgan birikmalar qanday yoziladi?

17. Izofali birikmalar ajratilib yoziladimi yoki qo'shib?

## **9-MAVZU: O'ZBEK ADABIY TILIDA CHIZIQCHA BILAN YOZISH: KASBIY SOHAGA DOIR MATNLAR TANLANIB, CHIZIQCHA BILAN YOZISH USTIDA AMALLAR BAJARILADI**

### **REJA:**

1. Chiziqcha bilan yozish qoidalari.
2. Chiziqcha bilan yozish bo'yicha mashqlar bajarish.
3. Xulosa.

**Tayanch so'z va iboralar:** lotin alifbosi, imlo, imlo qoidalari, orfografiya, chiziqcha bilan yozish, qo'shma so'z, juft so'z, takror so'z.

### **Topshiriqlar:**

- 1-topshiriq. Imlo qoidalarini yodlang.
- 2-topshiriq. Matbuot nashrlaridan sohangizga oid imlo qoidalari. Buzilgan matnlarni toping va ularning xatolarini to'g'rilang.
- 3-topshiriq. O'zbek tilining asosiy imlo qoidalarini yoddan ayting.
- 4-topshiriq. Qo'shma so'zlar haqida ma'lumot bering.
- 5-topshiriq. Qo'shma so'zlar imlosini so'zlab bering.
- 7-topshiriq. Chiziqcha bilan yozishga misollar ayting.
- 8-topshiriq. Juft so'zlar imlosini aytib bering.

### **NAZARIY MA'LUMOT**

**Quyidagi so'zlar chiziqcha bilan ajratib yoziladi:**

a) juft va takror so'zlarning qismlari chiziqcha bilan yoziladi: el-yurt, mehr-shafqat, qovun-tarvuz, kecha-kunduz, yozin-qishin, asta-sekin, uch-to'rt o'n-

o'nbeshta, bilinar-bilinmas, bordi-keldi, kuydi-pishdi, don-dun, oz-moz, mayda-chuyda, aldab-suldab, so'ramay-netmay, kiyim-kechak, adi-badi, taq-tuq, qop-qop, ming-ming, bitta-bitta, ishlay-ishlay, baland-baland, ich-ichidan kabi;

b) juft so'zlar orasida -u(-yu) bog'lovchisi qo'llansa, bog'lovchidan oldin chiziqcha ishlatiladi: oq-u qora, kecha-yu kunduz, do'st-u dushman;

d) -ma, -ba yordamida birikkan so'z qismlari chiziqcha bilan yoziladi: yuzma-yuz, rang-barang, qadam-baqadam, eshikma-eshik kabi;

e) arab raqamlari bilan yozilgan tartib sonlari chiziqcha bilan yoziladi: 5-sinf, 1991-yil, 3-sentabr kabi;

f) yetakchi va ko'makchi fe'l bir xil shaklda bo'lsa, chiziqcha bilan yoziladi: yozdi-oldi, borasan-qo'yasan, uxlabman-qolibman kabi;

g) -chi, -a (ya), -ku, -u (yu), -da, -e, -ey, -yey yuklamalari chiziqcha bilan yoziladi: sen-chi, sen-a, kutaman-a, bola-ya, mingta-ya, keldi-ku, kelgan-u, yaxhi-yu, qo'y-e, yashang-e, o'g'lim-ey, keldi-ye kabi.

Sinonimlar yoki antonimlari yonma-yon qo'llanishi natijasida juft so'zlar hosil bo'ldi. Mehr-oqibat, aka-uka, katta-kichik, unda-bunda, urf-odat, baxt-saodat, o'g'il-qiz, qarindosh-urug', tevarak-atrof, kuch-qudrat, yo'l-yo'lakay, kirim-chiqim.

Juft so'zlar bir so'zning takroridan ham hosil bo'ladi: yosh-yosh, katta-katta.

Bunday so'zlar chiziqcha bilan yoziladi.

Qo'shma sozlar ham juft so'zlar ham o'zbek tili lug'at boyligini ko'paytiradigan usullardan bo'lib u turli so'z turkumlariga kiruvchi so'zlardan yangi so'zlar yashash imkoniyatini beradi. Bu tilimizning cheksiz imkoniyatlaridan biri uni bilish va puxta o'zlashtirish so'zlashish imkoniyatingizni ko'paytiradi.

### **Mavzuni mustahkamlash uchun mashqlar**

*1-mashq. Quyidagi qo'shma so'zlarning qanday yozilishini aniqlang va ko'chirib yozing.*

Qirq-bo'g'im, qashqar-gul, chala-savod, xush-bichim, ish-yoqmas, millatlararo, tez-oqar, havo-rang, ayta-oladi, qayta-qurish, chanqov-bosdi, umum-davlat, odam-sifat, Tyan-Shan, Chil-ustun.

*2-mashq. Gaplarni o'qing, chiziqchani ishlatilish sabablarini ayting.*

1. Mehribon kishining pand-nasihatlarini olgin ular seni saodatga yetaklaydi. Ko'zing sog'ida ezgulik qil, mol-dunyong boride ulash, yedir (Y.Xos Hojib). 2. Beva-bechora, mayib-majruh, xor-u zor insonlarga ko'ngildan chiqarib berilgan moddiy yordam: pul-non, mayiz-yong'oq, kiyim-bosh va hokazoga xayr-sadaqa deyiladi (M.Sattor). 3. Go'zallik shunday narsaki, u insonda mehr-muhabbat, shodlik, erkinlik va shunga o'xshash tuyg'ulami uyg'ota olishi shart (A.Oripov). 4. G'o'zalarim tiniqib-tiniqib suv icha berdi. Chilla suv-tilla suv bo'ldi (T.Murod).

### **Mavzu yuzasidan nazorat savollari:**

1. O'zbek tili imlosining nazariy asoslari va tamoyillarini bilasizmi?
2. O'zbek tili imlo qoidalarini tasdiqlash to'g'risidagi Vazirlar Mahkamasining qarori qachon qabul qilingan?
3. Qanday holatlarda so'zlar chiziqcha bilan yoziladi?
4. Bir pas, bir oz, bira to'la, bir varakayiga, bir muncha, bu yon. Berilgan so'zlarning nechtasi imloqoidalariga muvofiq qo'shib yozilishi kerak?
5. Sifat oldidan kelib, belgining ortiq yoki kamligini bildiradigan so'zlar qanday yoziladi?
6. Murakkab son qismlari qanday yoziladi?
7. Birinchi qismi chiqish kelishigida, ikkinchi qismi jo'nalish kelishigida bo'lgan birikmalar qanday yoziladi?

## **10-MAVZU: O'ZBEK ADABIY TILIDA AJRATIB YOZISH: KASBIY SOHAGA DOIR MATNLAR TANLANIB, AJRATIB YOZISH USTIDA AMALLAR BAJARILADI**

### **REJA:**

1. So'zlarni ajratib yozish qoidalari.
2. So'zlarni ajratib yozish bo'yicha mashqlar bajarish.
3. Xulosa.

**Tayanch soʻz va iboralar:** lotin alifbosi, imlo, imlo qoidalari, orfografiya, qoʻshib yozish, ajratib yozish.

### **Topshiriqlar:**

1-topshiriq. Ajratib yoziladigan qoʻshma soʻzlarga misollar ayting.

2-topshiriq. Imlo qoidalarini yodlang.

3-topshiriq. Matbuot nashrlaridan sohangizga oid imlo qoidalari buzilgan matnlarni toping va ularning xatolarini toʻgʻrilang.

4-topshiriq. Oʻzbek tilining asosiy imlo qoidalarini yoddan ayting.

5-topshiriq. Qoʻshma soʻzlar haqida maʼlumot bering.

6-topshiriq. Qoʻshma soʻzlar imlosini soʻzlab bering.

**Qoʻllaniladigan taʼlim texnologiyalari:** dialogik yondashuv, muammoli taʼlim, Venna diagrammasi, sinkveyn usuli.

### **NAZARIY MAʼLUMOT**

#### **Quyidagi qoʻshma soʻzlar ajratib yoziladi:**

a) qoʻshma feʼlning qismlari ajratib yoziladi: sarf qil, taʼsir etmoq, tamom boʻlmoq, sotib olmoq, shifo topmoq, olib chiqmoq, yoza boshlamoq, koʻrgan edi kabi;

b) koʻmakchi feʼl toʻliqsiz feʼldan ajratib yoziladi: aytib ber, olib koʻr, soʻrab qoʻy, koʻra qol, bera boshla, ketgan edi, ketgan emish kabi. Lekin bilan koʻmakchisining -la shakli, uchun koʻmakchisining -chunshakli chiziqcha bilan yoziladi;

d) qoʻshma ravishlar ajratib yoziladi: har kim, hech bir, hamma vaqt, qay kuni kabi. Biroz, birpas, birtoʻla, birmuncha soʻzlar bundan mustasno:

e) murakkab son qismlari ajratib yoziladi: oʻn bir, besh yuz, qirq ming oltiyuz, bir ming toʻqqiz yuz sakkiz kabi;

f) oʻzaro -dan qoʻshimchasi bilan boʻgʻlangan takror soʻzli birikmalar: kundan kunga, tomdan tomga, ochiqdan ochiq, koʻpdan koʻp kabi.

g) sifat oldidan kelib, belgining ortiq yoki kamligini bildiradigan toʻq, jiqqa, tim, liq, lang, och kabi soʻzlar ajratib yoziladi: toʻq sariq, jiqqa hoʻl, tim qora, liq toʻla, lan gochiq, och qizil kabi.

## Mavzuni mustahkamlash uchun mashqlar

*1-mashq. O'qing. Qo'shma so'zlarni aniqlab, yozishiga diqqat qiling.*

Respublikamizda uzluksiz ta'lim tizimi joriy qilindi. Uning bosh maqsadi chuqur bilimli, yuksak ma'naviyatli, hozirjavob yoshlarni tarbiyalashdan iborat. Mehmondo'st, mehnatsevar, bolajon xalqimizga mos bo'lgan sofdil, mard va dovyurak, dono yoshlar kelajak poydevoridir.

### Mavzu yuzasidan nazorat savollari:

1. O'zbek tili imlosining nazariy asoslari va tamoyillarini bilasizmi?
2. O'zbek tili imlo qoidalarini tasdiqlash to'g'risidagi Vazirlar Mahkamasining qarori qachon qabul qilingan?
3. Qo'shma so'zlar imlosi, ularni ajratib, qo'shib va chiziqcha bilan yozishni bilasizmi?
4. Xona, noma, poya, bop, xush, ham, kam, unum, rang, mijoz, sifat, talab kabi so'zlar yordamida yasalgan qo'shma ot va qo'shma sifatlar o'zi birikkan so'zlar bilan qanday yoziladi?
5. Narsani boshqa biror narsaga nisbatlash. o'xshatish yo'li bilan bildiruvchi qo'shma ot va qo'shma sifatlar qanday yoziladi?
6. Narsani uning rangi, mazasi, o'zidagi biror narsasi va shu kabi belgilari asosida bildiruvchi qo'shma otlar qanday yoziladi?
7. Narsalarning biror maqsad, ish uchun mo'ljallanganini bildiruvchi qo'shma otlar qanday yoziladi?
8. Narsani joyga nisbat berish asosida bildiruvchi qo'shma otlar qanday yoziladi?
9. Marosim, afsona kabilarni bildiruvchi qo'shma otlar qanday yoziladi?
10. Bir pas, bir oz, bira to'la, bir varakayiga, bir muncha, bu yon. Berilgan so'zlarning nechtasi imloqoidalariga muvofiq qo'shib yozilishi kerak?
11. Sifat oldidan kelib, belgining ortiq yoki kamligini bildiradigan so'zlar qanday yoziladi?
12. Murakkab son qismlari qanday yoziladi?

13. Birinchi qismi chiqish kelishigida, ikkinchi qismi jo'nalish kelishigida bo'lgan birikmalar qanday yoziladi?

14. Izofali birikmalar ajratilib yoziladimi yoki qo'shib?

**11-MAVZU: O'ZBEK ADABIY TILIDA BOSH HARFLAR IMLOSI:  
KASBIY SOHAGA DOIR MATNLAR TANLANIB, BOSH HARFLAR  
IMLOSI USTIDA AMALLAR BAJARILADI**

**REJA:**

1. Bosh harflar imlosi.
2. Imlo qoidalariga sharhlar.
3. Xulosa.

**Tayanch so'z va iboralar:** *kishi ismi, ota ismi, familiya, taxalluslar, joy nomlari, yulduzlar va sayyoralar nomlari, uy hayvonlari nomlari, madaniy-maishiy ob'yekt nomlari, badiiy asar nomlari, tarixiy voqea, bayram nomlari; bo'g'in ko'chirilishi, o'zlashma so'zlarda bo'g'in ko'chirilishi.*

**Topshiriqlar:**

**1-topshiriq.** Muhim tarixiy sana va bayram nomlari tarkibidagi har bir so'z bosh harf yoziladi. Ushbu jumla haqida o'z mulohazalaringizni bildiring

**2-topshiriq.** O'zbekiston Qahramoni, "Oltin Yulduz" medali. Ushbu kabi jumalari tarkibidagi har bir so'z nima uchun bosh harflar bilan yozilmoqda? Izohlang.

**3-topshiriq.** Mukofot, faxriy unvonlar, nishonlar nomidagi birinchi so'zgina bosh harf bilan yoziladi. Ushbu qoidagi mos keladigan misollar yozing.

**4-topshiriq.** Bosh harflardan yoki bo'g'inga teng qism va bosh harflardan iborat qisqartmalar, shuningdek, ko'pxonali raqamlar satrga satrga bo'lib ko'chiriladi. Bu qoidani misollar bilan izohlang.

**5-topshiriq.** Yangi o'zbek lotin alifbosi haqida gapiring.

*Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: dialogik yondashuv, muammoli ta'lim, Venna diagrammasi, sinkveyn usuli.*

a) Kishining ismi, ota ismi, familiyasi, taxallusi, ramziy atoqli oti bosh harf bilan boshlanadi: *Dilbar, O'rinova, Muhabbat Majidovna, Azamat Shuhrat o'g'li, Hamza Hakimzoda, Muhammadsharif So'fizoda, Mannon Otaboy, Navoiy, Furqat, Yelpig'ichxon, Salomjon Alikov* kabi.

b) Joy nomlari bosh harf bilan boshlanadi: *Andijon, Yangiyo'l* (shaharlar), *Naymancha, Buloqboshi* (qishloqlar), *Bodomzor, Chig'atoy* (mahallalar), *Zavraq* (dara), *Yorqoq* (yaylov), *Qoratog'*, *Pomir* (tog'lar), *Uchtepa* (tepalar), *Zarafshon, Sirdaryo* (daryolar), *Yoyilma* (kanal); *Turkiya, Hindiston* (mamlakatlar) kabi. Bunday atoqli ot tarkibidagi sifatlovchi ham bosh harf bilan yoziladi: *Shimoliy Kavkaz, Markaziy Qizilqum* kabi.

c) Yulduz va sayyoralar, boshqa xil osmon jismlarining atoqli oti bosh harf bilan boshlanadi: *Hulkar, Qavs, Mirrix* (yulduz va sayyoralar nomi), *Tinchlik dengizi* (Oydagi relyef nomi) kabi. Yer, quyosh, oy turdosh otlari sayyora nomi bo'lib kelgandagina bosh harf bilan yoziladi: *Yer Quyosh* atrofida, *Oy Yer* atrofida aylanadi.

d) Madaniy-maishiy va savdo korxonalariga, adabiyot va san'at asarlariga, sanoat va oziq-ovqat mahsulotlariga, shuningdek, transport vositalari, sport inshootlariga qo'yilgan nomlar bosh harf bilan boshlanadi. *"Tong"* (mehmonxona), *"Saodat"* (firma), *"Navro'z"* (xayriya jamg'armasi), *"Kamalak"* (matbaa birlashmasi), *"G'uncha"* (bog'cha), *"Botanika"* (sanatoriya), *"Paxtakor"* (stadion), *"Qutlug' qon"* (roman), *"Dilorom"* (opera), *"Tanovar"* (kuy), *"Ozodlik"* (haykal), *Jasorat* (yodgorlik), *"Sino"* (sovutgich) kabi.

e) Muhim tarixiy sana va bayramlarning nomlari tarkibidagi birinchi so'z bosh harf bilan boshlanadi: *Mustaqillik kuni, Xotira kuni, Ramazon hayiti, Navro'z bayrami* kabi.

yo) Davlatlarning, davlat oliy tashkilotlari va mansablarining, xalqaro tashkilotlarning nomidagi har bir so'z bosh harf bilan boshlanadi: *O'zbekiston Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Misr Arab Respublikasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Raisi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudining Raisi, Birlashgan Millatlar Tashkiloti,*



*Jahon Tinchlik Kengashi* kabi. Boshqa tarkibli nomlarda oliy mansabni bildiruvchi birinchi soʻzgina bosh harf bilan boshlanadi: *Bosh vazirning oʻrinbosari, Mudofaa vaziri, Yozuvchilar uyushmasi, Oʻzbekiston Milliy tiklanish demokratik partiyasi* kabi.

j) Vazirliklar va idoralar, korxonalar va tashkilotlar nomi tarkibidagi birinchi soʻz bosh harf bilan boshlanadi: *Sogʻliqni saqlash vazirligi, Fan va texnika davlat qoʻmitasi, Fanlar akademiyasi, Tilshunoslik instituti* kabi.

z) Davlatning oliy darajali mukofoti nomi tarkibidagi har bir soʻz bosh harf bilan boshlanadi: *“Oʻzbekiston Qahramoni* (unvon), *“Oltin Yulduz”* (medal). Boshqa mukofotlar, faxriy unvonlar, nishonlar nomidagi birinchi soʻzgina bosh harf bilan boshlanadi: *“Sogʻlom avlod uchun”* (orden), *“Oʻzbekistonda xizmat koʻrsatgan fan arbobi”* (faxriy unvon), *“Matbaa aʼlochisi”* (nishon) kabi.

i) Gapning birinchi soʻzi bosh harf bilan boshlanadi.

k) Tarkibli nomlarning bosh harfidan iborat qisqartmalar, atoqli ot boʻlmagan baʼzi birikmalarning qisqartmalari bosh harf bilan yoziladi: *AQSH* (*Amerika Qoʻshma Shtatlari*), *BMT* (*Birlashgan Millatlar Tashkiloti*), *AES* (*atom elektr stansiyasi*) kabi. Qisqartma tarkibida boʻgʻinga teng qism boʻlsa, uning birinchi harfigina bosh harf bilan yoziladi: *ToshDTU* (*Toshkent davlat texnika universiteti*) kabi.

## MAVZUNI MUSTAHKAMLASH UCHUN MASHQLAR

**1-mashq.** Bosh harflarning ishlatilish sabablarini tushuntirib bering.

Tohirjon, Shuhratbek, Sayfi Saroyi, Habib Abdulayev, Xiva, Zarafshon, Mirzachoʻl, Amudaryo, Norin, Chortoqsoy, Qurama, Bobotogʻ, Hisor, Markaziy Osiyo, Shimoliy Amerika, Janubiy Koreya, Quyosh, Merkuriy, Saturn, “Mahalla” jamgʻarmasi, “Matiz” avtomobili, “Turon” ishlab chiqarish birlashmasi, “Mustaqillik” ordeni, Navroʻz bayrami, Oʻzbekiston Respublikasi ichki ishlar vazirligi, YUNESKO tashkiloti.

**2-mashq.** Soʻzlarni boʻgʻinlarga ajratib daftaringizga koʻchirib yozing.

Ma'lumot, maxsus, ta'kidlamoq, ko'ngilchan, singil, taassurot, taajjub, saodat, taxt, kelingiz, ingliz, gramm, metall, matn, trolleybus, kitobxon, jurnalist, daftar, O'zMU, XXI asr, Covid-2019, 9-"A" sinf.

#### Mavzu yuzasidan nazorat savollari:

1. "O'zbek tilining asosiy imlo qoidalarini tasdiqlash haqida"gi qaror qachon qabul qilingan?

2. "O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari" necha banddan iborat?

3. "O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari" qanday bo'limlarni o'z ichiga olgan?

4. Yulduz va sayyoralar, boshqa xil osmon jismlarining atoqli nomlari qanday harf bilan yoziladi?

5. Gapning qismlari qavsli raqam yoki qavsli harf qo'yib sanalsa, bunday qismlar qanday harflar bilanyoziladi?

6. Madaniy-maishiy va savdo korxonalariga, adabiyot va san'at asarlariga, sanoat va oziq-ovqat mahsulotlariga, transport vositalari, sport inshootlariga qo'yilgan nomlar qanday harf bilan boshlanadi?

7. Davlatning, davlat oliy tashkilotlari va mansablarining, xalqaro tashkilotlarning nomidagi qaysi so'zlar bosh harf bilan yoziladi?

## **12-MAVZU: O'ZBEK ADABIY TILIDA KO'CHIRISH QOIDALARI: KASBIY SOHAGA DOIR MATNLAR TANLANIB, KO'CHRISH QOIDALARI USTIDA AMALLAR BAJARILADI**

### **REJA:**

1. Ko'chirish qoidalari.

2. Imlo qoidalariga sharhlar.

3. Xulosa.

### **Topshiriqlar:**

1. Bo'g'inning amaliy ahamiyati nimada ekanligi haqida mulohaza yuring.

**2-topshiriq.** So'z boshidagi bir harfdan iborat bo'g'in yolg'iz o'zi oldingi satrda qoldirilmaydi. Ushbu qoidaga mos 10 tadan misol keltiring.

**3-topshiriq.** AQSH, BMT, ToshDU, 16, 245, 1994, XIX kabibirliklarnibo'g'inlargaajrating.

**4-topshiriq.**Bosh harflardan yoki bo'g'inga teng qism va bosh harflardan iborat qisqartmalar, shuningdek, ko'p xonali raqamlar satrga bo'lib ko'chiriladi. Bu qoidani misollar bilan izohlang.

**5-topshiriq.** Yangi o'zbek lotin alifbosi haqida gapiring.

**Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari:**dialogik yondashuv, muammoli ta'lim, Venn diagrammasi, sinkveyn usuli.

### NAZARIY MA'LUMOT

Ko'p bo'g'inli so'zning oldingi satrga sig'may qolgan qismi keyingi satrga bo'g'inlab ko'chiriladi: to'q-son, si-fatli, sifat-li, pax-ta-kor, paxta-kor kabi.

Tutuq belgisi oldingi bo'g'inda qoldiriladi: va'-da, ma'-rifat, mash'-al, in'-om kabi.

So'zning bosh yoki oxirgi bo'g'ini bir harfdan iborat bo'lsa, ular quyidagicha ko'chiriladi:

1) so'z boshidagi bir harfdan iborat bo'g'in yolg'iz o'zi oldingi satrda qoldirilmaydi: a-badiy emas, aba-diy, e-shikdan emas, eshik-dan kabi;

2) so'z oxiridagi bir harfdan iborat bo'g'in yolg'l zo'zi keying satrga ko'chirilmaydi: mudofa-a emas, mudo-faa, matba-a emas, mat-baa kabi.

O'zlashma so'zlarning bo'g'inlari chegarasida kelga nikki yoki undan ortiq undosh quyidagicha ko'chiriladi: 1) ikki undosh kelsa, ular keying satrga birgalikda ko'chiriladi: dia-gramma, mono-grafiya kabi;

2) uch undosh kelsa, birinchi undosh oldingi satrda qoldirilib, qolgan ikki undosh keying satrga ko'chiriladi: silin-drik kabi.

Bir tovushni ko'rsatuvchi harflar birikmasi (sh, ch, ng) birgalikda ko'chiriladi: pe-shayvon, pe-shona, mai-shat, pi-choq, bi-chiq-chi, si-ngil, de-ngiz kabi.

Bosh harflardan yoki bo'g'inga teng qism va bosh harflardan iborat qisqartmalar, shuningdek, ko'p xonali raqamlar satrdan-satrga bo'lib ko'chirilmaydi: AQSH, BMT, ToshDU, 16, 245, 1994, XIX kabi.

Harfdan iborat shartli belgi o'zi tegishli raqamdan ajratib ko'chirilmaydi: 5- "A" sinf, "B" guruhi, 110 gr, 15 ga, 105 m, 25 sm, 90 mm kabi.

Atoqli ot tarkibiga kiradigan raqam nomdan ajratilgan holda keying satrga ko'chirilmaydi:

"Navro'z – 2015" (festival), "O'qituvchi – 91" (ko'riktanlov), "Andijon – 9", "Termiz – 16" (g'o'znavlari), "Boing – 767" (samolyot). "Foton -774" (televizor) kabi.

A.Jabborov, A.D.Abdualiyev kabilarda ismning va ota ismining birinchi harfiga teng qisqartmalar familiyadan ajratib ko'chirilmaydi. Shuningdek, v.b. (vaboshqalar), sh.k. (shu kabilar) singari harfiy qisqartmalar ham oldingi so'zdan ajratib ko'chirilmaydi.

### **MAVZUNI MUSTAHKAMLASH UCHUN MASHQLAR**

**1-mashq.**So'zlarni bo'g'inlarga ajratib daftaringizga ko'chirib yozing.

Ma'lumot, maxsus, ta'kidlamoq, ko'ngilchan, singil, taassurot, taajjub, saodat, taxt, kelingiz, ingliz, gramm, metall, matn, trolleybus, kitobxon, jumalist, dalta. O'zMU, XXI asr, Covid-2019, 9-"A" sinf.

**2-mashq.**Ko'chirish qoidalariga zid ravishda qismlarga ajratilgan so'zlarni belgilang va ularni to'g'rilab daftaringizga ko'chirib oling.

Den-giz, ta-a'lluq-li, ke-tin-giz, o-ta-la-ri, Nam-DU, ko'n-gil, trans-port, mesh-cha, sa-o-dat, ma-lumot, B-MT, Er-on, a-ka-xon, u-kam, ton-ggi, sanoq-li.

**3-mashq.**Quyidagi so'zlarni ko'chirish qoidalariga muvofiq ajratib ko'rsating.

Abadiyat, abstraksiya, adliya, alanga, bannot, bil'aks, dafa, dasturilamal, demokratiya, ekspert, fotograf, geografiya, huquq, idora, ijroiya, iyeroglif, kinostudiya, kodeks, kompleks, krossvord, kriminalist, ko'ngil, leytenant, majmua, mehr-oqibat, melodramma, militsioner, mutafakkir, obuna, osoyishta, ocherk, radioeshittirish, sifcrblat, taajud, tog'olcha, ustuvor, voqea, xushovoz, o'zboshimchalik, o'zaro.

### **Mavzu yuzasidan nazorat savollari:**

1. "O'zbek tilining asosiy imlo qoidalarini tasdiqlash haqida" gi qaror qachon qabul qilingan?

2. "O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari" necha banddan iborat?

3. "O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari" qanday bo'limlarni o'z ichiga olgan?

4. Yulduz va sayyoralar, boshqa xil osmon jismlarining atoqli nomlari qanday harf bilan yoziladi?

5. Gapning qismlari qaysli raqam yoki qavsli harf qo'yib sanalsa, bunday qismlar qanday harflar bilan yoziladi?

6. Madaniy-maishiy va savdo korxonalariga, adabiyot va san'at asarlariga, sanoat va oziq-ovqat mahsulotlariga, transport vositalari, sport inshootlariga qo'yilgan nomlar qanday harf bilan boshlanadi?

7. Davlatning, davlat oliy tashkilotlari va mansablarining, xalqaro tashkilotlarning nomidagi qaysi so'zlar bosh harf bilan yoziladi?

### **13-MAVZU: ADABIY TIL USLUBLARI: KASBIY SOHAGA DOIR MATNLAR TANLANIB, ADABIY TIL USLUBLARI USTIDA AMALLAR BAJARILADI**

#### **REJA:**

1. Nutq uslublariga ko'ra matnlarning o'ziga xosligi.

2. Muayyan uslubning leksik - grammatik vositalari.

3. Matn uslubini o'zgartirish yo'llari.

4. Nutq uslublar va ularning uslubiy xususiyatlari:

a) ilmiy uslub;

b) badiiy uslub;

v) so'zlashuv uslub;


s) rasmiy-idoraviy uslub;

d) publitsistik uslub.

**Tayanch soʻz va iboralar:** *nutq ushblari, nutq ushblari turlari, uslubshunoslik, lingvisti kushubshunoslik, soʻzlashuv uslubi, ommabop uslub, badiiy uslub, nutq koʻrinishlari, stil, uslub, vazifaviy uslub, uslubiyat, lingvistikstilistika, normativ grammatika, soʻzlashuv uslubi, adabiy soʻzlashuv uslubi, oddiy soʻzlashuv uslubi, ilmiy uslub, sof ilmiy uslub, ilmiy-ommabop uslub, rasmiy-idoraviy uslub, sof qonunchilik uslubi, idoraviy-devonxona uslubi, ommabop(publisistik) uslub, badiiy uslub, aralash uslub, podstil, poetic uslub, musul uslubi, ertak uslubi.*

**Qoʻllaniladigan taʼlim texnologiyalari:** *dialogik yondashuv, muammoli taʼlim, Venn diagrammasi, sinkveyn usuli*

Til birliklari va materialidan fikrni ifodalash maqsadida foydalanish jarayoni nutq sanaladi. Hayotning turli sohalari, turlicha nutq vaziyatlarida tildagi leksik, frazeologik, fonetik va grammatik vositalarni tanlash va ulardan foydalanish usullari ham har xil boʻladi.




Shunga koʻra, nutqning quyidagi ushblari oʻzaro farqlanadi: soʻzlashuv uslubi, rasmiy-idoraviy uslub, ilmiy uslub, publisistik uslub va badiiy uslub. Soʻzlashuv uslubi til birliklarini tanlash va ularni qoʻllashning nisvatan erkin uslubidir. Bu uslub oʻz xususiyatlariga koʻra ikki turga: adabiy soʻzlashuv uslubi va oddiy soʻzlashuv uslubiga ajratiladi.

**Adabiy soʻzlashuv uslubi** umumxalq tilidir. Adabiy tilning keng tarqalgan va barcha sohalar uchun bop turi boʻlib, u adabiy meʼyorlarga mos, ishlangan va tartibga solingan boʻladi.

Adabiy so'zlashuv uslubi kundalik muloqot uchun xizmat qiladi, o'qitish ishlari, tarbiya va tashviqot shu uslubda olib boriladi, vadiiy adabiyot shu uslubda yaratiladi.

**Oddiy so'zlashuv uslubi** nutq muomalasi jarayonida (erkinlik bilan) adabiy til hamda sheva elementlari ishtirok elishi, fikriy idrokni keng qamrovli vayon etishi bilan ta'riflanadi. Bu uslubda so'z tartibi qoidaga nomuvofiq bo'lishi (*kecha konsert bo'ldi klubda*); ko'chma, obrazli emotsional vositalar ko'proq (*g'ayrat qil, shalvirama; Alini qarang, og'zi qulog'ida*) kabi dialogik shaklda bo'lib, to'liqsiz gaplar va imo-ishoraning ko'p ishlatilishi (*Kelyapti (navvatchi), Ketdimi? — Ha*) kabi takrorlar (*Kelib-kelib shu gapni topdingmi?*), talaffuzda erkinlik (*na'lat (la'nat), yangitdan (yangidan), opti (olibdi)*) kabi yaqqol namoyon bo'ladi. Oddiy so'zlashuv uslubi badiiy asarda personajlar nutqini individuallashtirishda keng qo'llanadi.



**Rasmiy-idoraviy uslub** jamiyatdagi ijtimoiy, huquqiy munosavlatlar, davlat va davlatlararo rasmiy, siyosiy-iqtisodiy, madaniy aloqalar uchun xizmat qiluvchi nutq uslubidir. Bu uslub xujjatlilik xarakteri bilan ajralib turadi. Shunga ko'ra yozma nutqning xizmatga doir bu turi davlat qonunlari, farmonlar, vayonotlar, shartnomalar, idora xujjatlari, e'lonlar va boshqa rasmiy yozishmalar uslubi hisoblanadi. Rasmiy uslub tilining asosiy xususiyati aniqlik va ixchamlikdir, unda muayyan nuquqiy shtamlar, kasbga oid so'zlar, atamalar, tayyor sintaktik qurilmalar keng qo'llanib, nutqning aniq va ravshan ifodalanishini ta'minlaydi.

Tayyor nutq formalari (shu asosida; *shunga ko'ra, ma'lum qilamizki; ...ni e'tiborga olib; ... ga ko'ra;... biz, quyida imzo chekuvchilar; ...ga asosan (muvoftiq);... uchun;... dan kelib chiqib;... sharti bilan; ... berilsin,... taqdirlansin* kabi) hujjat matnining darak-axborot xarakterida bo'lishini, so'zlarning bir ma'noda ishlatilishini, vadiiy-tasviriy vositalarning bo'lmasligini, fe'lning majhullik va buyruq-istak shakllarning, qo'shma gap turlarining keng qo'llanilishini talab qiladi. Til matnari hujjatning turi va xarakteriga qarab tanlanadi.

Ilmiy uslub tabiat va ijtimoiy hayotdagi varcha narsa hamda hodisalar to'g'risida aniq, asoslangan, izchil ma'lumot berishda qo'llanadi. Unda narsa-hodisa mohiyatini ta'riflash, tahlil qilish, savabini aniqdab dalillar bilan isbotlash va asosli natijalarni vayon etish muhim hisoblanadi. Maxsus atamalar bu uslubning leksikasini tashkil qiladi, unda adabiy me'yorga qat'iy rioya etilgani holda majxul nisvatdagi fe'llar va murakkab qurilishli gaplar keng ishlatiladi. Ilmiy uslub bilimning turli soxalariga qarab, shuningdek, kimga mo'ljallanganligiga nisbatan o'zaro farqlanadi. Masalan, fan sohalari muayyan shartli belgilar, formulalar, vayon qilish materiali bilan ajralib turadi. Ilmiy uslubdagi kitoblar ilm-fanga oid ma'lumotlar berish bilan mutaxassislargagina mo'ljallanishi yoki bunday ilmiy ma'lumotlar keng ommaga qaratilgan bo'lishi mumkin.

Keng jamoatchilikka tushunarli bo'lgan, tasvir vayonida emotsionallik, obrazlilik mavjud bo'lgan uslub ilmiy-ommabop uslub sanaladi. Ko'pchilikka mo'ljallangan ma'ruzalar, risola va darsliklar shu uslubning ko'rinishlaridir. Ilmiy-ommabop uslubda maxsus atamalar kam ishlatiladi (ishlatilganda esa izohi beriladi), fikrlar qiziqarli tildatushuntiriladi, vayonda obrazlilikni ta'minlovchi vadiiy tasvir usullaridan foydalaniladi.

Publilsistik uslub siyosiy-ijtimoiy doiradagi munosavatlar uchun xizmat qiladi.

Bu uslubning yozma turiga publilsistik maqolalar, feleton, murojaatnoma, xatlar, chaqiriqlar kirsa, og'zaki turiga notiqlik kiradi. Bu uslub, avvalo, tashviqot va targ'ibot uslubi bo'lganligi uchun ham unda siyosiy faollik, hozirjavoblik, o'tkir va ta'sirchan notiqlik, mantiqiy mulohaza va dalillar bilan tushuntirish va isbotlash kabi belgilar ustunlik qo'shadi.



Shunga ko'ra publitsistik uslubda yozma nutqqa xos xususiyatlar (ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa sohalarga oid leksikaning, intonatsion sintaktik vositalarning ishlatilishi) ham, vadiy uslubga xos belgilar (obrazli ifodalar, bo'yoqdor so'zlarni qo'llash) ham o'zaro uyg'unlashadi. Bu uslubda hayotiy voqea va dalillar oddiygina qayd qilinmay, jo'shqin va haroratli misralarda ifodalanadi, ulardan umumiy xulosalar chiqariladi hamda muhimi, xalqqa murojaat, undash, qiziqirish orqali o'quvchiga ta'sir ko'rsatiladi.


*Insoniyatning eng zaif tomoni ham shunda, menimcha. Zero, u amal qilayotgan ko'plab zararli odatlarning oxir-oqivatini bilsa-da, uni takrorlashdan o'zini tiyolmaydi. Bugun yoshlar orasida ommalashib borayotgan chekish odati ham ayni yuqoridagi fikrimizga dalil. E'tibor bergan bo'lsangiz, yoshlarimiz ruju qo'yayotgan sigareta tutunlari yomg'ir yog'ishi oldidan kora bulutning ko'm-ko'k, beg'ubor osmonni qoplagani singari tobora farzandlarimizning katta qattamini o'z iskanjasiga olmoqda.*

*Yurtimizda sog'lom avlod tarbiyasiga har qachongidan ko'ra ko'proq e'tibor berilayotgan bir paytda kelajagimiz vorislari bo'lgan o'g'il-qizlarimizning bu qadar o'zlarini zaharlashlariga nima savab bo'lmoqda?*

*Aytish joizki, farzandlarimizning har qanday illatga ruju qo'yishlarida avallo otaona, mahalla-ko'y, bir so'z bilan aytganda, o'zimizning bilib-bilmay qilgan xattiharakatimiz bosh omil bo'lib xizmat qiladi. Shu o'rinda bir misol keltirib o'tsam...*

(“Ma ‘rifat” gazetasidan)

**Badiiy uslubda** muallif asarning estetik ta'sirini kuchaytirish maqsadida tilning leksik va grammatik vositalardan ustalik bilan va ijodiy foydalanishi, turli ifodaviy vositalarni qo'llashi yoki o'zi yangilarini yaratishi mumkin bo'ladi. Shuning uchun ham bu uslubda yozuvchilar mavjud so'zlarni obrazli ishlatishdan tashqari o'ziga xos so'z va iboralar ham ijod etadilar. Vadiy nutqda til obraz, harakter, manzara yaratishga, yuksak obrazlilikni namoyon qilishga xizmat qiladi.



Bu uslubda har bir yozuvchining voqelikni vadiiy idrok etish ko'lami, ijod usuli, poetik maxorati vadiiy nutqning janr xususiyatiga muvofiq tarzda bir-biridan firqlanadi. Shunga ko'ra, vadiiy nutq uslubi nisvatan keng imkoniyatlarga ega o'ta qamrovli va boy nutq ko'rinishidir. Varcha turdagi san'at va adabiyot asarlari shu uslubda yaratiladi.

**Frontal savollar:**

1. Nutq uslublari qanday turlarga bo'linadi?
2. Publitsistik uslub qanday munosavatlar uchun xizmat qiladi?
3. Rasmiy uslub qanday holatlarda ishlatiladi?

**Xulosa:**

- a) o'rganilayotgan tilda muloqot malakasi egallandi.
- b) talabalarda o'zbek tilining nutq uslublari yuzasidan o'ra umumiy ta'limdan olgan bilimlarini mustahkamladik.

**Topshiriqlar:**

**1-topshiriq:** Tarjimai holingizni yozing. Iсталgan matnning so'zlashuv uslubidagi matnlardan farqini izohlang.

**2-topshiriq:** Gaplarni ko'chiring. Rasmiy-idoraviy uslubga xos so'z va grammatik shaklli birikmalarning vazifasini izohlang.

1. Fuqarolar O'zbekiston xalqining tarixiy, ma'naviy va madaniy merosini avaylab asrashga majburdirlar. (UzR Konstitutsiyasi, 49-modda).

2. Davlat tili rasmiy amal qiladigan doiralarda o'zbek adabiy tilining amaldagi ilmiy qoidalari va normalariga rioya qiladi ("Davlat tili haqida" Qonun, 7-modda).

3. Shu yil 28-oktabr kuni soat 14.00 da "Davlat tili haqida"gi Qonun tasdiqlangan kun munosavati bilan adabiy-vadiiy anjuman o'tkaziladi.

4. O'zbekiston Respublikasining Davlat vayrog'i O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining navvatdan tashqari o'tkazilgan VII sessiyasida 199- yil 18-noyabr kuni tasdiqlangan.

5. Yotoqxonada yashovchilar belgilangan tartib-intizom va tozalikka rioya qilmagan taqdirda yotoqxonadan chiqariladi.

6. Betobligim haqidagi tibbiy ma'lumotnoma ilova qilinadi.

7. Abror Rasulov marketing bo'limi boshlig'i vazifasiga tayinlansin.

**3-topshiriq:** Biror gazetadan madaniyat yoki sport mavzusidagi xabarni o'qib, tili va uslubiy xususiyatlariga ko'ra boshqa nutq, uslublaridan farqlanishini tushuntiring.

**4-topshiriq:** Quyidagi matnlarni ifodali o'qing. Badiiy nutqni shakllantiruvchi

leksik-grammatik vositalarni ko'chirib yozing.

1. Siyohdon, azizim, qora ko'zligim,
2. Qora tunlar aro yorigan ko'zgu.
3. Sendagi u siyoh — yo'q, siyoh emas,
4. Qalbmni qiynagan qip-qizil qonim.(G'.G'ulom)

II. Kuz kunlarining oyog'i va qish kunlarining boshi edi. Daraxtlardagi sariq, varglar to'kilib tugagan, yer yuzi o'zining qishki sariq kiyimini kiygan edi. To'rt

tomonining o'ralganligi soyasida yaproqlarini to'kilishdan saqlab qolgan bu gilos yog'ochlari ham butun tungi qora sovuqqa chidolmay elning ozgina harakati bilan-da barglarini shirt-shirt uzib tashlamoqda cdilar. Havo ochiq, bo'lib, quyosh tuzukkina ko'tarilgan. ammo uning ham bu kun uncha ta'siri yo'q bu kungi qora sovuq, quyosh kuchini-da kesgan edi.'

(A.Qodiriy "O'tkan kunlar")

**5-topshiriq:** Matni o'qing va uning asl uslubini aniqlang, uslubiy o'zgarishlarni ko'rsating.

"... Notiq ryumkani olib o'rnidan turdi. Qoshlari chimirildi, rangi bir oz o'zgardi, avval ryumkaga, keyin uyining burchagiga qarab so'z boshladi:

- O'rtoq rafiqam! Ijzat berasiz, xushchaqchaq hayotimizni sharaf bilan davom ettirib, oilaviy burchimizni namunali vajarib kelayotganingizga bir yil to'lgan kunda sizni bevosita tabrik qilishga! Xotin bu muqaddimani hazil gumon qilganligi uchun qiyqirib chapak chaldi. Notiq, yana ham jiddiyroq qiyofada davom etdi:

- Bundan 365 kun muqaddam siz bilan biz hayotimizda qat'iy burilish yasab, zo'r sinovlar sharoitiga bevosita qadam qo'ydik. Ilgarigi vaqtda faqat erkak, endilikda esa ham erkak, ham xotin boshchilik qiladigan oila masalasi o'zingizga ma'lum bolganligi uchun bunga keng ravishda to'xtab o'tirishni iozim ko'rmayman.

...Siz bilan biz bir yillik oilaviy faoliyatim natijasida qanday yutuqlarga erishdik? Avvalo shuni ta'kidlab o'tish kerakki, biz u yoki bu masalada bo'ladigan prinsiplar kelishimovchiliklarni chetdan kuch jalb qilmasdan o'z kuchimiz bilan, o'zaro keng muhokama qilish yo'li bilan bevosita vartaraf qiladigan bo'lib qoldik. Ikkinchidan, o'rtoq, rafiqam, oilamizni tashkiliy xo'jalik jihatidan misli ko'rilmagan darajada mustahkamladik. Men bu borada faktlarga murojat qilib o'tirmayman, chunki o'rdenli onangiz o'zlarining har bir tarixiy kelishlarida bu narsani ayrim ravishda qayd qildilar".

### **Topshiriqlar:**

**1-topshiriq.** Nutq uslublarini belgilashda so'z, grammatik shakl va grammatik qurilishning uslubiy bo'yog'i jiddiy hisobga olinadi. Bu qoidani misollar orqali isbotlang.

**2-topshiriq.** Nutq uslublari og'zaki va yozma nutq shakllari bilan qat'iy bog'liq. Ushbu fikrlarni izohlang.

**3-topshiriq.** So'zlashuv uslubining fonetik jihatdan o'ziga xosligini misollar bilan tushuntiring.

**4-topshiriq.** So'zlashuv uslubining leksik-frazeologik jihatdan xarakterlanishini misollar bilan izohlang.

**5-topshiriq.** So'zlashuv uslubining morfologik jihatdan o'ziga xosligini misollar bilan dalillang.

**6-topshiriq.** Umumxalq tilida-so'zlashuv uslubida qo'llanadigan bir qator so'zlar ilmiy uslubda termin sifatida xizmat qilishi mumkin. Yuqoridagi fikrlarni misollar asosida isbotlang.

### ***NAZARIY MA'LUMOT***

Uslubiyat tilshunoslik fanining bir bo'limi bo'lib, nutq jarayonida til hodisalarining maqsadga, sharoitga va muhitga mos ravishda foydalanish qonuniyatlari bilan tanishtiradi. Uslubiyatda uslublar, til vositalarining nutqda qo'llanish yo'llari, fonetik, lug'aviy, frazeologik va grammatik birliklarning qo'llanish xususiyatlari o'rganiladi.

Adabiy tilning ijtimoiy hayotdagi ma'lum bir sohada qo'llanadigan ko'rinishi adabiy til uslubi deyiladi.

O'zbek adabiy tilida quyidagi asosiy nutq uslublari bor:

1. So'zlashuv uslubi

Keng qo'llanadigan uslublardan biri so'zlashuv uslubidir. Bu uslubda ko'pincha adabiy til me'yorlariga rioya qilinadi. So'zlashuv uslubidagi nutq ko'pincha dialogik shaklda bo'ladi. Ikki yoki undan ortiq shaxsning luqmasidan tuzilgan nutq dialogik nutq deyiladi.

So'zlashuv uslubida ko'pincha turli uslubiy bo'yoqli so'zlar, grammatik vositalar, tovushlarning tushib qolishi, ortirilishi mumkin: Obbo, hamma ishni do'ndiribsiz-da. Mazza qildik. Ketaqo-o-ol!

So'zlashuv uslubida gapdagi so'zlar tartibi ancha erkin bo'ladi. Ko'proq sodda gaplar, to'liqsiz gaplar, undalmali gaplardan foydalaniladi. Oilada, ko'cha – ko'yda

kishilarning fikr almashish jarayonida qo'llanadigan nutq uslubi so'zlashuv uslubi deyiladi. So'zlashuv uslubiy adabiy va oddiy so'zlashuv uslublarini o'z ichiga oladi. Adabiy til me'yorlariga qat'iy amal qilingan so'zlashuv uslubi adabiy so'zlashuv uslubi, bunday xususiyatga ega bo'lmagan so'zlashuv uslubi esa oddiy so'zlashuv uslubidir. So'zlashuv uslubining har ikki turi ko'pincha dialog shaklidaro'yobgachiqadi. Bu uslubdaso'zlarodatdakino'ya, piching, qochirmalarga boy bo'ladi. So'zlashuvuslubiningyanabiro'zigaxosxususiyatierkinligidir. Jumlarqisqavata'sir libo'lib, ko'pinchaso'z - daplar, to'liqsizgaplar, maqolvamatalarhamdaiboralardankengfoydalaniladi.

Umumxalqtilima'lumbirxalqningso'zlashuvtilidir. Adabiytilesama'lumbirtilqoidalariasosidatuzilgan, ishlangan, sayqalberilgantildir. Umumxalq tili kengroq hajmda bo'lib, u shevava lahjalar, kasb-hunarga oid so'zlar, atamalar, jargonlar, ma'lumtoifa (biror ijtimoiy guruh) ga oid so'zlarni ham o'z ichiga oladi. Bu xil tilda nutq erkin bo'lib, til qoidalariga asoslanilmaydi.

Faqat muayyan bir hududga xos ayrim belgilarni o'zida namoyon qilgan til shakli sheva hisoblanadi. Bir qancha shevalar yig'indisi lahja deyiladi. Shevava lahjalar ma'lum bir hududda yashovchi aholining mahalliy so'zlashuv tilidir (masalan, Toshkent shevasi, Farg'ona shevasi kabi).

## 2. Ommabop (publitsistik) uslub

Tashviqot-targ'ibotishlarni olib borishda qo'llanadigan uslub, ya'ni matbuot uslubi ommabop uslub hisoblanadi. Bu uslubda ijtimoiy-siyosiy so'zlar ko'p qo'llanadi. Nutq ta'sirchan bo'lishi uchun ta'sirchan so'z va birikmalardan, maqol va hikmatli so'zlardan ham foydalaniladi. Bunday uslubda gap bo'laklari odatdagi tartibda bo'ladi, kesimlar buyruq va xabar maylidagi fe'llar bilan ifodalanadi, darak, his-hayajon va ritorik so'roq gaplardan, yoyiq undalmalardan, takroriy so'z va birikmalardan unumli foydalaniladi: Azamat paxtakorlarimiz mo'l hosil yetishtirish uchun fidokorona mehnat qilishyapti.

## 3. Badiiy uslub

Badiiy asarlar (nazm, nasr va dramatik asarlar) badiiy uslubda bo'ladi. Badiiy asar kishiga ma'lumot berish bilan birga, timsollar (obrazlar) vositasida estetik ta'sir

ham ko'rsatadi: O'lkamizda fasllar kelinchagi bo'lmish bahor o'z sepini yoymoqda. Badiiy uslubda qahramonlar nutqida oddiy nutq so'zlari, sheva, vulgarizmlardan ham foydalaniladi.

Badiiy asarlar uslubi aralash uslub hisoblanadi. Unda so'zlashuv uslubiga, kitobiy uslublarga xos o'rinlar ham uchraydi.

### **MUSTAHKAMLASH UCHUN MASHQLAR**

1-mashq. Matnни o'qing, uni uslubiy jihatdan tahlil qiling. Gaplarni qaysi nutq uslublariga mansubligini va o'ziga xos uslubiy vositalarini aniqlang.

Ultra tovushlar kashf etilgunga qadar har qanday tovushni qabul qilish vositasi insonning eshitish a'zosi bo'lgan quloq deb hisoblangan. Tovush to'lqinlarining vujudga kelishi va tarqalishi bilan bog'liq hodisalar akustik hodisalar deb yuritiladi. Hozirgi paytda tovushning havodagi tezligi normal sharoitda 33m/sekundga teng bo'lsa, suvdagi tezligi 1500 m/sekund, po'latdaesa 6000 m/sekund ekanligi o'lchov asboblari yordamida aniqlangan.

Gaplarning qaysi nutq uslubiga xosligi:

Bu matn publitsistik uslubning yozma shakliga mansub.

O'ziga xos uslubiy vositalari:

Kashf etilgunga qadar, har qanday, qabul qilish, vositasi, vujudga kelishi va tarqalishi, teng bo'lsa, ekanligi o'lchov asboblari yordamida aniqlangan.

2-mashq. Gaplarni o'qing, *ogohlikvahushyorlikhaqidafikrlashing. Tinchlik, halovat, fayzli, tarovatli so'zlarining ishlatilish o'rinlariga diqqat qiling. Gaplarning uslubini belgilang.*

1.Xalqimizning birligi, jipsligi, tinch-totuvligi bizning bebaho boyligimizdir, 2. Ogohlik – davr talabi. 3. Tinchlik – eng bebaho ne'mat. Tinchlik bo'lsa, halovat bo'ladi, halovatli elning har bir kuni esa fayzli, tarovatli o'tadi. 4. O'zbek xalqi hech qachon, hechkimga qaram bo'lmaydi.

3-mashq.Muhammad Yususfning "Ona tilim" she'ridan olingan parchani yodlang."Topganimiz handalakdek tilim-tilim, Ona tilim, kechir meni, ona tilim!" satrlari haqida fikrlashing.

Kimlar uchun biz edik bir badaviylar,

O'zbekni qon qaqshatganni o'zbek siylar,  
Holimizni jimik uzatdi Yassaviylar,  
Topganimiz handalakdek tilim-tilim,  
Ona tilim, kechir meni, ona tilim!

Sen bo'lmasang, nima bizga silliq she'rlar,  
Bu dunyoda tili yo'qda dil yo'q derlar,  
Bahongni-ku berib ketgan Alisherlar,  
Yuragimning to'ridagi so'lmas gulim,  
Ona tilim, kechir meni, ona tilim!

**Mavzu yuzasidan nazorat savollari:**

1. Nutqning xilma-xil tarzda namoyon bo'lishiga ta'sir etuvchi omillar?
2. Uslub (stil) so'zining lug'aviy ma'nosi?
3. O'zbek tili vazifaviy uslublari shakllanish jarayonining tarixiy ildizlari qayerga borib taqaladi?
4. O'zbek tilshunosligida uslubiyatning fan sifatida shakllanishi qachondan boshlangan?
5. Lingvistik stilistika shakllanishiga samarali hissa qo'shgan tilshunos olimlar?
6. Vazifaviy uslublarning bo'yicha izlanish olib borgan olimlar?
7. Normativ grammatika deganda nimani tushunasiz? Uning uslubiyat bilan aloqasi qanday?
8. Uslubiyatning o'rganish obyekti.
9. So'zlashuv uslubining o'ziga xos xususiyatlari.
10. So'zni qisqartirish va ko'chma ma'noda qo'llash qaysi uslubga xos?
11. Imo-ishoralar, qo'shimcha izohlar, takror, qaytariqlar, qo'l, bosh va gavda harakatlaridan fikr ifodalashda qo'shimcha vosita sifatida foydalaniluvchi uslub.
12. So'zlash va ifoda vositalarining yaxlitligi bilan umumiy tizimga birlashuvchi uslub va uning xususiyatlari.
13. Keng ma'noda barcha yozishmalarni o'z ichiga oluvchi uslub turi?



14. Publitsistik asarlar jumlasiga nimalar kiradi?

15. Inson amaliy faoliyatining barcha sohasini qamrab oluvchi uslub va uning xarakterli tomonlarini yoritib bering

#### 14-MAVZU: USLUBIYAT HAQIDA MA'LUMOT: KASBIY SOHAGA DOIR MATNLAR TANLANIB, USLUBIYAT TURLARI USTIDA AMALLAR BAJARILADI.

##### REJA:

1. Uslubiyat haqida umumiy ma'lumot.
2. Fonetik uslubiyat.
3. Adabiy til uslubi.
4. Leksik uslubiyat.
5. Grammatik uslubiyat.

*Tayanch soʻz va iboralar: uslub, stilistika, adabiy til, kitobiy uslub, uslubiy xoslangan soʻzlar, leksik uslubiyat, fonetik uslubiyat, grammatik uslubiyat, uslubiy betaraf soʻzlar.*

Uslubiyat tilshunoslik fanining bir boʻlimi boʻlib, nutq jarayonida til hodisalarining maqsadga, sharoitga va muhitga mos ravishda foydalanish qonuniyatlari bilan tanishtiradi. Uslubiyatda uslublar, til vositalarining nutqda qoʻllanish yoʻllari, fonetik, lugʻaviy, frazeologik va grammatik birliklarning qoʻllanish xususiyatlari oʻrganiladi.

Adabiy tilning ijtimoiy hayotdagi maʼlum bir sohada qoʻllanadigan, bir qancha oʻziga xos xususiyatlarga ega boʻlgan koʻrinishi adabiy til uslubi deyiladi. Uslub orqali soʻzlovchi shaxsnarsalarga, voqealarga shaxsiy munosabatini aks ettiradi.

Oʻzbek adabiy tilida quyidagi asosiy nutq uslublari bor: soʻzlashuv uslubi, badiiy uslub, rasmiy uslub, ommabop uslub, ilmiy uslub (Ayrim darsliklarda soʻzlashuv uslubidan boshqa barcha auslublar kitobiy uslub degan umumiy nom ostida beriladi): *durust*, *metro*, *koʻk*, *tuzuk* (soʻzlashuv uslubi); *moviy, metropoliten* (kitobiy).

Har bir uslubni yaratuvchi vositalar mavjud. Bularni quyidagi turlarga bo'lish mumkin:

1. **Leksik vositalar:** Sinonim, omonim, antonim, paronim, ko'p ma'nolilik, tag ma'no (gapning tagida yashiringan ma'no), sifalash, o'xshatishlar, frazeologik birlik, sheva, noadabiy so'zlar (jargon, argo, so'kish, qarg'ish kabilar) kasb-hunar so'zlari, mubolag'a (giperbola), arxaik va tarixiy so'zlar, atamalar.

2. **Fonetik vositalar:** nutq tovushlari, ohang, urg'u.

3. **Grammatik vositalar:** a) **morfologik vositalar:** har bir so'z turkumi; b) **sintaktik vositalar:** gap bo'laklari, ritorik so'roq gaplar, undalma, kirish so'z, irish birikma, sodda va qo'shma gaplar, ko'chirma va o'zlashtirma gaplar. Ma'lum bir uslubga tegishli bo'lgan so'zlar **uslubiy xoslangan so'zlar** deb yuritiladi: *yanglig'* so'zi badiiy uslubga, *omonim*, *sinonim* so'zlari ilmiy uslubga, *balli*, *ketvorgan* kabi so'zlar so'zlashuv uslubiga, *faollar yig'ilishi*, *siyosiy maydon* kabi so'z birikmalari ommabop uslubga xosdir. So'zlashuv uslubida ham, kitobiy uslubda ham ishlatilaveradigan so'zlar **uslubiy betaraf** so'zlar hisoblanadi: *sur*, *tog'*, *bola*, *xat*. Bu so'zlar ko'chma ma'noda qo'llansa, ma'lum bir uslubga tegishli bo'lishi mumkin.

#### **Takrorlash uchun savollar:**

1. Uslubiyat nima va bu bo'limda nimalar o'rganiladi?
2. Adabiy til uslubining ta'rifini ayting.
3. So'zlashuv uslubi haqida gapiring.
4. So'zlashuv uslubida ko'proq qanday gaplardan foydalaniladi?
5. Ilmiy uslub haqida gapiring.
6. Ilmiy uslubda ko'proq qanday til vositalaridan foydalaniladi?
7. Rasmiy-idoraviy uslubda nimalar yoziladi?
8. Rasmiy-idoraviy uslubda qanday gaplardan foydalaniladi?
9. Ommabop uslub haqida gapiring.
10. Ommabop uslubda qanday gap va til vositalaridan foydalaniladi?
11. Badiiy uslubning xususiyatlari haqida gapiring.

12. Badiiy uslub nega aralash uslub deyiladi?
13. Nima uchun ma'nodoshlik uslubiyatning asosi deyiladi?
14. To'liq sinonimlar haqida gapiring.
15. Ma'noviy sinonimlar haqida so'zlang.
16. Uslubiy sinonimlar haqida gapiring.
17. Frazologik sinonimlar haqida gapiring.
18. Grammatik sinonimlar haqida so'zlang.
19. Qanday me'yorlar adabiy tilning hamma ko'rinishlari uchun xos?
20. Qanday me'yorlar adabiy tilning hamma ko'rinishlari uchun xos emas?
21. Nutq madaniyati haqida so'zlang.

## **15-MAVZU: USLUBIYAT. ILMIY USLUB VA UNING USLUBIY XUSUSIYATLARI**

### **REJA:**


1. Uslubiyat nima?
2. Ilmiy uslub nima?
3. Ilmiy uslub qachon va qanday vaziyatlarda qo'llaniladi?
4. Sohaviy terminlar qanday yuzaga keladi?
5. Ilmiy uslub va sohaviy terminlarning o'zaro mushtarakligi.

Fan-texnikaning turli tarmoqlariga doir ilmiy asarlar, darsliklar **ilmiy uslubda** yoziladi. Demak, fan va texnika tili **ilmiy uslub** deyiladi. Dalilij munosabatlar asosida chiqarilgan ilmiy xulosalarga asoslanuvchi, har bir fan sohasining o'ziga xos atamalariga tayanuvchi, fikrni aniq va mantiqiy izchil bayon qiluvchi uslub **ilmiy uslubdir**.

Ilmiy uslub tabiat va ijtimoiy hayotdagi barcha narsa hamda hodisalar to'g'risida aniq, asoslangan, izchil ma'lumot berishda qo'llanadi. Unda narsa-hodisa mohiyatini ta'riflash, tahlil qilish, sababini aniqlab, dalillar bilan isbotlash va asosli natijalarni bayon etish muhim hisoblanadi. Maxsus atamalar bu uslubning

leksikasini tashkil qiladi, unda adabiy me'yorga qat'iy rioya etilgani holda majhul nisbatdagi fe'llar va murakkab qurilishli gaplar keng ishlatiladi.

Mantiqlilik, aniqlik bu uslubga xos xususiyatlardir. Ilmiy uslub aniq ma'lumotlar asosida chiqarilgan ilmiy xulosalar (qoidalar, ta'riflar)ga boy bo'lishi bilan boshqa uslublardan farq qiladi: *Yomg'ir - suyuq tomchi holiday atmosfera yog'ini. Tomchining diametri 0,5-0,6 mm bo'ladi.*



Ilmiy uslubda har bir fanning o'ziga xos ilmiy atamalaridan foydalaniladi, bu uslubda so'zlar o'z ma'nosida qo'llanadi, qoida yoki ta'rifning mazmunini ochishga xizmat qiladigan ajratilgan bo'laklar, kirish so'zlar, kirish birikmalar, shuningdek, qo'shma gaplardan ko'proq foydalaniladi.

Ilmiy uslub (yoki ilmiy bayon uslubi) da tabiat va ijtimoiy hayotdagi hodisalar aniq ta'riflanadi, tushuntiriladi. Bu uslub o'zining alohida maxsus vazifasiga ega ekanligi bilan ajralib turadi. Ilmiy uslub ilmiy terminologiya bilan bog'liq. Odatda, terminlar ilmiy uslubning leksikasini tashkil qiladi. Lekin ilmiy asarlar tili faqat terminlardangina tashkil topma, unda abstrakt leksika va ko'p ma'nolilik

xususiyatiga ega bo'lgan umumxalq so'zlari ham keng qo'llaniladi. Ilmiy uslubda yana fanning turli sohalariga oid simvol va belgilar, raqamlar ham ishlatiladi.

O'zbek ilmiy uslubida obrazli nomlarning roli juda kattadir. Masalan: *oq tuproq, qora tuproq, qizil tuproq, sho'rtuproq; muzlik kamari, muzlik darvozasi, muz tili, kulcha muz; marjon qirg'oq, panjarasimon qirg'oq; oy o'tovi, serostona daryo, patsimon bulutlar* kabi terminlar ham aslida obrazli ifodalardan kelib chiqqan.

Albatta, ilmiy uslubdagi obrazlilik bilan badiiy adabiyotdagi obrazlilik farqlanadi. Ilmiy uslubda obrazli nomlar faqat nominativ atash funksiyasini, badiiy adabiyotda esa estetik ta'sir ko'rsatish vazifasini bajaradi. Obrazlilik kategoriyasi agar ilmiy uslubda «so'ngan, nursiz» holda ko'rinsa, badiiy adabiyotda esa «jonli» tarzda namoyon bo'ladi. Masalan, *uchar yulduz, somon yo'li astronom uchun*, avvalo, termin vazifasini o'taydi, yozuvchi uchun esa bu so'z birikmalari o'xshatish yoki obrazli ifoda manbai bo'lishi mumkin.

Odatda ilmiy uslubga mansub materiallar o'z mazmuniga ko'ra ikki turga bo'linadi:

1. Ilmiy tadqiqotlar. 2. Ilmiy-ommabop asarlar.

Ilmiy tadqiqotlar biron-bir fan sohasidagi izlanishlarni qamraydi, uzoq yillar olib borilgan ijodiy mehnat samarasini ko'rsatdi. Masalan: Oybekning «Abdulla Qodiriyning ijodiy yo'li», I. Sultonning «Navoiyning qalb daftari», H. Yoqubovning «Adibning mahorati» kabi asarlar xudi shunday tadqiqotlardir.

Ilmiy-ommabop asarlar hamma uchun tushunilishi qiyin bo'lgan masalalarni sharhlaydi. Bunday asarlarda iloji boricha murakkab atamalar qo'llanmaydi. Bu uslubda ham shevachilikka yo'l qo'yilmaydi. Lekin bu ikki xillik ilmiy uslub umumiylik asosida bir-biriga bog'liq bo'ladi.

Xullas, ilmiy uslub materialini o'zaro tutashtiruvchi holatlar quyidagilar:

1. Dalillarning aniqligi, mantiqiy asosligi, tavsifiy izchilligi ilmiy uslubning barchasi uchun muhim xususiyatdir.

2. Ilmiy terminlarining ko'proq qo'llanilishi bu sohaning xarakteriga mosdir.

3. Ilmiy uslubda gap bo'laklarining tushib qolish alomati kam uchraydi.

4. Adabiy me'yorga rioya qilish, gaplarning grammatik shakllanganligi bu uslubning yetakchi xususiyatidir.

5. Shevachilikka yo'l qo'yilmaydi.

Ilmiy uslub ilmiy faoliyat sohasiga xizmat qiladi. U - fan tili. Asosiy vazifasi g'oyalar faktlar qonuniyatlar hodisalar va tushunchalar tizimi bilan aloqadorlikdir. Bu axborotlar isbotlangan, dalillangan va umumlashganligi, yozma nutq shaklida nomoyon bo'lishi uning o'ziga xos xususiyatlaridir. Axborotning xolisligi va umumlashganligi, mantiqiy vap izchilligi, aniq va batafsilligi bu uslubga xosdir. Bu uslubda avtor shaxsi ifodalanmaydi, bo'yoqdor so'zlar uchramaydi. Har bir fan sohasiga oid shartli qisqartmalar va ramziy belgilar uchraydi. Shu fanga oid terminlar uchraydi.

Albatta, ilmiy texnik bayon ilmiy matematik bayondan yoki qat'iy ilmiy bayon ilmiy-ommabop bayondan ma'lum darajada farqlanadi. Bu tafovutlar bayon qilish situatsiyasi va bayon qilish «material»dan kelib chiqadi. Binobarin, ilmiy-texnik, ilmiyommabop, ilmiy-ommabop matematik bayonlar ilmiy uslubning ko'rinishlari bo'lgani uchun, ular ilmiy uslubga xos umumiy, yaxlit xususiyatlarga ega bo'ladi. Ilmiy uslubning barcha belgi-alomatlari ularning har birida o'ziga xo sbir shaklda takrorlanadi. Masalan, ilmiy uslubning ilmiy-ommabop variantida yozilgan biron fanga oid kitob, maqola va leksiyalar shu fan masalalari bilan tanish bo'lmagan kishilar uchun mo'ljallanganda material ularga tushunarli shaklda bayon etiladi, fikr jonli va qiziqarli tushuntiriladi, ilmiy terminlar kam qo'llaniladi, umuman tanish bo'lmagan termin va mavhum formulalar o'rniga aniq tasviriy materiallarga kengroq o'rin beriladi. Lekin ilmiy uslub bilan uning ilmiy-ommabop ko'rinishi o'rtasidagi bir xildagi tafovutlar ilmiy uslub tushunchasining bir butunligiga, yaxlitligiga putur etkazmaydi.

Monologik xarakterda o'zbek ilmiy terminologiyasida *oq tuproq, sariq tuproq* kabi obrazli terminlar ko'rinishidan obrazli tuyulsa ham, lekin ilmiy uslubda narsa va xodisalarni faqat nomlash uchun xizmat qiladi. Badiiy adabiyotda esa obrazli tafakkur ifodasi uchun xizmat qilib, kitobxonga estetik ta'sir etish vositasiga

aylanadi. Masalan, uchur yulduz, quyruqli yulduz kabi astronomik terminlar shular jumlasidandir.

Ilmiy -omnabop uslubda badiiy nutq unsurlari va usullariga murojaat qilinishi hollari tez-tez uchrab turadi.

Voqelikka munosabatni munosabatning va buning tadqiqini mantiqan dalillangan, grammatik shakllangan, adabiy me'yor asosida tuzilgan jumalarda ifodalab berish ilmiy uslubning mohiyatini tashkil etadi.

Ilmiy uslub doirasi anchagina keng va xilma-xildir. Chunonchi, bir qator ijtimoiy fanlarga oid tadqiqotlar ko'proq ommaviyligi bilan tavsiflansa, aniq fanlarga oid tadqiqotlar mutaxassislar doirasida ko'proq anglashilarli bo'ladi.

**Gaplar orasida mantiqlikning buzilishiga quyidagilarni ko'rsatsa bo'ladi:**

1. Gaplarni bir-biriga bog'lashda yuz beradigan xatolar;

2. Bir fikrdan boshqasiga o'tishda yuz beradigan xatolar.

3. Matnni abzatslarga bo'lishda xatolarga yo'l qo'yish.

4. Matnni mantiqiy shakllantirish, sintaktik qurilmalarni tanlashda yuz beradigan xatolar.

Har bir gapda nisbatan tugallangan qandaydir fikr ifodalangan bo'ladi. Avvalgi gaplarda ifodalangan fikrni keyingi gapda ifodalangan fikr, odatda yo rivojlantiradi, yoki ulardan kelib chiqadigan fikrlarni xulosalaydi. Shunday ekan, keyingi gapni oldingi gap bilan to'g'ri bog'lash muhimdir. Gaplar bir-birlari bilan xilma-xil sintaktik vositalar orqali bog'lanadi.

Ixtisoslikka oid so'zlarni nutqda to'g'ri tanlash va qo'llash ham nutq madaniyatining, ham kasbiy bilimdonlikning muhim sharti hisoblanadi.

**So'z tanlashda quyidagilarga e'tibor beriladi:**

-so'zning lug'aviy ma'nosini bilgan holda tanlash;

-tanlangan so'zni aniq talaffuz eta olishni nazarda tutish;

-so'zning suhbatdoshlarga tushunarli bo'lishini hisobga olish;

-so'zning ma'no xususiyatlariga asoslanib uni nutq maqsadiga muvofiq tarzda tanlash;

- so'zni matn mazmuniga mos tarzda tanlash;
- baynalmilal atamani adabiy tilning leksik me'yoriga muvofiq holda tanlash;
- so'z, atamani matnning uslubiy xususiyatiga mos ravishda tanlash.

**Ixtisoslikka oid matn tuzishda quyidagilarga e'tiborni qaratish lozim:**

- matnning qaysi nutq uslubida yozilishi kerakligini oldindan bilish;
- ixtisoslikka oid so'z va shartli belgilarni to'g'ri tanlay olish va o'rinli joylashtirish;
- so'z va atamalarni imlo me'yorlariga rioya qilgan holda yozish;
- kasbdoshlarga unchalik tanish bo'lmagan yoki faol qo'llanmaydigan atama, shartli belgi yoki qisqartmalarga qavs ichida izoh berish;
- ixtisoslikka oid atamalarni boshqa tillardan o'zlashtirish, so'z yasashda milliy tilning tabiatini nazarda tutish;
- kasb-hunar so'zlari va atamalarini o'rinsiz takrorlanishiga yo'l qo'ymaslik, ularning ta'sirchanligini oshirish maqsadida leksik, morfologik va sintaktik sinonimiya imkoniyatlaridan o'rinli foydalanish va boshqalar.

**Asosiy xulosalar va ularni mustahkamlash:**

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ilmiy uslub tabiat va jamiyatdagi barcha narsalar, hodisalar haqida aniq, asoslangan, izchil ma'lumotlar berishda qo'llanadi. Ilmiy uslubda biror narsa yoki hodisa mohiyatini ta'riflar, tahlil qilish, dalillar bilan isbotlash va asosli natijalarni bayon qilish muhim hisoblanadi. Bu uslubda maxsus atamalar ko'p ishlatiladi. Ilmiy uslubda adabiy normaga qat'iy rioya etilib majhul va murakkab qurilishli gaplardan keng foydalaniladi.

**Muhokama uchun savollar:**

1. Ilmiy uslubga xos terminlarga misollar keltiring.
2. Ilmiy uslubda obrazli nomlar qanday vazifani bajaradi?
3. Terminlarni qayta-qayta takrorlayverish qanday najjaga olib keladi?
4. Obrazli nomlar qaysi uslubga xos?
5. Obrazli nomlarga misollar keltiring.

**Nazorat savollari:**

1. Ilmiy uslubga oid so'zlar qaysi qatorda berilgan?



2. Ilmiy uslubning o'ziga xos holatlari haqida gapiring.

3. Ilmiy nutqda qaysi holatlar asosiy o'rinni tutadi?

4. Ilmiy uslubda yozilgan gap tuzing.

5. Quyidagi gap qaysi uslubga xos?

*Ko'mirning to'la yonishi natijasida karbonat angidrid hosil bo'ladi, bunda uglerod kislorod bilan oksidlanadi.*

6. Ushbu matn qaysi uslubda yozilgan?

*Trapetsiyaning o'rta chizig'i asoslariga parallel va ular yig'indisining yarmiga teng.*

7. Ilmiy uslubning o'ziga xos xususiyatlari haqida gapiring.

8. Ilmiy-ommabop asarlarga xos xususiyatlarni izohlang.

9. Ilmiy tadqiqot asarlariga misollar keltiring.

10. Ilmiy uslubda tadqiqot xarakteriga bog'liq ravishda raqamlardan foydalanish to'g'ri ishiga misollar keltiring.

11. Ilmiy uslubga xos terminlarga misollar keltiring.

12. Ilmiy uslubda obrazli nomlar qanday vazifani bajaradi?

13. Terminlarni qayta-qayta takrorlayverish qanday najjaga olib keladi?

14. Obrazli nomlar qaysi uslubga xos?

15. Obrazli nomlarga misollar keltiring.

### **Topshiriqlar:**

**1-topshiriq:** Gaplarni diqqat bilan o'qing. Noto'g'ri qo'llangan so'zlarni aniqlab, ma'nosiga ko'ra mos so'z bilan almashtirib, gaplarni ko'chiring.

1. So'zlovchining o'z fikrini qisqa va batafsil ifodalab, tinglovchiga etkazishi ham o'ziga xos san'atdir. 2. So'zga benazir kishi mayda bir maqsadni uzoq so'zlab bayon qiladi. 3. Nojo'ya so'z yurak ko'zgisini parchalashi, tag'in insonni vayron qilishi mumkin ekanligini yodda tuting. 4. Nutqi asal kishining mehribon odamizoti ham ko'p bo'ladi. 5. Shirin so'z, go'zal til inson dilini qanchalik xushnud etsa, aksincha, achchiq so'z, beso'naqay gap inson dilini shunchalik noxush qiladi, dil piyolasini parchalaydi. 6. Mashq sababli so'zlash qobiliyatini, nutq madaniyatini, notiqlik san'atligini odamlar olqishlaydigan saviyada egallash mumkin. 7. Tilda

uni nomlovchi suxan bo'lmasa, bunday so'zni hamsoya tildan olish mumkin. Ammo tilda turgan so'zlar o'mida boshqa suxanni qo'llash falokatdir.

**2-topshiriq:** Quyidagi so'z, atama va so'z birikmalarining qaysi uslubga xosligini aniqlang. Ilmiy uslubga xos bo'lganlari ishtirokida gaplar tuzing.

Xalq sayli, bo'linmas fond, kirim, zarurat tufayli, taftish, so'zga chiqdi, infrastruktura, mehnat bitimi, ko'chmas mulk, topshirig'ingizga binoan, tebranish, hosila, sug'urta, zimmasiga yuklatilsin, elektromagnit maydoni, modellashtirish.

**3-topshiriq:** Matnlarni o'qing, ulardagi ixtisoslikka oid so'zlarni ajratib ko'chiring va matnlarda qanday uslubiy vazifani bajarayotganligini qiyoslab tushuntiring.

Rivojlangan davlatlarda auditni boshqarishda davlat faol ishtirok etadi, shuning uchun siyosat elementi bilan har bir audit firmalari davlat siyosatiga javob berishi va audit kompaniyasi shu siyosatga muvofiqlashtirilishi kerak. Davlat audit kompaniyalari majburiyatlarini belgilashda, iqtisodiy hamda moliyaviy qiyinchiliklarni hal qilishda, audit va auditorlar talablarini (ma'lumotini, klassifikatsiyasi, imtihon topshirish tartiblarini va h.k.) belgilashda o'z ta'sirini o'tkazadi.

**4-topshiriq:** O'zingiz tanlagan fan yo'nalishidagi darslikdan biror matn parchasini o'qing, so'ng undagi ixtisoslik atamalarini boshqa ma'nodoshlari bilan almashtirib, mustaqil ravishda matn yarating. Asl va ijodiy matn o'rtasidagi farqni izohlang.

**5-topshiriq:** Tanlagan kasbingiz, mutaxassisligingizga oid biror matn (darslik yoki jumaldan) tanlab oling. Uni ixchamlashtiring va qisqa tarkibiy qismlarga ajratib, har biriga alohida sarlavha qo'ying.

## **16-MAVZU:FONETIK USLUBIYAT: KASBIY SOHAGA DOIR MATNLAR TANLANIB, UNDAGI TOVUSH, URG'U VA OHANGNING USLUBIY XUSUSIYATLARI USTIDA AMALLAR BAJARILADI**

### **REJA:**

1. "Fonetika" to'g'risida.

2. Fonetikaning turlari.
3. Fonetik uslubiyat.
4. Nutq tovushlari uslubiyati.

**Tayanchsoʻzvaiboralar:** *fonetika, fonologiya, foneti kushubiyat, tarixiy fonetika, fraza, takt, boʻgʻin, nutq tovushlari, nut q tovushlari uslubiyati.*

**Fonctika** (grekcha -fone-tovush) tilshunoslikning bir boʻlimi boʻlib, tilning tovush tizimini, nutq tovushlarini oʻrganadi.

Fonetikada nutq tovushlari 4 tomondan oʻrganiladi: 1) nutq organlarining nutq tovushlarini talaffuz qilishdagi harakati, yaʼni artikulyatsiyasi oʻrganiladi; 2) tovushlar qanday fizik tebranishlar natijasi ekanligi, yaʼni akustik tomonini hisobga olinadi; 3) nutq tovushlari boʻgʻin, urgʻu va ohangning eshituvchi tomonidan anglab his etilishi tekshiriladi; 4) nutq tovushlarining tildagi soʻzlar, frazalarvagaplamibir-biridanfarqlashuchunxizmatqilishi, yaʼni *fonologik* tomonioʻrganiladi.

Fonetikani oʻrganishning nazariy va amaliy ahamiyati bor. Tilning talaffuz alomatlari nazariy jihatdan oʻrganiladi. Fonctika amaliyotda keng qoʻllaniladi. Tilning tovush tarkibini yaxshi oʻrganishda, orfografiya masalalarini toʻgʻri hal qilishda, yozuvi boʻlmagan xalqning yozuvini yaratishda, eski yozuvdan yangi yozuvga oʻtishda, chet el tillarini oʻrganishda, tili chuchuk bolalarning tilini tuzatishda va boshqa sohalarda fonetikaning ahamiyati nihoyatda kattadir.

Fonetikaning quyidagi turlari mavjud:

- vazifasiga koʻra: umumiy va xususiy fonetika. Umumiy fonetika dunyo tillariga tegishli boʻlgan umumiy fonetik qonuniyatlarni oʻrganadi. Xususiy fonetika esa biror konkret tilga xos boʻlgan tovushlar sistemasini oʻrganadi;

- maqsadiga koʻra: nazariy fonctika, amaliy fonctika, eksperimental fonctika. Nazariy fonctika maʼlum bir tilning tovush xususiyatlarini nazariy jihatdan tasnif etadi. Amaliy fonctika esa muayyan tilning fonctik, orfoepik meʼyorlarini oʻrganadi. Ostsillograf, kim ografsingari alohida apparatlar bilan (yordamida) nutq

- tovushlari bo'g'in, urg'u va ohangdagi artikulyatsion-akustik xususiyatlarini o'rganish eksperimental fonetikaning asosiy vazifasidir.

Fonetika o'z tekshirish obyektining davrga munosabati nuqtai nazaridan 2 xil bo'ladi: tasviriy (sinxron) fonetika va tarixiy (diaxron) fonetika. Tasviriy fonetika muayyan konkret til tovush tarkibining hozirgi davrdagi ahvolini o'rganadi. Tarixiy fonetika biror konkret tildagi nutq tovushlarining tarixiy taraqqiyotini, qanday o'zgarishlarga uchraganini va bu o'zgarishlarning sabablarini tekshiradi.

Nutqning fonetik qismlarini o'rganishiga qarab fonetika ikki turli bo'ladi: segmental fonetika va supersegmental fonetika. Nutq tovushlari hosil bo'lishi va uning xususiyatlarini o'rganuvchi fonetika segmental (*segment-nutq bo'lagi*) fonetika deyiladi. Nutq tovushlaridan katta bo'lgan fonetik birliklar: bo'g'in, so'z va frazalami o'rganuvchi fonetikaga esa supersegmental fonetika deyiladi yoki *prosodika* deyiladi.

Asosiy fonetik birliklar: *fraza, takt, bo'zin, nutq tovushlari*.

Grammatika ham nutqni tarkibiy qismlarga ajratadi: gap, so'z birikmasi (faza), so'z va morfemalarga. Garchi har ikki qatlam nutqning son nuqtai nazaridan bir xil bo'lsa ham sifat jihatidan bir-biriga mos kelmaydi.

*Faza* nutqning eng katta birligi bo'lib, ikki tomondan pauza bilan chegaralanib, o'zigaxosohanggaegabo'ladi. Masalan: *Quyoshtikkelgan* (1gap, 1faza), *Shipi past*, devorlari yupqa, *torgina do'konxona, har vaqtdagidek ivirsiz* (bu gapni to'rt frazaga ham, ikki frazaga ham bo'lish mumkin). Frazani jumla deyish ham mumkin. Gap bilan jumla hamma vaqt ham bir-biriga to'g'ri kelavermaydi.

*Takt*. Frazaning ikki kichik pazasi orasiga joylashgan va yagona urg'u bilan talaffuz qilinadigan bir yoki bimechta bo'g'inning yig'indisi takt deb ataladi. Masalan: *Havo bulut edi*. 1,2-so'z urg'uli, 3-urg'usiz. Urg'u olmagan so'zlar urg'uli so'zning oldidan va keyinidan kelishi mumkin: oldidan - *narabotu, zamir* – prokliti kelementlar, *bulut edi* – keyin daenklitik elementlar.

Fonetik birlik bo'lmish takt grammatikada so'z birikmasi bilan qiyoslansa, ular hech vaqt bir-biriga to'g'ri kelmaydi.

**Bo'g'in.** Takt bo'g'inlardan tashkil topadi. Bo'g'in bir yoki bir necha tovushdan tashkil topib, bir zarb bilan talaffuz qilinadigan fonetik birlikdir. Bo'g'in asosan unli tovush bilan boshlanadi.

**Nutq tovushi** asosiy fonetik birlik sanaladi. U uch aspektda o'rganiladi: akustik, fiziologik, fonologik.

Fizikada tovush to'g'risidagi umumiy nazariya akustika deb ataladi. Akustika har qanday tovushlarning, jumladan nutq tovushlarning quyidagi belgilarini farqlaydi:

1) akustika tovush kuchi, ya'ni tebranish chegarasiga bog'liqdir;

2) tovushlarning past-balandligi tebranish tezligiga, ya'ni bir sekunda bo'ladigan tebranish soniga bog'liq. Tebranish qancha ko'p bo'lsa, tovush shuncha baland chiqadi, tebranish kam bo'lsa, tovush past chiqadi;

3) tovushning cho'ziq-qisqaligi tebranish vaqtining davomli yoki davomsiz bo'lishiga bog'liq. Tebranish davomsiz bo'lsa, tovush qisqa chiqadi.

Nutq tovushi temбри (sifati) asosiy ton bilan yordamchi tonlarning va shovqinning qo'shilishidan yuzaga keladi. Tovushning temбри rezonatorlik vazifasini bajaruvchi og'iz bo'shlig'i va burun bo'shlig'ining hajmi va shakliga, tovush paychalarida hosil bo'ladigan shovqinlarning qanday bo'lishiga ham bog'liq. Shunga ko'ra bir kishining ovozi boshqa kishining ovozidan farq qiladi.

Murakkab tovush tebranishining chastotasi bilan boshqa akustik vositalarni kelishtirib turuvchi mexanizm akustika fanida *filtr* deb ataladi. Odamning og'iz bo'shliqlari va burun bo'shliqlari birgalikda unlilarni hosil qiluvchi akustik filtni tashkil qiladi.

Fiziologik aspekt. Nutq tovushlari talaffuz organlarining ma'lum harakati bilan hosil bo'ladi. Nutq tovushlari hosil bo'lishda ishtirok etuvchi organga *nutq organlari* deyiladi. Bu organlarning yig'indisi esa nutq apparati sanaladi. Nutq apparati: 1. Nafas olish organlari. 2. Bo'g'izbo'shlig'i. 3. Og'izbo'shlig'i. 4. Burun bo'shlig'i.

Ma'lum bir tilga xos bo'lgan nutq tovushlarini hosil qilishga muvofiqlashgan nutq aparati *artikulyatsion baza* deb ataladi.

Tovush artikulyatsiyasi uch holatda bo'ladi:

1. *Ekskursiya* – tovush hosil qilishga o'tish.
2. *Rekursiya* – tovush chiqarish uchun pauza qilish (to'xtab olish).
3. *Bosh holat* – asli holiga qaytish.

Artikulyatsiyada ikki hodisa juda muhim rol o'ynaydi: artikulyatsiya o'rni va artikulyatsiya usuli.

Tovush hosil qilishda nutq organlarining ishtirok etgan qismi *artikulyatsiya o'rni* deyiladi. Tovush hosil qilish paytida ikki organing bir-biri bilan jipslashishi yoki jipslashmay, oradan havoning o'tib ketishi uchun bo'shliq qolishi *artikulyatsiya usuli* deyiladi.

#### *Tovushlarning funktsional jihati.*

Yuqorida nutq tovushlarining to'rtinchi jihatini fonologik aspekt, deb atagan edik. Fonologiyada tovushlarning funktsional jihatlari o'rganilishi ham ta'kidlangan edi.

Fonemani eslaylik. Fonemaga tegishli barcha artikulyatsion-akustik belgilar uning *fonetik xarakteristikasi* deyiladi. Masalan, *p* fonemasining lab-lab, portlovchi, jarangsiz kabi belgilari uning fonetik xarakteridir.

#### **Nutq tovushlarining uslubiy xususiyatlari**

1) asir, devon kabi so'zlardagi tovushlarning noto'g'ri (asr, divan kabi)

talaffuz qilinishi oqibatida nutqda tushunmovchilik yuzaga keladi.

2) –da, -va, -qa (yoki -q) kabi bo'g'inlardan keyin yana shunday tovushlar bilan boshlanadigan so'zlarni keltirish nutqiy g'alizlikni keltirib chiqaradi:

So'zlarning gapda qo'llanishi va vazifalari.

**Urg'uning uslubiy xususiyatlari** uslubiy mazmun paydo bo'lishiga olib keladi:

Siz ahmoq odam emassiz jumlasida ahmoq so'zidan keyin to'xtam (pauza) qilinsa, fikr qaratilgan shaxsning ham ahmoq, ham odam emasligi ifodalanishi mumkin: Siz ahmoq, odam emassiz.

#### **Mavzuni mustahkamlash uchun test topshiriqlari:**

**1. Uslubiy bo'yoq, ta'sirchanlik mavjud bo'lgan so'zlarni aniqlang.**

*A) qizgina, qizcha, onajon;*

*B) kitobcha, suv, gazetxon;*

*C) bolagina, o'quvchi, qushcha;*

*D) onajon, ko'zim, boshio*

**2. Tilning uslubiy vositalari to'g'ri ko'rsatilgan javobni toping.**

*A) sinonimlar, omonimlar;*

*B) polisemiya, metafora;*

*C) epitet, metonimiya, sinekdoxa;*

*D) barchasito'g'ri.*

**3. Quyidagi sinonimik so'zlarning qaysi biri so'zlashuv uslubiga xos?**

*A) qadrdon;*

*B) ahil;*

*C) totuv;*

*D) qalino*

**4. Quyidagi so'zlarning qaysi biri faqat yozma nutqqa xos?**

*A) ichmoq;*

*B) non ushatmoq;*

*C) ko'tarmoq;*

*D) tortmoq.*

**5. Quyidagi sinonimlardan rasmiy uslubga tegishli so'zni belgilang.**

*A) ketmoq;*

*B) tushmoq;*

*C) olinmoq;*

*D) ozod qilinmoq.*

**6. So'zlashuv uslubida qo'llanadigan so'zlar qatorini aniqlang.**

*A) bashar, mozor, yaxshi, kasal;*

*B) ado etmoq, behuda, yopiq;*

*C) rostdan, bo'ldi, mayli;*

*D) voqea, barvasta, chiroyli.*

7. Quyidagi gaplardan ilmiy uslubga tegishlisini belgilang.

A) *Qani endi, barcha ham senga o'xhasa.*

B) *Mayin shamol daraxt yaproqlarini asta tortqilaydi.*

C) *Mushfiq onaning hasratlari bir dunyo edi.*

D) *Yonishning tashqi belgisi issiqlik va yorug'lik chiqishidir.*

8. Quyidagi sinonim so'zlarning ko'proq so'zlashuv uslubiga tegishlisini belgilang.

A) *rohat;*

B) *huzur;*

C) *mazza;*

D) *lazzat.*

9. Quyidagi rang bildirgan so'zlarda nbadiiy uslubga tegishlisini toping.

A) *ko'k;*

B) *zangor;*

C) *moviy;*

D) *havo rang.*

10. Rasmiy uslubga xos xususiyatni belgilang.

A) *Ko'p ma'noli so'zlar ishlatiladi.*

B) *Terminlar qo'llanadi;*

C) *Ibora va jumlar ma'lum qolipda bo'ladi;*

D) *shevaga xos so'zlar faol qo'llanadi.*

**Mavzu yuzasidan nazorat savollari:**

**17-MAVZU: LEKSIK USLUBIYAT: KASBIY SOHAGA DOIR  
MATNLAR TANLANIB, LEKSIK VOSITALARNING USLUBIY  
XUSUSIYATLARI USTIDA AMALLAR BAJARILADI**

**REJA:**

1. Omonimlarning uslubiy xususiyatlari.
2. Sinonimlarning uslubiy xususiyatlari.



3. Antonimlarning uslubiy xususiyatlari.
4. Paronimlarning uslubiy xususiyatlari.
5. Turli sabablarga ko'ra qo'llanilishi chegaralangan so'zlarning uslubiyati.

*Tayanch so'z va iboralar: leksika, sinonim, antonim, paronim, leksik uslubiyat, qo'llanilishi chegaralangan so'zlar, tasviriy ifoda, maqol.*

### Nazariy ma'lumot

1. *Omonimlarning uslubiy xususiyatlari.* Nutqda omonimlardan foydalangan holda turli so'z o'yinlari hosil qilinadi:

*Qo'lingdan kelgancha chiqar yaxshi ot.*

*Yaxshilik qil. bolam, yomonlikni ot, Nasihatim yod qilib ol, farzandim,*

*Yolg'iz yursa chang chiqarmas yaxshi ot.*

Bu o'rinda *ot* omonim so'zlari turlicha ma'nolarni ifodalayapti.

Omonim so'zlardan foydalangan holda so'z o'yinlarini yaratish **tajnis** (jinosis) san'ati deyiladi. Badiiy adabiyotda shu badiiy san'at qo'llanib yaratilgan to'rt qator she'r esa **tuyuq** deb ataladi.

2. *Sinonimlarning uslubiy xususiyatlari.* Sinonimlarni qo'llashda hissiy ta'siriy bo'yoq mavjudligi jihatidan farqlanadi: *yuz, aft, bashara, bet, chehra, jamol, ruxsori, diydor* sinonimik qatoridagi *yuz* so'zi ma'nosi betaraf so'z bo'lsa, *bet, aft* so'zlari salbiy bo'yoqqa ega, *bashara* so'zida esa salbiy bo'yoq yanada kuchli, *turq* so'zida *bashara* so'ziga nisbatan ham kuchliroqdir; *chehra* ijobiy bo'yoqqa ega, *jamol* so'zi da bu bo'yoq yanada kuchli. Shuningdek, sinonimlarning ishlatilish doirasi chegaralangan yoki chegaralanmagan bo'lishi mumkin: *keksa, qari, oqsoqol, nuroniy, mo'ysafid* sinonimik qatoridagi *qari* so'zining ishlatilish doirasi keng, qolganlariniki esa chegaralangan. Sinonimlarni o'rinsiz ishlatish oqibatida turli uslubiy xatolar kelib chiqadi: *Buldozer ko'chamizda yiqilay deb turgan devorlarni bir chekkaga surib yo'l ochar edi* gapida *yiqilay* so'zi noo'rin qo'llangan, chunki bu so'z odamlarga nisbatan ishlatiladi; bu gapda devorga nisbatan *qulamoq* so'zi ishlatilishi kerak edi.

**3. Antonimlarning uslubiy xususiyatlari.** Antonimlardan to'g'ri foydalana olmaslik ham uslubiy xatoliklarni keltirib chiqaradi: *Choyxona mudiri Yusufjon Nozimov turmushning issiq-chuchugini totigan kishiga o'xshaydi.* Bu gapdagi *issiq-chuchugini* juftligi o'rnida *uchchiq-chuchugini* juftligi ishlatilishi kerak edi.

Antonimlardan foydalangan holda yaratiladigan badiiy san'at **tazod (antiteza)** deb ataladi.

**4. Paronimlarning uslubiy xususiyatlari.** Paronimlarni to'g'ri qo'llamaslik natijasida ham xatoliklar kelib chiqadi: *Chanoqlardagi lo'ppi ochilgan paxtalar quyoshda yarqirab kumushdek toblanadi.* Bu gapdagi *tovlanadi* so'zi o'rnida *tovlanadi* so'zi ishlatilishi kerak edi.

**5. Turli sabablarga ko'ra qo'llanishi chegaralangan so'zlarning uslubiy xususiyatlari.** Bunday so'zlarga eskirgan va yangi so'zlar, sheva, kasb-hunarga oid so'zlar, atamalar, jargonlar kiradi. Nutqda bu kabi so'zlar ham muhim uslubiy vazifalarni bajaradi.

Arxaizmlardan badiiy yoki ommabop asarlarda nutqqa kinoya, hajv ruhini kiritish uchun foydalanilsa, tarixiy so'zlardan o'tmish voqeligini ifodalash maqsadida foydalaniladi. Sheva so'zlari mahalliy ruhni ifodalashda ishlatilsa, atamalar ilmiy va badiiy asarlarda fan-texnikaga oid tushunchalarni ifodalash uchun ishlatiladi, jargonlar esa ma'lum toifaga mansub kishilar nutqini berish uchun zarurdir. Albatta, bu guruh so'zlardan foydalanganda, chegaradan chiqmaslik lozim, aks holda nutqda g'alizlik paydo bo'ladi:

*1. Terilgan paxtani tashib turish uchun ko'tarimchi ajratildi.*

*2. Buning ustiga tokarlik stanogining rezsoderjateli o'rniga maxsus moslama tayyorlanib unga grebenlarni tozalovchi frez o'rnatildi.* Birinchi gapda *ko'tarimchi* degan o'rinsiz yasalgan yangi so'z ishlatilgan bo'lsa, ikkinchi gapda atamalar me'yordan ortiq ishlatilgan.

Nutqda ibora, tasviriy ifoda va maqollar ham ma'lum uslubiy vazifa bajaradi. Iboralardagi omonimlik, sinonimlik, antonimlik xususiyatlari, tasviriy ifodalardagi balandparvozlilik, maqollardagi mazmuniy ixchamlik kata

uslubiy imkoniyatlar yaratadi: *Bir yoqalun bosh chiqarmoq* iborasi badiiy nutqqa mansub bo'lsa, *birjon, bir tan bo'lmoq* iborasi umumnutqqa xosdir. Yozuvchiva shoirlerimiz ham ibora va maqollar ijod qilishadi: *O'likning yog'ini, tirikning tirmog'ini yeydi bu* (Abdulla Qahhor) *O'qsiz soldat – qilichsiz qin.*(Oybek)

**6.Mubolag`a** (yoki *giperbola*) uslubiy vosita bo'lib, ifodalangan tushunchaning ko'pirtirib, orttirilib tasvirlanishidir. Mubolag`a xalq dostonlarida, ertaklarda, aytishuv va loflarda faol ishlatiladi: *To`qson molning terisidan kavushi...* ("Alpomish" dostonidan)

**7.Sifatlash** (yoki *epitet*) narsa, shaxs, hodisalarning belgisini ifodalash vositasidir. Bu vazifada tilimizdagi belgi bildiruvchi so'z turkumlari asosan, sifatlar)qo'llanadi: *Zolim jallod,bilmaganim bildirgin...* ("Kuntug'mish" dostonidan)

#### **Mavzu yuzasidan nazorat savollari:**

1. Uslub nima?
2. Nutqning qanday uslublarini bilasiz?
3. Nutqning qaysi uslubi nisbatan erkin?
4. Omonimlar qanday so'zlar?
5. Sinonimlar qanday so'zlar? Misollar keltiring.
6. Paronimlar deb qanday so'zlarga aytiladi?
7. Antonimlarga ta'rif bering.
8. Sinonim so'zlarning amaliy ahamiyati qanday?
9. Ko'p ma'nolari so'zlar bilan omonimlarni qanday farqi bor?

#### **18-MAVZU:MORFOLOGIK USLUBIYAT: KASBIY SOHAGA DOIR MATNLAR TANLANIB, MORFOLOGIK BIRLIKLARNING USLUBIY XUSUSIYATLARI USTIDA AMALLAR BAJARILADI**

##### **REJA:**

1. Ot so'z turkumiga xos uslubiy xususiyatlar.

2. Sifat soʻz turkumiga xos uslubiy xususiyatlar.
3. Olmosh soʻz turkumiga xos uslubiy xususiyatlar.
4. Feʼl soʻz turkumiga xos uslubiy xususiyatlar.

*Tayanch soʻz va iboralar: morfologiya, ot soʻz turkumi, turlanish, egalik shakllari, kelishik shakllari, sifat soʻz turkumi, sinonimlik hodisasi, shaxs-son shakllari, mayl, nisbat.*

**Topshiriq:** birinchi qismga otlarning turlanishiga 10 ta misol yozing, ikkinchi qismga feʼlning tuslanishiga 10 ta misol yozing

<i>Turlangan soʻzlar</i>	<i>Tuslangan soʻzlar</i>

**Nazariy maʼlumot:**

**Ot soʻz turkumiga xos uslubiy xususiyatlar**

**1. Kelishik qoʻshimchalarining uslubiy xususiyatlari.**

Kelishik qoʻshimchalar ioʻzaro almashib qoʻllanishi mumkin:

- 1) *-ni* va *-dan* qoʻshimchalari almashib qoʻllanishi mumkin: *Qani, oshdan (ni) oling, mehmon.*
- 2) *-ni* va *-ga* qoʻshimchalari almashib qoʻllanishi mumkin: *Gapingizga (gapingizni) tushunmadim.*
- 3) *-ni* va *-da* qoʻshimchalari almashib qoʻllanishi mumkin: *Dalani (da) aylandim.*
- 4) *-ning* va *-dan* qoʻshimchalari almashib qoʻllanishi mumkin: *kelganlarning biri – kelganlardan biri.*

5) kelishik qo'shimchalari va ko'makchilar almashib qo'llanadi:

a) *-ga* qo'shimchasi o'rinda *uchun* ko'makchisi qo'llanadi: *Ukamga oldim - Ukamuchun oldim.*

b) *-da* qo'shimchasi o'rinda *bilan* ko'makchisi qo'llanadi: *Xatni qalamda yozdi - Xatniqalambilan yozdi.*

v) *-dan* qo'shimchasi o'rinda *orqali* ko'makchisi qo'llanadi: *Xabarni radiodan eshitdik - Xabarni radio orqali eshitdik.*

g) *-ni* qo'shimchasi o'rinda *haqida* ko'makchisi qo'llanadi: *Akasi kelganini gapirdi - Akasikelgani haqida gapirdi.*

## 2. Egallik qo'shimchalarining uslubiy xususiyatlari.

1) otlarda qo'llangan egallik qo'shimchasi qaratqich kelishigi qo'shimchasining mavjudligini, qaratqich kelishigi qo'shimchasi esa egallik qo'shimchasining mavjudligini ko'rsatib turadi: *maktab hovlisi, bizning maktab.*

2) egallik (qarashlilikma'nosi) *-niki* qo'shimchasi yordamida ham ifodalanishi mumkin, faqat bu qo'shimcha shaxs-sonni ko'rsatmaydi: *Bizning maktab - maktab bizniki.*

3) qaratqichli birikmalarda shaxs almashib qo'llanishi ham mumkin: *Mening uyim shu yerda - Kaminaning uyishu yerda.*

3. *Ot yasovchi qo'shimchalarning uslubiy xususiyatlari.* Bu qo'shimchalar orasida o'zaro sinonim bo'lgan qo'shimchalar ham uchraydi: *adabiyotshunos - adabiyotchi, mehnatkash - mehnatchi.*

## 2. Sifat turkumiga xos uslubiy xususiyatlar:

1. Sifatlardagi qiyosiy darajani yasovchi *-roq* qo'shimchasi o'rinda *-mtir, -imtil, -ish* qo'shimchalari qo'llanishi mumkin: *ko'kroq - ko'kish, qoraroq - qoramtir.*

2. Sifat yasovchi qo'shimchalar orasida sinonimlik hodisasi ko'plab uchraydi: *aybdor - aybli, serg'ayrat - g'ayratli, chopqir - chopag'on, beg'ubor - g'uborsiz, bama'ni - ma'nili.*

3. Bu qo'shimchalar orasida antonimlik hodisasi ham uchraydi: *suvli - suvsiz*.

### 3. Olmoshturkumigaxosuslubiyxususiyatlar

1. *U, bu, shu* olmoshlari o'rnida *bir* so'zi (yoki *birxil* so'zlari) qo'llanadi: *Bir (shunday) chamanki, atrofida bulbullar giryon. Bir xil (shunday) odamlar tushunmaydi.*

2. *Men* olmoshi o'rnida *kamina* so'zi, *siz* o'rnida *o'zlari* so'zi qo'llanadi: *Bu ishda kaminaning zarracha tajribasi yo'q. Siz va'da bergan edingiz - O'zlari va'da bergan edilar.*

3. Ilmiy ishlarda, rasmiy hujjatlarda, yig'ilishlarda *men* olmoshining o'rnida *bi* olmoshi ishlatiladi: *Bizning (mening) bu ilmiy ishimizda ko'rsatish olmoshlarining xususiyatlari haqida so'z yuritiladi.*

4. Hurmatni ifodalash uchun *sen* olmoshi o'rnida *siz* olmoshi ishlatiladi. *Siz bugun kelasizmi?* Aksincha hurmatsizlikni ifodalash uchun esa *sen* olmoshiga ko'plik qo'shimchasi qo'shiladi: *Senlar buni tushunmaysanlar.*

5. Ko'rsatish olmoshlari ta'kidlash, ajratish ma'nolarini ifodalaydi: *Kitob - bu dono maslahatchi.*

### 4. Fe'llarga xos uslubiy xususiyatlar

#### 1. Shaxs-son qo'shimchalarining sinonimiyasi:

1) fe'lning 2-shaxs birlik qo'shimchasi o'rnida 2-shaxs ko'plik qo'shimchasi qo'llanadi: *Amaki, ertaga kelasizmi?*

2) fe'lning 1-shaxs birlik qo'shimchasi o'rnida 2-shaxs birlik qo'shimchasi ishlatiladi: *Tabiatning ishlariga hayron qolasan kishi.*

3) 2-shaxs ko'plik o'rnida 1-shaxs ko'plik qo'shimchasi qo'llanadi: *Bolalar, bugun diktant yozamiz.*

4) 2-shaxs ko'plik o'rnida 3-shaxs birlik qo'shimchasi ishlatiladi: *U norozi ohangda dedi: - Shunaqa ish bilan hazillashib bo'ladimi?*

#### 2. Zamonqo'shimchalarining sinonimiyasi:

1) hozirgi zamon davom fe'li o'rni da hozirgi-kelasi zamon shakli qo'llanadi:

*Butum qishloq ular haqida gaplashishadi (gaplashishyapti).*

2) kelasi zamon o'rni da hozirgi zamon shakli qo'llanadi: *Ertaga teringga tushyapmiz.*

3) hozirgi zamon o'rni da o'tgan zamon shakli keladi: *Qarasam, yugurib kelayotibdi.*

### 3. Mayl qo'shimchalari sinonimiyasi:

1) ijro maylidagi fe'l buyruq mayli o'rni da keladi: *Qani, kerdik, bolalar.*

2) ijro mayli shart mayli o'rni da keladi: *Kelaman dedingmi, kelish kerak.*

### 4. Nisbat qo'shimchalari sinonimiyasi:

1) birgalik nisbati qo'shimchasi ko'plik qo'shimchasiga sinonimdir: *Ular kelishdi – Ular keldilar.*

2) nisbat qo'shimchalari ichida o'zaro sinonimlikni hosil qiladiganlari ham bor: *-l, il, -n, -in, -sh, -ish: -t, -tir, -dir, -ir, -giz: -ki, -ka, -qiz, -qa.*

### 5. Fe'l yasovchi qo'shimchalar sinonimiyasi:

1) ba'zi yasama fe'llar iboralarga sinonim bo'ladi: *gulladi – gulag kirdi.*

2) qo'shimcha yordamida yasalgan fe'llar qo'shma fe'llarga sinonim bo'ladi: *himoyaladi – himoya qildi.*

3) fe'l yasovchilar o'zaro sinonim bo'ladi: *sizlamoq – sizsiramog, suvsamog – suvsiramog.*

**Topshiriq:** matnni morfologik tahlil qiling. Yozilish uslubining o'ziga xosliklari haqida gapiring.

Bir kuni hayvonot bog'ida fillar yonidan o'tayotib g'alati bir manzaraga ko'zim tushib qoldi. Bahaybat, ulkan fillar old oyog'idan nozik arqonlar bilan boylab qo'yilgan edi. Na zanjir bor, na qafas. Fillar bu arqonlarni bir siltanishda bemalol uzibketishi mumkin edi. Lekin negadir ular bunga harakat ham qilmas, jimgina turardi.

Men hayvon o'rgatuvchining oldiga bordim va nima sababdan bunday ulkan jonivorlar qimir etmay turgani, bo'shalishga urinmayotganini so'radim. U: "Fillar

Juda yosh paytida ularni xuddi shunday nozik arqonlar bilan boylab qo'ygandik. Ular mana hozir katta bo'ldi, lekin arqonlarni o'zgartirganimiz yo'q. Chunki fillar arqonlarni uzib ketib bo'lmastligiga ishonadi va qutulishga harakat ham qilmaydi", deb javobberdi.

Nihoyat darajada hayratlanarli holat. Bu jonivorlar istagan paytlarida arqonlarni parcha-parcha qilishlari mumkin edi. Biroq bunday qilolmashklariga ishonganlari sababli shu hollarida umrlarining oxiriga qadar qimirlamay tursalark erak.

Bu fillar bizga ajabtovur tuyulyapti. Lekin ular tushgan kabi holatlarga biz tushmaganmizmi? Qachondir uringan va eplolmagan ishimizdan yurak oldiri bgo'yib. unga umuman qo'l urmaslikka qaror qilmaganmizmi?

#### **Mavzu yuzasidan nazorat savollari:**

1. *Morfologiya bo'lim inimalarni o'rganadi?*
2. *So'z turkumlari qanday turlarga bo'linadi?*
3. *Ot so'z turkumiga ta'rif bering.*
4. *Sifat so'z turkumi deb nimaga aytiladi?*
5. *Sifatlarnin gbelgi bildirish darajalarini sanang.*
6. *Olmosh so'z turkumiga ta'rif bering.*
7. *Olmoshning ma'no turlari qaysilar?*
8. *Olmoshlar so'z yasovchi qo'shimchalar bilan yasaladimi?*
9. *Fe'l mayllarini sanabbering.*

### **19-MAVZU: SINTAKTIKTIK USLUBIYAT: KASBIY SOHAGA DOIR MATNLAR TANLANIB, SINTAKTIK VOSITALARNING USLUBIY XUSUSIYATLARI USTIDA AMALLAR BAJARILADI**

#### **REJA:**

1. Gap bo'laklarining uslubiy xususiyatlari.
2. Ayrim gap turlari o'rtasidagi sinonimiya.
3. Qo'shma gaplarning uslubiy xususiyatlari.
4. Ko'chirma va o'zlashtirma gaplarning uslubiy xususiyatlari.



## 5. Test topshiriqlari bilan ishlash.

*Tayanch soʻz va iboralar: sintaksis, gap boʻlamlari, bosh boʻlamlar, ikkinchi darajali boʻlamlar, atov gap, soʻz gap, egasiz gaplar, qoʻshma gaplar, koʻchirma gap, oʻzlashtirma gap*

### Mavzu yuzasidan nazorat savollari:

1. Tilshunoslikning sintaksis boʻlimi nimalarni oʻrganadi.
2. Gap boʻlamlari nechta turga boʻlinadi?
3. Murakkab kesimlar qanday tuziladi?
4. Qoʻshma gaplar deb nimaga aytiladi?
5. Sinonimlarning amaliy ahamiyati nimada?
6. Koʻchirma gap tuzib, oʻzlashtirma gapga aylantiring.

### Topshiriq:

“Hujjatlarning hayotimizdagi oʻmi” mavzusida matn tuzing. Matnni tahlil qiling.

### Nazariy maʼlumot:

#### 1. Gap boʻlamlarining uslubiy xususiyatlari

1) **sifatlovchi aniqlovchilar** ot bilan ifodalansa, majoziy maʼno ifodalaydigan boʻlib qoladi: *Kumush choyshab yopib dalalar, qor qoʻynida uxlab yotadi.* (Uygʻun)

2) **sifatlovchi aniqlovchilar** turli soʻz turkumlaridan tuzilib, sifatlash vazifasini bajargan ibora va soʻz birikmalari bilan ifodalanadi: *Osmon oʻpar togʻlar, bagʻri keng inson, cheki yoʻq qirlar, fikri tiniq insonlar.*

3) **sifatlovchi-aniqlovchi** takroriy soʻzlar bilan ifodalanganda maʼno kuchayishi yuz beradi: *Baland-baland binolar tez uchray boshladi.*

4) **izohlovchi** ham uslubiy vazifa bajaradi. Maʼlumki, izohlovchi laqab, qarindoshlik, oʻxshatish kabi maʼnolarni ifodalash uchun xizmat qiladi. Bunda maʼlum shaxsga nisbatan munosabat seziladi, yaʼni uslubiy maʼno yuzaga keladi: *Mamajon quruq, Ali tajang, Soli sovuq* va hokazo. Oʻxshashlik maʼnosidagi

izohlovchi jumlagi ko'tarinkilik(pafos) xususiyatini kiritadi: *ona-Vatan, gulchalar-qizchalar*.

5) **ajratilgan bo'laklar** jumla tarkibidagi ayrim bo'laklarga urg'u berish, ularni alohida ajratib ko'rsatish, shaxs va narsa haqida qo'shimcha ma'lumot berish, belgi-xususiyatlarni ta'kidlash kabi vazifalarni bajaradi: *Biz, yoshlar, ota-bobolarimiz merosini ko'z qorachig'iday asrashimiz lozim*.

6) **undalmalar** ham turli uslubiy vazifalarni bajaradi. Ular gap boshida va o'rtasida kelsa, chaqiriq va murojaatni ifodalaydi: *Uka, mening yo'qligimni bilintirma*. Gap oxirida kelgan undalma tinglovchiga nisbatan hurmat, muhabbatni ifodalaydi: *Tuproq'ingni zar bilarman, ona-Vatanim!* Bulardan tashqari undalmalar iltimosni, so'zlovchining his-tuyg'usini, kuchli ehtirosini, ko'tarinki holatni, piching va kinoyani ifodalash uchun ham xizmat qiladi.

7) **kirish so'z va kirish birikmalar** so'zlovchining o'z fikriga bo'lgan munosabatini bildiradi. Bu munosabat sifat, son, olmosh, fe'l va modal so'zlar yordamida ifodalanib, gumon, tasdiq, inkor, fikr tartibi, fikr izohi, e'tiborni tortish, xulosa, ikki fikrni o'zaro bog'lash kabi ma'nolarni aks ettiradi: *U bugun kelmaydi, shekilli*.

## 2. Ayrim gap turlari o'rtasidagi sinonimiya

1) ayni bir fikr gapning har xil turlari bilan ifodalanadi:

a) sodda gap bilan: *Har kim ekkanini o'radi*. b) qo'shma gap bilan: *Kim nimani eksa, shuni o'radi*.

2) bir bosh bo'lakli va ikki bosh bo'lakli gaplar o'zaro sinonim bo'ladi: *Bugun ketamiz – Biz bugun ketamiz*.

3) darak va so'roq gap sinonim bo'ladi: *Vatanni kim sevmaydi – Vatanni hamma sevadi*.

## 3. Qo'shma gaplarning uslubiy xususiyatlari

1) bog'langan qo'shma gaplar tarkibida biriktiruv va zidlov bog'lovchilari o'rnida *-u, -yu, -da* yuklamalari sinonim holatda qo'llanishi mumkin: *Havo bulutlashdi va yomg'ir yog'a boshladi*. *Havo bulutlashdi-yu, yomg'ir yog'a boshladi*.

2) ega, kesim, to'ldiruvchi, aniqlovchi ergash gapli qo'shma gaplar soddagaplarga sinonim bo'ladi: *Shunisi aniqki, biz bugun yo'lga chiqa olmaymiz - Bizning bugun yo'lga chiqa olmasligimiz aniq.*

3) sabab, maqsad, o'xshatish ergash gaplarning kesimlari sifat-dosh, harakat nomi, ot bilan ifodalansa, sodda gaplarga sinonim bo'ladi: *Tog' etagi juda go'zal edi, go'yo chiroyli gilam to'shalganday - Chiroyli gilam to'shalganday tog' etagi juda go'zal edi.*

4) payt, sabab, shart, to'siqsiz, natija, ravish ergash gaplarni o'z doirasida sinonimlari bilan almashtirish mumkin:

*U kelsa (kelgan paytda, kelar ekan), hamma ketib bo'libdi.*

5) bog'lovchisiz qo'shma gaplar bog'langan va ergashgan qo'shma gaplarga sinonim bo'ladi: *Qor yog'di - don yog'di (Qor yog'sa, don yog'adi. Qor yog'di-yu, don yog'di).*

#### **4. Ko'chirma va o'zlashtirma gaplarning uslubiy xususiyatlari**

Birovlarning hech o'zgarishsiz berilgan gapi (ko'chirma gap) o'zgalarning mazmuni saqlanib, shakli o'zgartirilgan holda berilgan gapi (o'zga gap) bilan sinonimik holatda bo'ladi: *O'qituvchimiz dedi: "Topshiriqlarni o'z vaqtida bajarang" - O'qituvchimiz topshiriqlarni o'z vaqtida bajarish lozimligi haqida gapirdi.*

Ko'chirma gap o'zlashtirma gapga aylantirilganda quyidagi o'zgarishlar yuz beradi:

1. Ko'chirma gap birikmali to'ldiruvchiga aylanadi: *"Hamma yig'ildi", - dedi navbatchi. Navbatchi hammaning yig'ilganini aytdi.*

2. Ko'chirma gap tarkibidagi undalma vositali to'ldiruvchiga aylanadi: *"Rasulbek, biz bilan yuring", - deb taklif qildi do'sti. Rasulbekka do'sti o'zlari bilan yurishni taklif qildi.*

3. Ko'chirma gap tarkibida kirish so'z vazifasida kelgan undovlar, taqlid so'zlar tushiriladi: *"Voy, qo'rqib ketyapman", - dedi xotini. Xotini qo'rqib ketayotganini aytdi.*

## 20-MAVZU: SOHA BO'YICHA BELGILANGAN MAVZU ASOSIDA ILMIY TADQIQOT OLIB BORISH JARAYONLARI

### REJA:

1. Maqola matni talablari (Maqola va uning turlari).
2. Tezis matni talablari
3. Taqriz matni talablari
4. Annotatsiya matni talablari
5. Rezyume matni talablari.

### Esse va uning tuzilishi.

Esse erkin kompozitsiyali uncha katta bo'lmagan nasriy asardir.

Esse falsafiy, tarixiy biografik, publitsistik, adabiy tanqidiy, ilmiy ommabop va sof beleristik xarakterda bo'ladi. Esse uslubi obrazlilik, ofaristikligi, jonli tilga yaqinligi bilan ajralib turadi. Mazmuni muayyan sabab yoki masalaga oid tugal tafsilotni yoki aniqlikni talab qilmaydigan individual taassurot va mulohazalardan iborat bo'ladi.

Mustaqil janr sifatida A.Montel ijodida tarkib topgan. Bu janr G'arbda oldinroq ishlatilgan bo'lsa-da, o'zbek adabiyotida XX asrning 70-80-yillaridan esse yaratila boshlandi.

### Esse haqida

Esse – fransuz tilida “essai” – “tajriba”, ingliz tilida “essay”, “assay” – intilish, ijodiy sinov, ocherk; lotincha “exagium” – “o'ylash” degan ma'noni bildiradi.

Esse – aniq mavzu yuzasidan shaxsiy fikr-mulohazalar asosida yoziladigan ixcham ijodiy ish hisoblanadi.

### Essening tuzilishi

#### Kirish

Kirish – mavzuni mantiqiy va uslubiy jihatdan bog'lab oydinlashtirish. Bu bosqichda qalamga olingan mavzuni yoritish uchun savolni to'g'ri qo'yish muhim.

Tezis qo'yish essening eng muhim shartlaridan biridir. Tezis essening kaliti. Kaliti topilmasa, essening asosiy maqsadiga yetish qiyin. Tezis muallifning shaxsiy nuqtayi nazarini bildirib, u asosiy qismda isbotlanadigan fikrni yo'naltiruvchi g'oya hisoblanadi. Tezis essening kirish qismida yoziladi.

### Asosiy qism

Asosiy bo'lim – mavzuning nazariy asosi va savolning mazmunini bayon etuvchi bo'lim. Bunda mavzuga mos barcha bilimlar, asosiy fikr va muammoga bog'liq dalil va faktlar jamlangan bo'lib, unda dalillar, xabarlar, turli statistik ma'lumotlardan foydalanib, mavzu yoritiladi, ko'tarilgan muammoning kelib chiqish sabablari oydinlashtiriladi.

Dalillar – o'quvchi tomonidan aytilgan fikrni isbotlash uchun keltiriladigan ko'chirma (maqol, sitata, hikmatli so'z, rivoyat, she'riy parchalar va hokazo). Qo'yilgan tezisga kamida ikkitadan dalillar keltirilishi kerak.

Asosiy qismni yoritish uchun kerakli ma'lumotlarni keltirish jarayonida qo'yilayotgan masalaga o'quvchining shaxsiy munosabatini bildiruvchi, shuning bilan birga, *menimcha, mening fikrimcha, birinchidan, ikkinchidan, shu kabi, demak, biroq, unday bo'lsa* kabi kirish so'zlardan foydalanish o'rinni bo'ladi.

### Xulosa

Xulosa – mavzu bo'yicha chiqariladigan yakuniy jumlar bo'lib, unda yangi fikr-mulohazalar bildirilmaydi, balki dalillarga suyangan holda yakun chiqarilib, uni yechish yo'llari ko'rsatiladi. Essening yakuniy qismida asosiy qismda berilgan muammoning yechimi tasdiqlanadi va mazmunning mohiyati ochiladi, ya'ni «Esse boshida ko'tarilgan masala bo'yicha nima deyish mumkin?» degan savolga aniq va tushunarli javob tarzida yozilishi kerak. Xulosa qismida quyidagi kirish so'zlardan foydalaniladi: *men shunday xulosaga keldimki.., qisqasi, asosiy fikrim shuki.., xulosa qilib aytganda...* va boshqalar.

Esse yozish jarayonida quyidagilarga e'tibor berish kerak:

1. Kirish va yakuniy qismdagi fikr asosiy masalaga uzviy bog'liq bo'ladi. Masalan, kirish qismida *"Men... haqida shuni aytmoqchiman"* deb boshlansa, yakuniy qismda *"Men ...xulosaga keldim"* kabi tugallanadi.

2. Esse yozishda his-hayajonli/ta'sirchan va badiiy bo'yoqdor so'zlardan foydalaniladi.

3. Esse ko'lamiga e'tibor berish. (200-250 ta so'zdan iborat bo'ladi. Kirish – 60-70 ta so'z, asosiy qism – 100-130 ta so'z, xulosa – 30-40 ta so'z)

4. Esseda birgina mavzu atrofida fikr yuritiladi. Unda birgina fikr o'rta tashlanadi va rivojlantiriladi. Uning bir necha mavzu va bir qancha g'oyasi bo'lishi maqsadga muvofiq emas.

5. Esse erkin kompozitsiya asosida yoziladi. Yaxshi esseni mavzuni yaxshi tushungan, uni har tomonlama idrok eta olgan, o'z g'oyalari bilan o'quvchini o'ylanishga majbur eta oladigan odamgina yoza oladi.

6. Esse yozishda bir qolipdagi so'zlardan foydalanish, so'zlarni qisqartirish, yuzaki xulosa chiqarishdan xoli bo'lish kerak. Esse tili salmoqlikni talab qiladi. Bunda esse mavzusini oydinlashtirish, hajmini va maqsadni aniq belgilab olish muhimdir.

7. Esseda badiiy to'qima va fantaziya bo'lmaydi. Unda adabiy til uslublaridan to'g'ri va o'rinli foydalaniladi.

8. Esse ixcham hajmli bo'lgani bois, fikr-mulohaza bildirishda batafsil hikoyalashdan cheklanish, keltirilgan ma'lumotni ipidan ignasigacha bayon etishdan saqlanish, bir aytilgan fikrni yana qayta takrorlashga yo'l qo'ymaslik kerak. Uzundan uzoq, aralash turdagi qo'shma gaplar o'rniga qisqa va ixcham ifoda usulini qo'llagan ma'qul.

9. Esse xatboshilarga to'g'ri ajratilishi kerak. Esseni yozib bo'lgach, uni qayta-qayta o'qib chiqish tavsiya etiladi.


10. Ensiklopediya va turli manbalardan olingan ma'lumotlar o'z o'rnida qo'llanilishi kerak. Aks holda, essening badiiyligi va ta'sirchanligiga putur yetadi.

Esse yozishda quyidagi talablarga qat'iy rioya qilinadi:

- shaxsiy munosabatning bildirilishi;
- tezis – kalit so'zni to'g'ri aniqlash;
- faktli dalillar (argumentlar);
- nazariyaga asoslanish;

- atamalami o'z o'rnida qo'llash;
- sitatalar keltirish;
- mantiqiy qonuniyatning saqlanishi;
- taqqoslash va xulosalash usullaridan foydalanish;
- savodlilik (uslubiy, imlo, tinish belgilari);
- yumor, o'tkir hajv;
- foydalanilgan ilmiy manbalarga havolalar.

Umuman, esse ilmiy yoki publitsistik xarakterdagi ocherkka o'xshashdir.



Talabalarning faqatgina umumiy tushunchalar bilan tanish ekanligi yetarli emas. Talabalar har qanday mavzudagi qarama-qarshi fikrlar va qarashlarni o'zlashtirishlari, ya'ni ularni tahlil va kerak bo'lsa tanqid qilib ham o'rganishlari talab qilinadi.

Muhokama va bahs olib borish usullari va ilmiy tarzda o'z xulosalaringizni taqdim etish yo'llari muhim ahamiyatga ega.

**Esse yozish uchun mavzular:**

1. Men jamiyatga kerakmanmi?
2. Agar meni tanqid qilishsa...
3. Mening bir ish kunim.

Har yili millionlab talabalar chet mamlakatlarda o'qishni tanlashadi. Buning sezilarli (a) \_\_\_\_\_ bo'lishi mumkin, qaysiki boshqa bir madaniyat bilan tanish bo'lish imkoniyatidek, ammo vatanni qo'msash, yakkalanib qolish kabi muayyan (b) \_\_\_\_\_ ham qamrab oladi. Boshqa bir (c) \_\_\_\_\_ tomoni yashash harajatlari va u yerdagi narxlarning balandligi bo'lishi mumkin.

**Tashkil etish.** Muhokama ikki xil yoʻlda tashkil etilishi mumkin.

Birinchisi - vertikal usul, bunda afzalliklar va kamchiliklar alohida koʻrib chiqiladi.

Ikkinchisi - gorizantal, bu usulda esa mavzu turli nuqtai nazardan yoritiladi.

**Vertikal Salbiy tomoni:** *Qamoqxonalar qimmat, ularni "jinoyat universitetlari" deb atash mumkin, koʻp mahbuslar qamoqxonani tark etgandan soʻng ham yana jinoyatga qoʻl urishadi. aksar mahbuslar tuzatib boʻlmaydigan maʼnaviy kasallikka chalinishadi.*

**Foydali tomoni:** *Qamoqxonalar xavfli jinoyatchilarni jamiyatdan butunlay ayirib qoʻyishadi, jinoiy harakatlarni oldini oladi, jinoyatni ja zosiz qoldirmaydi.*

**Muhokama:** *Mamlakatlarda jinoyatchilar soni oshib bormoqda, ammo qamoqxonalar doimo jamiyatda ularga qarshi kurashuvchi kuch boʻlib xizmat qiladi.*

**Gorizantal iqtisodiy:** *Jinoyatchilarini saqlash xarajatlarini taʼminlaydi. Boshqacha jazo turlari bilan taqqoslang.*

**Axloqiy:** *Qamoqlar jinoyatchilarni oʻzgartirib yuboradimi? Mahbuslarning qanday huquqlari boʻlishi kerak deb oʻylaysiz? Nohaq qamashga nima sabab boʻladi?*

**Ijtimoiy:** *Qamalishning mahbus oilasiga taʼsiri, ayniqsa u farzandli ayol boʻlsa. Qolaversa, begunoh qurbonlarning erta oʻlimi-chi?*

**Muhokama:** *Mamlakatlarda jinoyatchilar soni oshib bormoqda, ammo qamoqxonalar doimo jamiyatda ularga qarshi kurashuvchi kuch boʻlib xizmat qiladi.*

Qaysi shakl afzalroq ekan, sizningcha quyidagi (vertikalni, gorizontalmi)? mavzuda esse yozishingiz talab etiladi:

Jadvalga fikrlaringizni yozib qoʻying (ijobiy va salbiy xususiyatlarini ajratgan holda). Soʻng esa vertikal yoki gorizantal strukturalardan birini belgilab oling. Masalan, quyidagi esse mavzusi koʻrsatilganidek ikki xil uslubda muhokama qilinishi mumkin: qamoqxonalarning jinoyatchilardan foydalanishi checklanishi kerak. Muhokama qilinadi.



**Maqola va uning turlari** - bosh maqola (yoki tahririyat tomonidan yoziladigan maqola) tahririyatning eng mas'uliyatli maqolasi hisoblanadi. Ushbu maqolada ichki va xalqaro hayotga doir muhim masalalarni o'quvchilarga yetkazish - asosiy vazifa hisoblanadi. Bunday maqola ma'lum bir masala yuzasidan yo'l-yo'riq ko'rsatishi, kamchiliklarni ochib tashlashi, har bir ishning asosiy haqiqiy yo'lini belgilab berishi lozim. Prezident farmonlari, Oliy Majlis qonunlari, Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilinadigan davlat va hukumat hujjatlari, qarorlari, qonunlari davming dolzarb masalalari bosh maqolada yoritiladi.

#### ***Nazariyma'lumot:***

Nazariy maqola va targ'ibot maqolaning asosiy vazifasi mustaqillik, milliy g'oya, istiqloq mafkurasining asoslari va prinsiplarini; ilmiy maqolaning vazifasi fan, madaniyat, texnika yutuqlarini tushuntirish, ommalashtirish, o'quvchining g'oyaviy, ilmiy saviyasini oshirishdan iborat. Muammoli maqolada esa munozara va bahs asosiy o'rinda bo'ladi hamda muallif o'z qarashlarini o'rtaga tashlaydi.

Maqola so'zi keng ma'noda gazeta, jurnal, radio, televideniye, shuningdek, to'plamlardagi ilmiy asarlarga nisbatan ham qo'llaniladi.

**Taqriz** - adabiy tanqid janri bo'lib, arab tilida ijobiy baho degan ma'noni anglatadi. Yangi badiiy, ilmiy yoki ilmiy-ommabop asar tahlili. Taqrizda asarning bibliografik tavsifi, shuningdek, mazmuni, unda ko'tarilgan muammolar, asarning g'oyaviy-badiiy xususiyatlari, muallif ijodida, adabiyotda tutgan o'rni haqida ma'lumot bo'ladi. Asarga baho beriladi, uning asosiy fazilatlar va nuqsonlari qayd qilinadi. O'zbek adabiyotida taqriz XX asr boshlarida vaqti matbuot bilan teng rivojlana boshlagan. Endilikda taqriz o'zbek adabiy tanqidchiligining eng muhim janrlaridan bo'lib qoldi. Oybek, Abdulla Qahhor, Shayxzoda, G'afur G'ulom kabi yozuvchilar, Hoshimov, S.Husayn, Olim Sharafiddinov, V.Zohidov, I.Sultonov, H.Yoqubov, M.Qo'shjonov, Haqqulov va boshqa olimlar o'zbek adabiy hayotida chuqur iz qoldirgan taqrizlar yaratdilar.

Ichki taqriz ham bo'ladi. Masalan, nashriyotga kelgan badiiy, tanqidiy va ilmiy-ommabop asar ichki taqrizga beriladi. Biroq, taqriz matbuotda e'lon qilinmaydi, rus tanqidchiligi tarixida taqrizning rivojida V.G.Belinskiyning roli

katta. U taqrizni haqiqiy san'at darajasiga ko'tardi. Taqriz badiiy asar haqida shunchaki ma'lumot beruvchi janr darajasidan adabiy hayotning muhim masalalarini ko'taruvchi, kitobxonni hayot va adabiyot haqida o'ylashga o'rgatuvchi uning estetik didini tarbiyalashga yordam beruvchi janrga aylanadi. Taqriz xarakteriga ko'ra xilma-xil bo'ladi. Masalan, kengaytirilgan annotatsiya tipidagi taqrizda asar haqida bibliografik ma'lumot beriladi.

Tanqidiy yoki publitsistik maqola taqrizlarida konkret asar munosabati bilan biron muhim masala haqida fikr yuritiladi.

**Tezis** - yunoncha *thesis qoida, isbot* degan ma'noni anglatadi. 1) keng ma'noda - bahsda yoki biror nazariyani bayon qilishda aytilgan har qanday fikr; 2) tor ma'noda - asosiy fikr, prinsip; 3) mantiqda isbot qilishni talab etuvchi fikr, mulohaza; 4) ma'ruza, ma'lumot, xabarning asosiy mazmunini qisqacha aks ettirish.

**Rezyume** - fransuzcha so'z bo'lib, yozilgan, aytilgan yoki o'qilgan narsaning qisqa holatda aks ettirish, qisqacha xulosa, biror narsaning yakuniy natijasi.

#### **Xulosa**

a) o'rganilayotgan tilda muloqot malakasi egallandi.

b) talabalarda o'zbek tilining qoidalari yuzasidan o'rta umumiy ta'limdan olgan bilimlarini mustahkamladik.

## **21-MAVZU: RASMIY-IDORAVIY USLUB VA UNING USLUBIY XUSUSIYATLARI**

### **REJA:**

1. Hujjatchilik tarixi.

2. Hujjatchilik va adabiy til me'yorlari.


3. Hujjat va uning turlari, hujjatlarning zaruriy qismlari.

4. Sohaga oid hujjatlar va ularning rasmiylashtirilishi.

**Rasmiy-idoraviy uslub:** Davlat idoralari tomonidan chiqarilgan qarorlar, qonunlar, nizomlar, xalqaro hujjatlar rasmiy idoraviy uslubda yoziladi. Ariza, tilxat, ma'lumotnoma, chaqiruv qog'ozi, taklifnoma, shartnoma, tarjimai hol, e'lon, tavsifnoma, hisobot kabi hujjatlar ham rasmiy idoraviy uslubda bo'ladi. Bunday uslubdagi hujjatlar qisqa, aniq va barcha uchun tushunarli qilib tuziladi. Rasmiy idoraviy uslubning ham o'ziga xos lug'aviy va grammatik xususiyatlari mavjud; so'zlar o'z ma'nosida qo'llanadi, ko'pchilikka ma'lum bo'lgan ayrim qisqartma so'zlar ishlatiladi, har bir sohaning o'ziga xos atamalaridan foydalaniladi. Masalan: *sud ishida jinoyat, hukm, qonun; maktab ish qog'ozlarida maktab direktori, direktor o'rinbosari, sinf rahbari* kabi so'z va birikmalar ishlatiladi.

Rasmiy idoraviy uslubda ko'pincha darak gaplardan, qaror, buyruq, ko'rsatma kabilardan esa buyruq gaplardan foydalaniladi.

Shuningdek, bu uslubda gap bo'laklari odatdagi tartibda bo'lishiga rioya qilinadi.



Bino va inshootlar qurilishi

fakulteti dekani I. Aliyevga

14-20 guruh talabasi Avazov Ahrorbek

Azizovichdan

## ARIZA

Kasalligim tufayli shu yilning 10-sentyabridan 25-sentyabrigacha dars mashg'ulotlariga qatnasha olmadim. Dars mashg'ulotlarini 26-sentyabrdan davom ettirishimga ruxsat etishingizni so'rayman.

Ilova qilindi: Shahar 1-sonli kasalxonasidan olingan ma'lumotnoma.

2015.25.09. Imzo A.A.Avazov

Toshkent shahri Mirzo Ulug'bek tuman  
IIB boshlig'i O.Muhammadovga Mirzo  
Ulug'bek tumani Buyuk ipak yo'li  
ko'chasi 39-uyda yashovchi Odilbek  
Abdullayevdan

## ARIZA

Meni 2021-yil 12-dekabr kuni Mirzo Ulug'bek tuman IIB tomonidan berilgan fuqarolik pasportimni yo'qotdim. Menga yangi pasport berishingizni so'rayman.

Ilova qilindi: Topilmalar idorasidan ma'lumotnoma.

Tug'ilganlik haqida guvoohnoma.

2021.12.12. Imzo O.Abdullayev

## Topshiriqlar

**1-topshiriq:** Rus tiliga tarjima qiling.

1. Yakka tartibda uy-joy qurush uchun yer uchastkasi ajratishingizni so'rayman.

2. Betobligim sababli darslardan ozod qilishingizni so'rayman. 3. Egallab turgan lavozimdan o'z ixtiyorim bilan ozod qilishingizni so'rayman. 4. O'rindoshlik asosida ishlashimga ruxsat berishingizni so'rayman.

**2-topshiriq:** O'zbek tiliga tarjima qiling.

Прошу выделить пугевку в санаторий-профилакторий университета. 2. Прилагается: болничный лист за №170632. 3. Прошу выдат новый студенческий билет. 4. Прошу принят соответствующие меры.

**3-topshiriq:** O'zbek tiliga tarjima qiling.

1. Мы будем рады видет вас за нашим столом. 2. Нас очси обрадует ваш визит. 3. Приглашаем вас и членов вашей семи... . 4. Приглашаем вас на конференцино посвященную... . 5. Торжества пройдут по адресу....

**4-topshiriq:** Rus tiliga tarjima qiling.

1. Quvonchimizga sherik bo'lasiz degan umiddamiz. 2. Sizni ... yoziladigan dasturxonimiz atrofida ko'rishdan mamnun bo'lar edik. 3. To'y oshi ... da tortiladi. 4. Ilmiy kengash yig'ilishining muddati haqida sizga alohida xabar qilinadi.

**5-topshiriq:** O'zbek tiliga tarjima qiling.

Внес предложение, предложил, возложит на доцента Имамова, объявит выговор, представит на утверждение Научного совета университета, утвердит состав комиссии в следующем порядке, контрол за исполнением возложит на

## **22-MAVZU: NUTQ VA ADABIY ME'YOR**

### **REJA:**

1. Nutq.

2. Nutq bayon qilish usullari.

3. Kasbiy nutq.

4. Mutaxassis nutqining ilmiyligi, to'g'riligi, aniqligi, mantiqiyligi, sofligi.

5. Nutqiy kompetentlik.


6. Me'yor tushunchasi.

7. O'zbek adabiy tili me'yoriy ko'rinishlari.

8. Nutq jarayonida me'yorning buzilishi va ularni tuzatish yo'llari.

9. O'zbek tilining hozirgi me'yoriy holat, uning madaniylik mezonini ekanligi.

Inson nutq yordamida o'zining fikrlari, his-tuyg'ulari, istaklarini bayon etadi va boshqalarning fikrlari, his-tuyg'ulari, istaklarini anglab oladi. Inson nutqi rang-barang. Do'stlarning suhbatini ham, so'zlayotgan kishining chaqirishi ham, san'atkorning sahnadagi monologini ham, o'quvchining sinfdagi javobi ham nutqning bir ko'rinishidir. Sharoitga qarab nutq turli xilda namoyon bo'ladi. U ba'zan istak-tilak, ba'zan chaqiriq- murojaat, ba'zan esa inson quvonchi yoki ruhiy iztirobi shaklida ifodalanadi.



Til va nutq tizimida me'yor o'ziga xos o'ringa ega. Til material sifatida nutq jarayonida xizmat qila boshlagan lahzalardan oq uni me'yorlashtirish jamiyat ehtiyojiga aylangan va me'yoriy muammolar kun tartibiga qo'yilgan.

**Talabalarga dastlab til va nutqni farqlashga jalb etish**

Inson faoliyatida borligini bilish va fikr almashish vositasi vazifasini bajaradi. Til vositasida insoniyat tomonidan jame'arilgan bilimlar nainki qayd etiladi va saqlanadi, balki avloddan avlodga ham yetkaziladi. Til millat ruhining ko'zgusidir. Til nutqni farqlash lozim.

Til so'zlash vositasi, yangi nutq sifatida namoyon bo'lgandagina ma'lum vazifani bajaradi. Nutq til materiallari, unsurlaridan tuziladi va nutqiy faoliyat natijasida nutq yuzaga keladi. Demak, til materiallari nutq faoliyati uchun xizmat qiladi. Til bilan nutqni qiyoslash orqali ularning quyidagi o'ziga xos xususiyatlarini ajratish mumkin:

1. Til aloqa material bo'lsa, nutq alohida shaklidir. Tilni xalq, millat yaratadi, nutqni esa har bir shaxs yaratadi. 3. Til nisbatan turg'un, barqaror bo'lsa, nutq doimo harakatda bo'lib, o'zgaruvchan hodisa sanaladi. 4. Tilning hajmi noaniq, nutqning hajmi esa aniq. U dialog, monolog, matn shaklida bo'lishi mumkin.

Nutq gaplar orqali bildirilgan fikrdir. Nutq alohida-alohida (o'zaro mazmunan bog'lanmagan) gaplardan ham o'zaro mazmunan bog'langan gaplardan ham tuzilgan bo'lishi mumkin. Nutq og'zaki va yozma shaklda bo'ladi. Matn nutqning yozma shaklidir. Matn, odatda, mazmun jihatidan o'zaro bog'langan gaplardan tuziladi. Matnni qismlarga bo'lish, unga sarlavha topish, reja tuzish mumkin.


Til va nutq tizimida me'yor o'ziga xos o'ringa ega. Til material sifatida nutq jarayonida xizmat qila boshlagan lahzalardan uni me'yorlashtirish jamiyat ehtiyojiga aylangan va me'yoriy muammolar kun tartibiga qo'yilgan. Me'yor - jamiyat a'zolari tomonidan qabul qilingan, maqullangan va ularga tushunarli bo'lgan til birliklarining nutq jarayonida qo'llanish holati va imkoniyatidir.

O'qituvchi umumlashtiradi va natijalarni baholaydi.

O'rganish, tahlil qilishga ham ehtiyoj kuchayib borgan va bu muammolarni hal qilishda xalqning maishiy, ma'naviy-marifiy turmushi, ijtimoiy-falsafiy dunyoqarashi, urf-odatlarini singari qator omillar e'tiborga olingan.

Og'zaki nutq tabiatan so'z boyligi jihatidan yozma nutqqa nisbatan ancha kambag'al bo'ladi. Unda bir xil so'zlar, bir xil shakllar bir qadar ko'proq takrorlanadi, bu hol til vositalarini tanlash qiyinchiliklari bilan bog'liqdir.

Og'zaki so'zlovchining faol nutqiy harakati to'xtam (pauza), ohang, urg'u, turli xil imo-ishoralar asosida tinglovchiga etib boradi. Kishilarning nutqiy faoliyati monolog, diolog, polilog ko'rinishida amalga oshadi. Monolog – so'zlovchining o'ziga yoki tinglovchiga qaratilgan nutqidir. Monolog nutqda so'zlovchi o'ziga ma'lum bo'lgan voqea – hodisalar, o'z ichki kechinmalari haqida ma'lumot beradi.



Nutq to'g'ri, aniq va yoqimli bo'lishi lozim. To'g'ri, aniq va yoqimli gapirish uchun mantiqiy izchillikka va adabiy me'yorga rioya qilish kerak.

Til hodisalarini, uning me'yoriy jihatlarini tadqiq etishda yana tilning milliy xususiyatlarini hisobga olmaslik ham aslo mumkin emas.

Anglashiladiki, til me'yorini belgilash muammolarini qilish har bir milliy til madaniyatini rivojlantirishning uzviy qismiga aylanadi. Shuning uchun ham me'yor masalalarining nutq madaniyati doirasida o'rganilishi bejiz emas.

Tildan foydalanishdagi an'anaviy me'yorlarning davrlar o'tishi bilan o'zgarib, yangilanib turishi ham tarixiy jarayondir. Tadqiqotchilarning aytishicha



rasmiy muomalada tildan foydalanish tilning me'yorlashuvini, adabiy tilning shakllanishini tezlashtirgan.

Davlat olib borgan ijtimoiy siyosatning til rivoji va me'yorlashuviga ta'siri katta.

Tilning me'yorlashuviga ta'sir qiluvchi omillar:

Til birliklarini me'yorlashtirish, hamma uchun umumiy bo'lgan bir qolipga keltirish tilshunoslikning muhim vazifasi hisoblanadi. Me'yor masalalari shu sohaning o'rganish obyekti bo'lib qoladi.

Til birliklarining adabiy shaklda me'yorlashuvida badiiy adabiyotning o'ri ham aloohida. Badiiy ijod jarayonida shoir va yozuvchilar o'z fikr va hissiyotlarini boshqa ijodkorlardan farq qiladigan ifodalarda berishga intiladilar. Bu yo'lda ular yangi so'z va iboralar yaratadilar. Bu tilning boyishi va me'yorlashuviga sabab bo'ladi.

#### **Xulosa:**

a) o'rganilayotgan tilda muloqot malakasi egallandi.

b) talabalarda nutq va adabiy me'yor yuzasidan o'rta umumiy ta'limdan olgan bilimlarini mustahkamladik.

#### **Topshiriqlar**

**1-topshiriq:** Matni o'qing, nutq turi va adabiy me'yorning ifodalanishini aniqlang.

Til – so'zlovchi istagini eshituvchiga yetkazuvchi tarjimondir. Xayr–saxovat ham mardlik sanaladi. Ishi yurishmaganni tahqirlama.Yaxshi bilmagan narsasiga uringan kishi sharmanda bo'ladi.

Xato sodir bo'lmasligi uchun donishmandlar qayta - qayta kuzatishm va ziyon yetish imkoniyatidan saqlashni tavsiya qilganlar. Kishining ko'ngli kelishgan va tartibli har bir narsaga qiziqadi, tartibsiz narsadan nafratlanadi. Ne'matning qadri u yo'qolgandan keyingina bilinadi.

**2-topshiriq:** Matni o'qing va qaysi uslubga xosligi va adabiy me'yorning ifodalanishiga ahamiyat bering.

Bilginki, hayotiy maishatingni yaxshilaydigan va ishlarini haqiqiy to'g'ri yo'lga soladigan eng ulug' vosita bu ilmdir. Ilm buyuk qadrga va oliy fazilatga ega. Sen ilm tufayli oliy sharafga, ulug'likka va orzu – istaklarga yetishasan. Ilm kasb va fazilatlarning eng afzali, ilm o'rganuvchi esa shu toifaning ulug'rog'idir.

Ilm orqali yaxshi-yomonni taniysan, halol-haromning farqiga borasan, do'stlik va qarindosh- urug'ning fazilatlarini anglaysan, qonun-qoidalarni tushunasan, haq- huquqlaringni bilasan. Ilm shunday boylikki, u sening aqlingni mustahkamlaydi, xulqingni poklaydi, tabiatni tozalaydi, izzatingni oshiradi. Ilm sening hayotingga tahsinga sazovor bo'ladigan yangiliklar olib kiradi, yozishga, ijod qilishga, tasnif etishga sharoit yaratadi, bu bilan esa seni kamolga etkazib, umrini boqiy qiladi. Ilm o'rganib, ilmga amal qilmagan kishi yer haydab, uni ekmagan kishiga o'xshaydi.

## **23-MAVZU: SOHADA O'ZBEK TILIDA MULOQOT VA KOMMUNIKATSIYA JARAYONI**

### **REJA:**

1. Muloqot va uning turlari.
2. Muloqot shakllari.
3. Nutqiy faoliyat.

*Har qanday muloqot yo rasmiy yoki norasmiy tusda bo'ladi.*

Muloqotning hayotimizdagi shakl va ko'rinishlari kelsak, uning har bir shaxsning hayotiy vaziyatlarga keladigan, o'sha vaziyatlardan kelib chiqadigan ko'rinishlari va turlari haqida gapirish mumkin. Har qanday muloqot yo rasmiy yoki norasmiy tusda bo'ladi. Agar rasmiy muloqot odamlarning jamiyatda bajaradigan

rasmiy vazifalari va xulq-atvor normalaridan kelib chiqsa (masalan, rahbarning o'z qo'l ostida ishlayotgan xodimlar bilan muloqoti, professorning talaba bilan muloqoti va hokazo,) norasmiy muloqot - bu odamning Shaxsiy munosabatlari tayanadi va uning mazmuni o'sha suhbatdoshlarning fikr-o'ylari, niyat-maqсадlari hamda emotsional munosabatlari bilan belgilanadi. Masalan, do'stlar suhbat poyezdda uzoq safarga chiqqan yo'lovchilar suhbatlari, tanaffus vaqti talabalarning sport, moda, Shaxsiy munosabatlar borasidagi munozaralari.

Odamlarning asl tabiatlariga mos bo'lgani uchun ham norasmiy muloqot doimo odamlarning hayotida ko'proq vaqtini oladi va bunda ular charchamaydi. Lekin shuni ta'kidlash kerakki, odamda ana shunday muloqotga ham qobiliyat kerak, ya'ni uning qanchalik sergapligi, ochiq ko'ngilligi, suhbatlashish yo'llarini bilishi, til topishish qobiliyati, o'zgalami tushunish va boshqa Shaxsiy sifatlar kundalik muloqotning samarasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun ham

odam ham rahbar bo'lolmaydi, ayniqsa, pedagogik ishga hamma ham qo'l uravermaydi, chunki buning uchun undan rasmiy, ham norasmiy muloqot texnikasidan xabardorlik talab qilinadi.

*«Kommunikatsiya»  
so'zi lotincha  
"communicare"  
so'zidan kelib  
chiqqan bo'lib, xabar  
bermoq, qatnashmoq,  
bo'lishmoq,  
umumlashirmoq  
degan ma'nolarni  
anglatadi.*

*Faktlar, g'oyalar, fikrlar, hissiyot va aloqalarning almashinuv jarayonidir. Kommunikatsiya yakka shaxslar va tashkilotlarning mohiyat va tushunchalarini bir-birlari bilan bo'lishish vositasidir. Insoniyatning to'siqlar va chegaralar oshu aloqa qilish qobiliyati insoniyat rivojiga hissa qo'shgan. Dunyo bo'ylab tez va samarali aloqa qilish qobiliyati dunyoni tarqatirdi va «globalizatsiya»ni haqiqatga aylantirdi.*

*Kommunikatsiya muayyan mamlakat yo madaniyat yoki bir tilda so'zlashuvchilar guruhiga mansub odamlarning bir-birlari bilan va boshqa mamlakat yo madaniyat yoki bir tilda so'zlashuvchilar guruhiga mansub odamlar bilan o'zaro faoliyatlari va aloqa qilishlarida muhim o'rin tutadi. Kommunikativ aloqa inson hayotiga ma'no qo'shadi. U munasabat yaratishga va muhabbatni shakllantirishga yordam beradi, o'zaro tushunishni rag'batlantiradi. U bizning butun jahon to'g'risidagi bilimimizni boyitib, turmushimizni munosib qiladi.*


*Muloqotga ikki va undan ortiq kishilarning o'zaro tushunish va xohlangan harakatining amalga oshirilishi deb ta'rif berilishi mumkin. Bu so'zlar va belgilar orqali ma'lumot almashinuvidir. Bu faktlar, g'oyalar va muqata nazar*

*Aloqaning asosiy  
maqsadi ma'lumot  
berish, aniq muqata  
nazarni amalga  
oshirish yoki  
harakatga erishishdir.*

*almashinuvi umumiy qiziqishlar maqsad va harakatlarni amalga oshiradi. Amerika Menejment Assotsiatsiyasi «kommunikatsiya ma'no almashinuvining natijasi bo'luvchi har qanday xatti-harakatdir», deb ta'rif beradi.*

*Piter Litl muloqotga quyidagicha ta'rif beradi:  
«Muloqot yakka shaxslar va tashkilotlar o'rtasidagi*

ma'lumot beruvchi jarayon bo'lib, u tushunish javobini keltirib chiqaradi. Nyuman va Sammer Junorning ta'kidlashicha, «Muloqot – ikki yoki undan ko'p shaxslarning faktlar, g'oyalar, fikrlar yoki his-tuyg'ulari almashinovidir». Key Vevisning fikriga ko'ra, «Bir insondan boshqasiga ma'lumot va tushunchalar yetkazish jarayonidir. Bu, ayniqsa, insonlar o'rtasidagi ma'no-mohiyat ko'prigidir. Ko'prikdan foydalanish orqali inson tushunmovchiliklar daryosida xavfsiz o'tib olishi mumkin». Lyuis A.Allen: « Muloqot – boshqa bir inson idrokida tushuncha yaratishni xohlaganda amalga oshirilgan barcha narsalar jamlanmasidir. U gapirish, eshitish, tushunishning tizimli va davomiy jarayonidir», deydi izohlaydi. Shunday qilib, aloqaning asosiy maqsadi ma'lumot berish, aniq nuqtai nazarni amalga oshirish yoki harakatga erishishdir.



**1. Ko'rsatma uchun:** ko'rsatma berish funksiyasi o'zgarmas bo'ladi va muhim buyurish xususiyati bilan shug'ullanadi. O'zmi-ko'pmi buyurish xususiyatidir. Bu bilan aloqa qiluvchi keyingi darajadagi shaxsga muayyan vazifalarni bajarishiga imkoniyat yaratish uchun kerakli ko'rsatmalarni va yo'riqlarni berishi tushuniladi. Bunda ko'rsatmalar, asosan, yuqori darajada quyi darajaga beriladi.

**2. Integrallashish uchun:** bu jamlovchi funktsiya bo'lib, unda integrallashish faoliyatlari siniladi. Integrallashuv funksiyasi, asosan, biznes tashkilotlarining turli xil funksiyalari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni amalga oshirishdir. U ta boshqaruv funksiyalarining birlashuviga yordam beradi.

3. **Ma'lumot berish uchun:** tashkilotdagi muloqot funksiyalari yoki shaxs va guruhning muayyan vazifasi yoki kompaniya siyosatitartib -qoidalari), yo bo'lmasa, jarayonlari haqida ma'lumot berishdir. Yuqori darajadagi boshqaruv a'zolari quyi darajaga o'rti daraja vakillari orqali siyosat (tartib-qoidalari) yetkazadilar. O'z navbatida, quyi daraja munosabatlarini o'rti daraja vakillari orqali yetkazadilar. Ma'lumot tashkilotda vertikal, gorizontal va diagonal tarzda yoyilishi mumkin. Muloqotning asosiy maqsadi ma'lumotga ega bo'lish yoki boshqalarga xabar berishdir.

4. **Baholash uchun:** faoliyatlarning tekshiruvida vazifalarning bajarilish qiymatini belgilash fikrni shakllantirish muloqot orqali erishiladi. Muloqot shaxs yoki jamoaning tashkilotga qo'shgan hissasini baholash vositasidir. O'zining qo'shgan hissasini, boshqa birovning ishlab chiqarish unumdorligini yo bo'lmasa, ha'zi g'oyaviy rejasini baholash samarali muloqot jarayonini talah etadi.

5. **Ko'rsatmalar uchun:** muloqot yuqori boshqaruv a'zolari yoki boshqaruvchi tomonidan ko'rsatma(farmoyish)larni chiqarish uchun zarur. Ishchi o'zidan yuqori lavozimdagi shaxs tomonidan ko'rsatma berilganda unumdorlikni ushira oladi. Ko'rsatmalar boshqalarga og'zaki yoki yozma tarzda berilishi mumkin. Buyruq oddiy buyruq, talah buyrug'i yoki nazarda tutilgan bo'lishi mumkin.


6. **O'qitish uchun:** ish joyida Shaxsiy xavfsizlik ahamiyati nihoyat darajada e'tirof etilgan. To'liq muloqot jarayoni ishchilarni ish joylarida Shaxsiy xavfsizliklari haqida o'qitish va ta'lim berishliklarini talah etadi. Bu muloqot ishchilarga muloqot, tayakkulchilik va x.k.larning oldini olishlariga, shu bilan birga xarajat, jarayon va hokazolarga yordam beradi.

7. **Ta'sir ko'rsatish uchun:** to'liq muloqot jarayoni boshqalarga ta'sir ko'rsatish va ta'sirlanishda zarurdir. Shaxsning boshqalarga ta'sir ko'rsatish imkoniyati bo'larkan, u osonlik bilan boshqalarni unday oladi. Bu aloqaning samarasini anglatuvchi javob reaksiyasini ta'minlaydi.

8. **Imidj (ko'rinish)ni yaratish uchun:** biznes korxonasi jamiyatning boshqa qismidan ajrala olmaydi. Jamiyatda faoliyat yuritayotgan korxonada va jamiyat

o'rtasida o'zaro munosabat va o'zaro bog'liqlik bo'ladi. Ish obro'si va ishonim orasida yaratilishi zarur. Bu jamiyatda firmaning ko'rinishini ko'rsatib beruvchi o'zga vosita bilan muloqot orqali bajarilishi mumkin. Samarali tashkilot muloqot tizimi orqali jamiyatga korxonada o'zining maqsadlari, faoliyatlari, istiqbol va jamiyatdagi mas'uliyati haqida ma'lumot berishi kerak.

9. **Ishchilarning xabardorligi (ma'lumot olishi) uchun:** yangi ish tashkilotiga kelgan vaqtida tashkilot dasturlari, siyosati, mudaniyati va hokazolarini bilmaydi. Muloqot orqali insonlar tashkilotda hamkasblari, yuqori lavozimdakilarning siyosati, maqsadi, qoidalari va tartibga solish kabilar bilan tanishadilar.



Jadval 1.1. Muloqot maqsadlari.

**Boshqa funktsiyalar:** samarali qaror qabul qilish ushbu shaxs talab etilishi va muvofiq ma'lumot bilan ta'minlanganda bo'lishi mumkin. Samarali muloqot qaror qabul qilish jarayoniga yordam beradi. Umuman olganda, vazifa samarali va yaroqli bajarilishi uchun tashkilotdagi har bir shaxs zarur ma'lumot bilan ta'minlanishi shart.

**Xulosa:**

- a) o'rganilayotgan tilda muloqot malakasi egallandi.
- b) talabalarda sohada o'zbek tilida muloqot va kommunikatsiya jarayoni

haqidagi bilimlarni mustahkamladik.

**Topshiriqlar**

**1-topshiriq:** Maqollarni o'qing va ular muloqotning qanday o'rinlarida qo'llanishini ayting.

### **O'zbek maqollari**

Maqol xalq og'zaki ijodiga oid janrlardan biri sanaladi. Maqollar shaklan qisqa bo'lgani bilan ularda juda keng ma'no mujassam bo'ladi.

Tilimizning bu bebaho boyligini o'rganish bilan ajdodlarimiz qadimdan shug'ullanib kelganlar. Mashhur qomusshunos Mahmud Qoshg'ariy XI –asrdayoq turkiy xalqlarning 400 ga yaqin hikmatli iborasini o'zining uch jildlik lug'atiga kiritgan. Ularning 250 dan ortiqrog'i shakl va mazmuniga ko'ra hozirgi o'zbek tilidagidan farq qilmaydi.

Mashhur masalchi Gulxaniy (XIX asr) 200 ga yaqin hikmatli iborani to'plab, ularni bir tizimga jamlab, “Zarbulmasal” asarini yaratgan. Adabiyotshunos olimlarimiz “O'zbek xalq maqollari” kitobida 1800 ta maqolni 31 mavzuga ajratib tavsiflashgan. Olimlarning aniqlashicha, har bir kishi 800 ga yaqin maqol va matallar haqida tushunchaga ega bo'lar ekan. Siz-chi? Siz qancha maqolni bilasiz?

**2-topshiriq:** Matnni o'qing va matn tagidagi savollarga javob bering.

### **Dunyoning yetti mo'jizasi haqida**

Odamlar qadimda o'zlari “dunyoning yetti mo'jizasi” deya nom bergan inshootlarning qachonlardir yo'q bo'lib ketishiga ishonishi, albatta, qiyin bo'lgan. Aslida esa ularning barchasi, faqat bittasini istisno qilganda, bu dunyodan ko'chini ko'targaniga ancha bo'ldi! Bizning zamonamizga qadar yetib kelgan mo'jizalardan yagonasi va ular orasida oldin tilga olinadigani Misrdagi Xeops ehromidir. Bundan qariyb 5000 yil muqaddam qurilgan bu inshoot fir'avn va uning zavchasi dafn etilgan joy sanaladi. Hozirgi Iroq o'rnida bo'lgan Bobil devorlari dunyoning ikkinchi mo'jizasi hisoblanadi. Ularni miloddan qariyb 600 yil avval mashhur podsho Navxudonosorning hukmiga binoan bunyod etganlar. Balandligi 100 m bo'lgan, g'ishtdan terilgan ushbu devorlar hozirda vayronalar uyumiga aylanib qolgan.

Yunon haykaltaroshi Hidiy tomonidan Olimpiya (Yunoniston) shahrida yaratilgan Zevs haykali dunyoning uchinchi mo'jizasi deb e'tirof etilgan. U oltin



libosga burkangan 12 metr balandlikka ega bo'lib, Zevsning tanasi fil suyagidan tarashlangan. ko'zlari esa qimmatbaho toshlardan tarkib toptirilgan edi. Haykal bizga qadar yetib kelmagan. Hozirgi Turkiya hududiga joylashgan Efesdagi iloha Diana ibodatxonasi - to'rtinchi mo'jiza. Qoyatoshlardan ishlangan 18 metrli ustunlar tomni suyab turar, butxona ichida esa yunon musavvirlarining eng a'lo asoslari joylashtirilgan edi. Miloddan avvalgi 262 yilda bostirib kelgan gotlar unga o't qo'yishgan.

Hozirgi Turkiya hududidagi Galikarnas shahrida miloddan avvalgi 353 yilda vafot etgan podshoh Mavzolning xilxonasi dunyoning beshinchi mo'jizasi bo'lib qoldi. Inshoot shu qadar dabdabali bo'lgan va hashamatiga yarasha qimmatga tushgan ediki, biz bugun dabdabali bezatilgan xilxonalarni mavzoley deb ataymiz.

Quyosh ilohi Geliosning bronzadan ishlangan Koloss Rodosskiy degan haykali dunyoning oltinchi mo'jizasi edi. Bo'yi 32 m bo'lgan bu haykal Rodoss orolida o'rnatilgan. Miloddan avvalgi 224 yildagi zilzila uni buzib yuborgandi.

Horosdagi mayoq dunyoning yettinchi, oxirgi mo'jizasi sanaladi. Uning qurilishi tahminan miloddan avvalgi 283 yilda Misr sohillaridan uzoq bo'lmagan Horos orolida boshlanadi. Mayoq deyarli 180 m balandlikda bo'lgan, tepasida esa kemalarga bandargoh yo'lini ko'rsatib turuvchi mash'ala lang'illab turgan deb hisoblashadi. Mayoq shu'las, u zilzila oqibatida vayron bo'lgunga qadar, 1500 yildan ortiq xizmat qilgan.

1. Dunyoning yetti mo'jizasidan nechitasi bizgacha yetib kelgan?

2. Bu mo'jizalar asosan qachon yaratilgan va nima sababdan ularning ko'pi yo'q bo'lib ketgan?

I. Mo'jizalarning har biri to'g'risida gapirib bering.

II. Mo'jiza nima va matnda ko'rsatilgan yetti narsa nima uchun mo'jiza ekanligini tushuntiring. Ularning hajmini Toshkent teleminorasi bilan qiyoslang.

## 24-MAVZU:KASBIY MULOQOT JARAYONI

### REJA:

1.Muloqot texnikasi.

2. Muloqot tarkibiy qismlari.
3. Muloqot texnikasini shakllantirishda innovatsion texnologiyalarning o'ri.
4. Sohada o'zbek hujjatchiligi haqida.

#### **Muloqot texnikasiga qo'yiladigan talablar:**

1. Ovozning sifatiga e'tibor berish;
2. Muloqot jarayonida to'g'ri nafas olish;
3. Tovush va so'zlarni aniq talaffuz qilish;
4. To'liq va aniq diksiya;
5. So'z va gaplarning «chaynalmaligi»;
6. Fonetikaga oid bilimlardan xabardor

7. Nutqdagi nuqsonlarni bartaraf etishga yordam beradigan mashqlardan muttasil foydalanib borish.

*Ekstralingvistik  
omillarga tilga  
bog'liq bo'lmagan  
shart-sharoitlar  
kirodi*

Muloqotning ta'sirchanligini ta'minlash nafaqat lingvistik, balki ekstralingvistik omillarni ham o'z ichiga oladi. Bamioli ummon bo'lgan tilimizdan bir fikrni bir qancha shakli shamoyillarda ifodalash imkoniyatlari mavjud, ya'ni tilimizda har qanday voqea-hodisalarni ifodalash uchun so'z va iboralar topiladi, lekin muloqot vaziyati uchun eng uyg'un ifodani topa bilish o'qituvchining bilimi, ma'rifati madaniyati, mahorati malakasiga bog'liq.

Muloqotdagi ohangning tezligi, yuqori-pastligi ham ta'sirchanlikni oshiruvchi omillardir. Bunday nutqlar, odatda, muhim qarorlar, axborotlar, farmoyishlar o'qilganda ishlatiladi.

Mashhur qadimgi yunon notig'i Demosfenning dastlab ovozi past, talaffuzi yomon, nafasi qisqa bo'lganligidan chiroyli va ta'sirli nutq ayta olmaganligi haqida tarixchilar yozganlar. Bu sohani chuqur o'rgangan olim S.Inomxo'jayev ta'kidlaganidek, keyinroq Demosfen muloqot texnikasi asoslarini egallashga juda jiddiy kirishgan. U bir yerto'la qazib, shu yerto'lada ovozini rivojlantirish, diksiya, deklamatsiya bo'yicha oylab mashqlar qiladi. Talaffuzidagi nuqsonlar, "r" tovushini aytmalilik, ba'zi tovushlarni noaniq aytish kabilarni bartaraf etish maqsadida og'ziga mayda toshlarni solib, she'rlar, turli matnlarni o'qish bilan shug'ullanadi. Ovozini rivojlantirish, ovoz apparatlarini chiniqirish uchun esa tepaliklarga yugurib chiqib, yugurib tushib, nafasini ushlab turgan holda she'rlarni

deklamatsiya qiladi. Demosfen gapirayotganda bir yelkasini hadab ko'rarav odatidan qutulish uchun yerto'lasining shiftiga uchi o'tkir xanjarni osib qo'y yelkasini xanjarning ayni uchiga to'g'rilab turib, mashqlarini davom ettiradi. shunday mashaqqatli va muntazam mashqlar tufayli Demosfen notqlikning cho'qqisini zabt etgan.

Muloqot jarayonida kuzatiladigan kamchiliklardan yana biri fonatsiya jarayonida, ya'ni nutq hosil bo'lish paytida nafas olishdagi tartibsizliklar bilan bog'liq.

Fonatsiya jarayonida nafas olish va nafas chiqarish fazalari shunday yo'lga qo'yilishi kerakki, nafas olish zo'riqliksiz, bir qadar jadalroq, nafas chiqarish esa to'xtab bir me'yorda va davomliroq kechishi lozim. Nafas chiqarish qanchalik davomli, uzun bo'lsa, shuncha yaxshi. Zotan, tovush, nutq ayni shu nafas chiqarish jarayonida hosil bo'ladi. Fonatsiyada nafas olish va nafas chiqarish fazalarining ketma-ketligi, almashinish tartibi

to'g'ri tasavvur etmoq kerak.

Bu fazalar bilan nutqning hajmiy va albatta, mazmuniy-estetik qurilishi o'rtasida mutanosiblikni to'g'ri belgilamaslik oqibatida nafasning yetmay qolishi, shu ko'ra bir nafas bilan yaxlit aytilishi lozim bo'lgan nutq parchasining bo'linib ketishi, mantiqiy mazmuni buzadigan noo'rin pauzaning paydo bo'lishi nuqsonlar o'rtaga chiqadi. Masalan, qadimiy va boy tilimizning sofligini saqlash har birimizning burchimizdir jumlasini aytilarkan, masalan, har so'zidan ko'ra nafas tugab qolsa, llojsiz, nafas olish uchun to'xtalish majburiyati paydo bo'ladi, bu esa jumlaning noto'g'ri bo'linishiga olib keladi. Yoki ba'zan noto'xtalish taqsimlangan nafas jumlaning oxiriga borib yetmay qolsa, jumladagi so'nggi "yamlanib" talaffuz qilinadi, so'zlovchi xuddi bo'g'ilib qolganday, qiyinalganday tuyuladi, bu tinglovchi uchun ham sezilarli darajada qiyinchi tug'diradi. Yana bir misol. Odam o'ta hayajonlanganida, qattiq qo'rqqanida og'ir musibat ichida bo'lganida, umuman, turli hissiy holatlarga tushganida so'zlarkan, nafas olish va nafas chiqarish fazalarini nazorat qila olmay qoladi. Buning natijasida normal fonatsiya uchun nafasi to'g'ri taqsimlanmaydi. ko'pincha oddiy bir so'z uchun ham nafasi yetmay qoladi.

*Har bir tovush,  
soʻzning toʻgʻri va umq  
talaffuz qilinishi, nutq  
uqumida soʻz shakllari  
va gaplarning  
"chaynalmastigi"  
diksiya uchun jiddiy  
talablardandir.*

Muloqot texnikasini egallashda umumiy tarzda boʻlsa-da, fonetik bilimlardan boxabarlik zarur. Ayrim kishilar koʻpincha muloqot jarayonida boshqa joylardagiga qaraganda anchayin baland ovozda gapiradilar. Yana baʼzilar borki, ular muloqot jarayonida deyarli past ovozda soʻzlaydilar. Bunda ularning oʻzlari qiynaladilar, sezilarli samaraga erishilmaydi, faqat bunday ovoz boʻgʻiq, tussiz

eshitiladi.

Muloqot texnikasi bilan bogʻliq nuqsonlardan yana biri nutq tempi, tezligini toʻgʻri belgilamaslik yoki tezlik-sekinlikning maqsadga koʻra moʻtadilligini saqlay olmaslikdan iborat. Muloqotning tempi, albatta, bayon qilinayotgan materialning mohiyatiga, ifodalanayotgan fikr strukturasiiga uygʻun boʻlishi maqsadga muvofiq. Tinglovchining ruhiyati, charchagan yoki charchamaganligi, materialni qanday qabul qilayotganligidan kelib chiqqan holda nutq tempini tanlasa, uni oʻmi bilan oʻzgartirib tursa, ham pedagogiq ham psixologik jihatdan toʻgʻri boʻladi.

Muloqot jarayonida diksiya masalasi ham alohida oʻrin tutadi. Masalan, baʼzan "z" tovushini jarangsiz "s" tovushiga moyil tarzda talaffuz qilish uchraydi: siz — sis, eshitdingiz — eshit-dingiz kabi. Bu singari nuqsonlar nutq tovushlarining hosil boʻlish oʻrinlarini yaxshi bilmaslik va artikulyatsion apparat (tovush hosil qilishda ishtirok etadigan nutq aʼzolari)ning yyctarli darajada faol emasligi natijasida paydo boʻladi. Notoʻgʻri yoki noaniq talaffuz qilinadigan tovushning hosil boʻlishida ishtirok etadigan nutq aʼzolarining faolligini oshirish yoʻli bilan kishi nutqidagi ana shunday diksiyon xatolarni tuzatish mumkin. Buning uchun xilma-xil mashqlar yaxshi yordam beradi. Masalan, turli tez aytishlar, maqol va mataffar, turli mazmundagi matnlarni muhtazam ovoz chiqarib takrorlash ana shunday mashqlarning bir koʻrinishidir. Umuman, muloqot texnikasini takomillashtirish borasida doimiy qaygʻurish, fonetika, fonologiyaga oid bilimlardan umumiy tarzda boʻlsa-da, xabardor boʻlish, kerak boʻlganda,

o'z nutqidagi nuqsonlarni bartaraf etishga yordam beradigan mashqlardan mu- foydalanib borish maqsadga muvofiqdir. Chunki muloqot texnik- so'zlovchining og'zaki nutq madaniyatini aslo shakllangan deb bo'lmaydi.

### 5-reja ►

Muloqot texnikasini shakllantirishda zamor- pedtexnologiyalarning o'rni.

*Muloqot jarayonida ilg'or tajribalarga tayanish, muloqot jarayonida turli usullardan, ko'rguzmali qvollaridan, slayd va multimedialardan, elektron qo'llanmalardan foydalanish mumkin. Bu davr talabi, muloqot jarayonidagi to'g'ri va samarali yo'l.*

Mustaqil yurtimizda ma'naviy islohotlar sur'atlar bilan olib borilayotgan bir paytda mul- texnikasiga bo'lgan e'tibor ham ortmoqda. Har shaxs, har bir fuqaro, qolaversa, har bir pedagog tuyg'ularini ifodalashda, boshqalar bilan muloqot fikr almashuvda, o'z faoliyatini olib borishda nutq ahamiyati katta ekanligini bilmog'i zarur. Nutqni a- to'g'ri, chiroyli, ixcham va so'f tuzish uchun esa ta- uning imkoniyatlarini yaxshi bilish talab etiladi.

Hamma ham birday chiroyli so'zlash qobiliyat ega emas, hammada ham notiqlik san'ati, nutq salohiyat bir xilda shakllangan deb bo'lmaydi.

Shunday ekan, o'sib kelayotgan yosh avlodga vatanparvarlik insonparvaplilik va yuksak ma'naviyatni muloqot texnikasi orqali singdirish lozim. Muloqot jarayonidagi asosiy vositalardan biri bu ovoz texnikasidir. Ovoz na- olish bilan uzviy bog'liq, nafas olmasdan tovush chiqarib bo'lmaydi, so'zla- uchun esa avval o'pka havo bilan to'ldiriladi. To'g'ri nafas olish tovush- nutqning jaranglab chiqishi uchun juda zarur. Ammo ko'pchilik o'z naf- olishini boshqara olmaydilar. Natijada havo yetmay urg'u noto'g'ri ishlatilish mavzuning ma'nosi o'zgarib ketishi mumkin. Normal ovozga ega bo'lmag- xirildoq, bo'g'iq ovozli suhbatdoshning muloqoti esa barchaning g'ashiga teg- Ovozdagi bunday nuqsonlarni ko'proq mashq qilish orqali yo'qotush mumk- Muloqot texnikasida suhbatdoshlar o'z ovozlarni ehtiyoq qilishlari uchun ayr- tartiblarga rioya etishlari zarur. Ovoz kuchli, past-baland, ingichka-yo'g'on, uz

Sohada o'zbek hujjatchiligi haqida - Tashkilotda ish yuritish odam (xodim) orqali amalga oshiriladi. Uning davlat tilini mukammal bilishi, ish yuritish uslublariga rioya qilishi hujjatchilikni takomillashtirish va shakllantirish samarali ta'sir ko'rsatadi. Hujjat tayyorlash va rasmiylashtirishda, eng avvalo, o'zbek tilining barcha asosiy qonuniyatlari va qoidalarini ma'lum darajada tasavvur etish zarur. Har bir menejer, menejment, rahbar tashkilotlarning xodimlari, umuman, faoliyati ish yuritish (munshoot, munshiylik) bilan bog'liq har bir kishi o'zbek tilining imlosini, tinish belgilari va uslubiy qoidalarini egallagan bo'lishi kerak.

Bu siz bugungi taraqqiyotimiz talablariga javob beradigan aniq, lo'nda va teran mantiqli hujjatchilikni yaratib bo'lmaydi. Hisob-kitoblarga qaraganda, rahbar vaqtini 50-90%ini axborotlarga va hujjatlashtirishga sarflaydi. Axborotni uzatish va hujjatlashtirish ko'p hollarda menejmentning qobiliyatiga ham bog'liq. Ma'lumot kimga tegishli bo'lsa, uzatilgan axborot qabul qiluvchi tomondan aynan bil xil idrok qilishga erishish lozim.

Ko'pgina menejrlar bu muammoning ahamiyatini tushunadilar va bunga katta e'tibor beradilar.

Axborotning o'ta ortig'i ham, o'ta kami ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ish yuritishda qatnashuvchilarning har biriga talablar qo'yildi. Masalan, qatnashuvchilarning har biri ko'rish, eshitish, sezish, hid va ta'm bilish qobiliyatiga to'la yoki ma'lum darajada ega bo'lishi kerak. Samarali ish yuritish har bir tomon (ma'lumot bir kishidan boshqasiga, tashkilot bo'limidan bo'limga, tashkilotdan tashkilotga uzatiladi)dan ma'lum mahorat va bilim talab etadi, hamda ma'lum darajada o'zaro tushunish bo'lishi kerak. Ish yuritish o'zbek tilida olib borilar ekan, agar mazkur xodimlar o'zbek tili qonuniyatlaridan yaxshi xabardor bo'lmasalar, ular ish vaqtlarining hammasini (100%) bu ishga sarflaganlarida ham ijobiy natijaga erishish qiyin.

Mamlakatimizda o'zbek adabiy tilining rasmiy ish uslubi tilini o'rganish bo'yicha ilk qadamlar qo'yilgan, xususan, bitta fan nomzodligi dissertatsiyasi himoya qilingan. Lekin hali bu mutlaqo etarli emas, juda ko'p va ko'p ishlar qilinmog'i lozim.

Ayrim hujjatlarning nomlanishi rus tilida qanday nomlansa, o'zbek tilida ham shundayligicha nomlanib kelingan. Ish yuritish asosan rus tilida olib borilganligi uchun ham bunga chtiyoj bo'lmagan chog'i.

Ruschadan tarjima qilingan "ish yuritish" atamasining muqobili sifatida "munshiy" (arabcha) so'ziga o'zakdosh va ma'nodosh bo'lgan hamda o'tmishdagi bobolarimiz tilida ishlatilgan "munshoot" so'zini tavsiya etish mumkin. Bu kabir misollar etarli. Masalan, o'zbek tilida hozirgacha qo'llanib kelingan "spravka", "instruksiya", "akt", "xarakteristika", "avtobiografiya" kabi ko'plab hujjatnomalar uchun tegishli o'zbekcha muqobil so'zlar bilan almashtirilmoqda, ya'ni ma'lumotnoma, yo'riqnoma, dalolatnoma, tavsifnoma, tarjimai hol kabi nomli hujjatlar ishlatilmoqda.

Qisqasi, hujjat nomlarini o'zbek tilining o'z imkoniyatlari asosida shakllantira borish, hujjatchilikdagi so'z va iboralarning o'zbekcha muqobilini ishlab topish va amaliyotga kiritish bugungi kunning talabidir.

Hujjatlar matniga qo'yiladigan eng muhim talablardan biri xolislikdir. Hujjatlar rasmiy munosabatlarni ifodalovchi va qayd etuvchi rasmiy yozma vositalar sifatida axborotni xolis aks ettirmog'i lozim. Shuning uchun hujjatlar tilida so'z va so'z shakllarini qo'llashda muayyan chegaralanishlar mavjud.

Xususan, rasmiy ish uslubida kichraytirish- erkalash qo'shimchalarini olgan so'zlar, ko'tarinki-tantanavor yoki bachkana so'zlar, dag'al so'zlar, tor doiradagi kishilargina tushunadigan so'zlar, o'xshatish, jonlantirish, mubolag'a, istiora, tashxis kabiobrazli tafakkur ifodasi uchun xizmat qiluvchi usullar ishlatilmaydi. Ularning ishlatilishi hujjatlar matnidagi ifodaning noxosligiga olib keladi. Hujjat matni aniqlik, ixchamlik, lo'ndalik, mazmuniy to'liqlik kabi talablarga ham javob berishi kerak. Bu talablarga javob bera olmaydigan hujjat chinakam hujjat bo'la olmaydi, bunday hujjat ish yuritish jarayoniga halaqit beradi, uning samaradorligini keskin pasaytiradi.

Hujjatlar matnining xolislik, aniqlik, ixchamlik, lo'ndalik, mazmuniy to'liqlikdan iborat zaruriy sifatleri hujjat tilining o'ziga xos uslubi, undagi o'ziga xos so'z qo'llash, morfologiya va sintaksis orqali ta'min etiladi.

Hujjatlar tilida ot turkumiga oid soʻzlar koʻp qoʻllaniladi. Hatto feʼl bilan ifodalanuvchi harakat va holatlar ifodasi uchun ham otga yaqin soʻz shakllari tanlanadi, yaʼni “harakat noma” deb ataluvchi soʻz shakllari faol ishlatiladi: “...tayyorgarlikning borishi haqida”, “...qarorning bajarilishi toʻgʻrisida”, “...yordam berish maqsadida”, “...qabul qilishingizni soʻrayman”kabi.

Feʼl shakllarining qoʻllanishida ham birmuncha oʻziga xosliklar mavjud. Xususan, majhul nisbatdagi 3-shaxs buyruq-istak maylidagi yoki oʻtgan (yoki hozirgi-klassi) zamondagi feʼl shakllarining qoʻllanish darajasi anchayin yuqori: topshirilsin, tasdiqlansin, bajarilsin, boʻshatilsin, tayinlansin; eshitildi, qaror qilindi, koʻrib chiqildi, koʻrsatib oʻtildi kabi.

Hujjatlardagi gap qurilishi, odatda, tasniflash, mayda qismlarga ajritishga, qayd etuvchi va qaror qiluvchi qismlarning birligiga, umuman, sabab-oqibat va shart-oqibat munosabatlariga asoslandi. Shuning uchun ham hujjatlarda nisbatan uzunjumlar, murakkablashgan, uyushiq boʻlakli gaplar koʻp qoʻllaniladi. Lekin gap tarkibida odatdagi soʻz tartibiga qatʼiy rioya qilinadi, badiiy va boshqa asarlarda mumkin boʻlgan gʻayriodatiy soʻz tarkibiga yoʻl qoʻyilmaydi.

Hujjatlarning mohiyati va maqsadiga muvofiq ravishda ularda soʻroq va undov gaplar deyarli qoʻllanilmaydi, asosan, darak va buyruq gaplar ishlatiladi. Zero, hujjatlarda tilning ikki vazifasi - xabar berish (informativ) va buyurish (volyuntativ) vazifalari amalga oshadi. Masalan, maʼlumotnomada axborot ifodalanadi, buyruqda buyurish aks etadi, majlis bayonida esa ham axborot (“eshitiladi...”), ham buyurish (“Qaror qilinadi...”) oʻz ifodasini topadi.

Hujjatlar matni birinchi shaxs yoki uchinchi shaxs tilidan yoziladi. Yakka rahbar nomidan yoziladigan farmoyish hujjatlari (buyruq, farmoyish, koʻrsatma kabilar) birinchi shaxs tilidan boʻladi. Shuningdek, ayrim shaxs tomonidan yozilgan hujjatlar (ariza, tushuntirish xati kabi) ham birinchi shaxs, birlik sonda shakllantiriladi. Boshqa hujjatlarda esa yo birinchi shaxs koʻplik sonda, yoki uchinchi shaxs birlik sonda rasmiylashtiriladi: “...ga ruxsat berishingizni soʻraymiz”, “...deb hisoblaymiz”; “maʼmuriyat talab qiladi”, “boshqarma soʻraydi” kabi.



Hujjatlar matnini tuzishda turg'unlashgan, qoliplashgan so'z birikmalari ko'proq foydalanish lozim. Chunki qoliplashgan, yagona doimiy shakliga bo'lgan so'z tizimlari, iboralar, muhandislik ruhiyatining ma'lumotlariga ko'rib boshqa so'z birikmalariga qaraganda 8-10 marta tez idrok qilinar ekan. Buning ustiga qoliplashgan so'z birikmalari hujjatlarni tayyorlash va ulardan foydalanish jarayonlarini anchagina tezlashtirish imkoniniberadi.

Har qanday hujjat, eng avvalo, axborot tashuvchi vosita ekan, hujjatni axborot sig'imini kengaytirish, undagi fikrning teran mantiqini ta'minlash muhimdir. Shuning uchun hujjatda tilning ortiqchalik tamoyilini chetlab o'tish tilning tejash talabi (tamoyili)dan oqilona foydalana bilish kerak. Buning uchun qisqartmalarni qo'llash yaxshi natija beradi. Ammo, ta'kidlash lozimki, bunda me'yorga qat'iy va izchil amal qilmoq lozim. Chunki qisqartmalar o'zbek tilining tabiatiga u qadar mos emas, shuning uchun ham qisqartmalar o'zbek tilida unchalik ko'p emas.

Hozirda bizda bir qadar odatga kirgan qisqartmalar bor: ToshDU, ToshDU «prof.»(professor), km (kilometr), «sh.k.» (shu kabi) va boshqalar. Ayni paytda o'zbek tilining so'z va so'z birikmalaridagi ichki ma'naviy imkoniyatlaridagi kengroq va unumliroq foydalanmoq lozim.

Hujjatdagi fikrni aniq, lo'nda bayon qilishda xat boshi (abzats)ning ahamiyati ham katta. Har bir yangi alohida fikr xat boshi bilan ajratilishi, bir xat boshidan ikkinchi xat boshigacha bo'lgan matn 4-5 jumladan oshmasligi maqsadga muvofiq.

#### **Xulosa:**

- a) o'rganilayotgan tilda muloqot malakasi egallandi.
- b) talabalarda kasbiy muloqot jarayoni hamda sohada o'zbek hujjatchiligini haqida bilimlarini mustahkamladik.

#### **Topshiriqlar**

**1-topshiriq:** Matni o'qing. Mazmunini aytib bering.

**O'zbek xalqining mard o'g'loni**

Sobir Rahimov 1902- yil fevralda Toshkent shahrida tug'ilgan. 1922 -yilning yozida harbiy xizmatga ko'ngillilar qatorida chaqiriladi. Bokudagi harbiy maktabda o'qiydi va usta chavandoz ham mohir qilichboz bo'lib yetishadi.

1925- yilda harbiy maktabni a'lo baholar bilan tamomlagach, Samarqanddagi o'zbek otliq diviziyasi ixtiyoriga keladi. Bu yerda u vzwod komandiri bo'lib xizmat qiladi. 1936- yilda Sobir Raximovga kapitan harbiy unvoni beriladi. 1941 -yilda Sobir Rahimov Smolensk shahrida motorlashtirilgan polk komandirining o'rinbosari edi. Ikkinchi jahon urushi davrida dovyurak o'zbek o'g'li yurt ozodligi uchun dushmanga qarshi jon – jahdi bilan kurashadi.

1942 -yil iyunda Don daryosi atrofidagi qattiq janglar vaqtida u diviziya komandiri va polkovnik unvonida bo'lgan Sobir Rahimovga 1943- yil mart oyida general – mayor unvoni beriladi.

1945- yil 26- mart kuni Gdansk shahri uchun jang ketayotgan bir paytda o'zbek xalqining mard o'g'loni qahramonlarcha halok bo'ladi. Yurtining porloq kelajagi uchun jon fido qilgan o'g'lonini xalqimiz aslo unutmadi. Bugun uning nomi bilan poytaxt tumanlaridan biri, metro bekati, maktablar atalgan. Eng asosiysi, Sobir Rahimovning qutlug' nomi minnatdor avlodlar xotirasida yashamoqda.

**2-topshiriq:** Matni o'qing. Uni to'ldiring.

### **Serquyosh poytaxtim**

Mustaqil O'zbekistonning serquyosh poytaxti – Toshkent kun sayin chiroy ochib bormoqda. Shahar ko'chalari kengaytirilib, yangi yo'llar, ko'priklar qurilmoqda, bog'lar barpo etilmoqda.

Shaharda qad rostlayotgan binolar uning xusniga xusn baxsh etmoqda. Ayniqsa, Temuriylar tarixi davlat muzeyi, Milliy drama teatri binosi, Milliy bank, yangi konservatoriya binosi shahar mehmonlari e'tiborini tortmoqda. Yurtboshimiz tashabbusi bilan tashkil etilgan Xotira maydoni va Shahidlar xotirasi xiyoboni xalqimizning ziyoratgohlariga aylanib ulgurdi.

Toshkent metrosining Yunusobod yo'li ishga tushirilishi yana bir ajoyib voqea bo'ldi.

## 24-MAVZU: OG'ZAKI MULOQOT VA UNING XUSUSIYATLARI

### REJA:

1. Muloqot turlari.
2. Verbal muloqot.
3. Noverbal muloqot.
4. Muloqot texnologiyasi va texnikasi
5. Yozma muloqot.

Muloqot til vositasi bilan — verbal yoki tilning ishtirokisiz — noverbal amalga oshirilishi mumkin. Verbal aloqa og'zaki aloqa va verbal asos haqida fikr bildirib, og'zaki dalil (asos)larni bildiradi. Verbal muloqot jarayonida so'z muhim o'rin tutadi. So'z talaffuz qilinishi, ichki nutqda takrorlanishi, yozilishi, maxsus ishoralar yordamida ifodalanishi mumkin. Muomala faqat kishilar o'rtasidagi axborot almashishdangina iborat bo'lmay, balki kishilarning his-hayajonlarini ham qamrab oladi. Muomalaning bu tomoni noverbal kommunikatsiyani tashkil qiladi.

Noverbal muloqot vositalari bo'lib imo-ishora, harakat, ohang, intonatsiya, pauza, kulgi, tabassum, ko'z qarash, ko'z yoshi va boshqalar xizmat qiladi. Noverbal muloqot vositalar verbal muloqotni to'ldiradi. Noverbal vositalar yordamida barcha so'zga koplama berish mumkin.

Tillarni o'rgatishda shu til sohibiga xos bo'lgan noverbal vositalarni ham o'rgatish lozim. Aks holda chet til to'la o'zlashtirilmaydi.

Chunki turli tillardagi noverbal vositalar ham so'zlar kabi bir-biridan foydalaniladi. Muloqot jarayonida talabalarni yuzma-yuz o'qitish ijobiy samara beradi.

Muloqot jarayonida tilga xos bo'lgan noverbal vositalardan to'g'ri foydalanish muloqot madaniyatining tarkibiy qismi hisoblanadi. Noverbal so'zlar muloqot kuzatish kuchi bilan yaqindan bog'lanadi. Muloqot qabul qiluvchi so'zlovchini ko'rish, eshitish va hattoki, his qilish pozitsiyasida bo'lishi kerak. Muloqotni qabul qiluvchi so'zlovchining yuzi, imo-ishorasi, ohangi, kiyim-kechag'i ko'rinishini aniq ko'rish va ovozini ham eshitadigan joyda bo'lishi kerak. Barcha kuzatish orqali bo'lgan, noverbal muloqot rejalashtirilgan va rejalashtirilmagan

bo'lishi mumkin. So 'zlovchi tinglovchilarga ongli imo-ishora, gavdasini tutishi xatti-harakatlarning boshqa shakllari orqali aniq xabarni bildirmoqchi bo 'lganda rejalashtirilgan bo 'ladi. Noverbal muloqot esa, so'zlovchining xatti-harakatlari, gavdasini tutishi, yoki ko 'rinishi qabul qiluvchi tomonidan g'ayriixtiyoriy qilinsa ham rejalashtirilmagan hisoblanadi. Pala- partish kiyinish yoki norasmiy kiyim-bosh kiygan notiq e'tiborli bo'lsa ham, jiddiylilik yetishmaganday izoh berilishi mumkin.

**Noverbal muloqotning ahamiyati** - geografiya, kartalar, diagrammalar va hokazolar bilan bog 'liq fikrlarni bidirishda, qabul qiluvchi masalani bir qarashda tushunib olishi mumkin, noverbal metodlar ixcham shaklda katta miqdordagi ma'lumotlarni taqdim eta oladi.

Haydovchilar yoki yo'lovchilardan darhol javob bo'lishi shartligi sababli yo'l harakati belgilari, signallar uchun noverbal muloqot shak-shubhasiz asosiy o'rinni tutadi. Har bir inson odatda tildan ko 'ra ranglar, rasmlar yoki tovushlarga zudlik bilan javob beradi.

Noverbal simvollar orqali savodsiz odamlarga fikr bildirishning yagona metodi quyidagicha kechadi. Muloqot jarayonidagi psixologik ta 'sir bu turli vositalar yordamida insonlarning fikrlari, hissiyotlari va xatti-harakatlariga ta 'sir ko 'rsata olishdir.

Psixologik ta 'sirning uch xil turi ajratiladi:



Verbal ta'sir - bu so'z va nutqimiz orqali ko'rsatiladigan ta'sirimizdir.

Bundagi asosiy vositalar so'zlar hisoblanadi. Nutq so'zlashuvdagi o'zaro muloqot jarayoni bo'lib, uning vositasi so'zlar hisoblanadi. Monologik nutqda har bir dialogic nutqda ham kishi o'zidagi barcha so'zlar zahirasidan foydalanib, erkin ta'sirchan so'zlarni topib sherigiga ta'sir ko'rsatishni xohlaydi.

Paralingvistik ta'sir - bu nutqning atrofidagi uni bezovchi, uni kuchaytiruvchi yoki susaytiruvchi omillardir. Bunga nutqning baland yoki past tovushdagi ifodalanayotganligi, tovushlar, to'xtashlar, duduqlanish, yo'tal, til bilan amalga oshiriladigan harakatlar, nidolar kiradi. Shunga qarab, do'stimiz bizga biror narsani aytgan va'da berayotgan bo'lsa, biz uning qay darajada samimiyligini bilib olamiz.

Noverbal ta'sirning ma'nosi "nutqsiz"dir. Bunga suhbatdoshlarning fazodadagi bir-birlariga nisbatan tutgan o'rinlari, holatlari (yaqin, uzoq, intim), qiliqlari, mimika, pantomimika, qarashlar, bir-birini bevosita his qilishlar, tashqi qiyofa va harakatlardan chiqayotgan turli signallar (shovqin, hidlar) kiradi. Ularning barchasini muloqot jarayonini yanada kuchaytirib, suhbatdoshlarning bir-birlarini yaxshiroq bilib olishlariga yordam beradi. Amerikalik olim Megrabyan formulasiga ko'ra, birinchi marta ko'rishib turgan suhbatdoshlardagi taassurotlarning ijobiy bo'lishiga gapirgan gaplari 7%, paralingvistik omillar 38% va noverbal harakatlar 58% gacha ta'sir qilarkan.



Muloqotning qanday kechishi va kimning ko'proq ta'sirga ega bo'lishi sheriklarning rollariga bog'liq. Ta'sirning tashabbuskorida ataylab ta'sir ko'rsatish maqsadi bo'ladi va u bu maqsadni amalga oshirish uchun barcha yuqorida

ta'kidlangan vositalardan foydalanadi. Masalan, rahbar xodimini unga ishi tushib chaqirsa, xodimini o'midan turib kutib oladi, quyuq so'rashadi, keyin maqsadga o'tadi. Ta'sirning adresati-ta'sir yo'naltirilgan shaxs. Lekin tashabbuskorning suhbatga tayyorgarligi yaxshi bo'lmasa yoki adresat tajribaliroq sherik bo'lsa, u tashabbusni o'z qo'liga olishi va ta'sir kuchini qayta egasiga qaytarishi mumkin bo'ladi. Kishilar bilan normal munosabatlarni o'rnatma olmaslik, ayniqsa, biznes sohasida sheriklarning holatlari, kutishlarini aniqlay olmaslik, o'z nuqtai nazariga o'zgalarni professional tarzda ko'ndira olmaslik, "birovni" uning ichki kechinmalari va o'ziga bo'lgan munosabatini aniq tasavvur qila olmaslik amaliy psixologiyada kommunikativ o'quvsizlik yoki diskommunikatsiya holatini keltirib chiqaradi. Bunda kishilar bir-birlarini tushuna olmay qoladilar, oqibatda tugay deb turgan ish bitmasdan cho'zilib ketishi mumkin. Shuning uchun hozirgi paytda katta yoshdagi kishilarni kommunikativ bilimdonlikka o'rgatish, ularda zarur kommunikativ malakalarni hosil qilishga katta ahamiyat berilmoqda. Har bir ziyoli kishi boshqalar bilan hamkorlik qilish mahorati va san'atiga ega bo'lishi kerak. Bu vazifa odamlarni muomala va muloqot etikasiga o'rgatishni har qachongidan dolzarb qilib qo'yimoqda. Ma'lumki, gaplashayotgan kishilar biri gapiradi, ikkinchisi tinglaydi. Muloqotning samaradorligi ana shu ikki qirraning qanchalik o'zaro mosligi, bir-birini to'ldirishiga bog'liq ekan. Mashhur amerikalik notiq, psixolog Deyl Karnegi "Yaxshi suhbatdosh-yaxshi gapirishni biladigan emas, balki yaxshi tinglashni biladigan suhbatdoshdir" deganda aynan shu qobiliyatlarning insonlarda rivojlangan bo'lishini nazarda tutgan edi.

Mutaxassislarning aniqlashlaricha, ishlayotgan kishilar vaqtining 45% kimlamidir tinglashga sarf qilar ekan, odamlar bilan doimiy muloqotda bo'ladiganlar-savdo xodimlari, aloqachilar, rahbarlar, muxbirlar 35-40% oylik maoshlarini odamlarni tinglaganliklari uchun olarkanlar. Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, kommunikatsiyaning eng qiyin sohalaridan hisoblangan tinglash qobiliyati odamga ko'proq foyda keltirarkan. Tinglashning ham xuddi gapirishga o'xshash texnikasi, usullari mavjud. Ularning turi ham ko'p, lekin biz ikki usulini qo'llaymiz: so'zmaso'z qaytarish va boshqacha talqin etish. Birinchisi, suhbatdoshni

qo'llab-quvvatlashini bildiradi. Ikkinchi usul-sherikni so'zlarini tinglab, unda asosiy g'oyani muxtasar, o'zimizning talqinimizda ifoda etish. Bundan tashqari b yaxshi tinglayotganimizda , "Yo'g'-c?", "Nahotki?", "Qara-ya?", "Yasha!" "Qoyil!" luqmalari bilan suhbatdoshimizni gapirishga chaqirib turamiz. Muloqot o'rgatishning muhim yo'nalishlaridan biri-odamlarni faol tinglashga, bunda bar paralingvistik va noverbal omillardan o'rinli foydalanishga o'rgatishdir. Profess V.Karimovanning fikricha, professional tinglash texnikasiga quyidagilar kiradi: akti holat; suhbatdoshga samimiy qiziqish bildirish; o'ychan jimlik.

## Nutq – insonlarning eng muhim aloqa vositasi



Aktiv holat bu tinglayotganda yotib olmaslik, suhbatdoshning yuzidan tashqar joylariga qaramaslik, mimika, bosh chayqash bilan unga qiziqishni bildirish;

Suhbatdoshga samimiy qiziqish bildirish. Bu nafaqat suhbatdoshni o'ziga jal qilib, balki keyin navbat kelganda o'zining har bir so'ziga uni ham ko'ndirishni samarali yo'lidir. O'ychan jimlik. Bu suhbatdosh gapirayotgan paytda yuzd mas'uliyat bilan tinglayotganday tasavvur qoldirish orqali o'zingizning suhbatd manfaatdorligingizni bildirish yo'li.

Demak, tinglash madaniyati muloqot jarayonining samarali bo'lishida muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun biz suhbatdoshimizni diqqat bilan tinglashimiz unda o'z-o'ziga hurmatni tarbiyalashimiz, uni ilhomlantirishimiz, ruhlantirishimiz

kerak. His-hayajonni ifodalaydigan harakatlar bu ko'zga ko'rinadigan harakatlardir. Bu yerda axborot yetkazuvchi bo'lib gavdani tutish, mimika, ishora, nigoh katta rol o'ynaydi. Masalan, tadqiqotlarga ko'ra so'zlovchining yuzi qimirlamasa yoki ko'zga ko'rinmasa, 10-15 foiz axborot yetkazilmaydi. Ko'z yordamida hol-ahvol, kayfiyat haqida eng aniq ma'lumotlar yetkazib beriladi, chunki ko'z qorachig'ining torayishi va kengayishini nazorat qilib bo'lmaydi. G'azab va noxush kayfiyat kishining ko'z qorachig'ini toraytiradi. Yuzi iltifotsiz bo'lib qoladi, bu holat esa muloqotning samaradorligini pasaytiradi.

So'zlovchining gavdasini «yopiq» tutishi (u gavdaning oldini bekiyib, fazoda iloji boricha kam joy egallashga harakat qiladi) ishonchsizlik, qo'shilmaslik, tanqidni bildiradi. «Ochiq» gavda tutishlar esa (tikka turganda: qo'l kaflari ochiq va tepaga qaratilgan; o'tirganda qo'llar yozilgan, oyoqqa uzatilgan) ishonch, rozilik, xayrixohlikni bildiradi.

Ovoz xususiyatlari prosadika va ekstralingvistik ro'y berishlar qatoriga kiradi. Ishtiyoq, quvonch va ishonchsizlik baland ovoz bilan bildiriladi. G'azab, qo'rqish ancha baland ovoz bilan, qayg'u, g'am-g'ussa, horg'inlik odatda yumshoq pasaytirilgan ovoz bilan bildiriladi.

Munosabatning takesika vositalariga silab qo'yishlar, daxldorlik, qo'l berib ko'rishishlar, urib-urib qo'yishlar kiradi. Ular rag'batlantirishning biologik turi bo'lib, ayniqsa, yetim bolalarga ta'sir etishi isbotlangan. Shumtaka va ranjigan bolani boshidan silab qo'yib, siz boshqa vositalarni biriktirgan holda ham erishib bo'lmaydigan natijaga erishishingiz mumkin.

### **Xulosa:**

- a) o'rganilayotgan tilda muloqot malakasi egallandi.
- b) talabalarda og'zaki muloqot va uning xususiyatlari haqidagi bilimlarini mustahkamladik.

### **Topshiriqlar**

**1-topshiriq:** Ajratib ko'rsatilgan so'zlar o'rmda qanday sinonimlarni qo'llash mumkinligini ayting.

Nega shuncha go'zal ko'rinar olam?



Nega qarab to`ymas ko`zlarim?

Nega jo`sh uradi, ko`piradi qon?

Nega misday qizir yuzlarim?

Nega hayajonda tuyg`ular, hislar?

Nega lablarimda kezar tabassum?

Hayot go`zal, hayot maroqli,

Shuning uchun erka ko`nglim shod

**2 -topshiriq:** Suhbatni tushunib o`qing va shu kabi dialog tuzing.

- Assalomu alaykum.

- Va alaykum assalom.

- Kechirasiz, bu Rustam akaning xonadonlarimi? Menga Saidjon kerak  
men uning kursdoshi Ashur bo`laman.

- Saidjon hozir uyda yo`q, bir joyga ish bilan ketgandi.

- Qachon kelishini aytolmaysizmi?

- Yo`q, uzr, bilmayman, qachon qaytishini aytmadi. Kech tomon  
qo`ng`iroq qilib ko`ring. Balki, kelib qolar.

- Ha, albatta qo`ng`iroq qilaman. Bezovta qilganim uchun uzr.

**3-topshiriq:** Savollarga javob bering. Javobingizda qavs ichida berilgan  
so`zlardan foydalaning.

1. Bizning armiyamiz qanday armiya? (buyuk, kuchli, qudratli, qahramon)

2. Bizning hayotimiz qanday? (quvnoq, go`zal, ajoyib) 3. Qanday shaman  
esyapti? (mayin, yoqimli, yengil) 4. Qanday gullar ochildi? (chiroyli hushbo`y)  
Nozima qanday o`quvchi? (quvnoq, chaqqon, tirishqoq, qobiliyatli).

**4-topshiriq:** Matni o`qing. Matn yuzasidan savollar tuzing.

### **Cho`lpon**

Asl ismi-sharifi Abdulhamid Sulaymon o`g`li Cho`lpon 1983-yilda Andijonda  
tug`ilgan. O`zbek shoiri, tarjimoni va san`atshunos olimi. Cho`lpon - uning adabiy  
taxallusi. U avval madrasada, keyin rus-tuzem maktabida ta`lim olgan. Cho`lpon b  
qator ro`znomalarda xizmat qilgan. O`zbekiston badiiy studiyasi va boshq  
tashkilotlarda yuqori lavozimlarda ishlagan. Cho`lpon ajoyib shoir, mohir tarjimo

va adib edi. 1929- yilda uning “Kecha va kunduz” asari bosilib chiqdi. 1927 -yildan Cho’lponga xujum boshlandi. O`zbekiston madaniyat xodimlari 2-quriltoyida uni zaldan haydab chiqarishdi. 1937-yil shoir qatl qilindi. Istiqlol yillarida o'zbek xalqining munosib farzandi qadr – qimmat topdi.

## “O‘ZBEK TILINI SOHADA QO‘LLANISHI” FANI BO‘YICHA GLOSSARIY

**Abituriyent** [lot. abiturins, abiturientis-kctmoqchi bo‘lgan kishi] 1. O‘qishni maktabni bitirayotgan o‘quvchi. 2. Oliy yoki o‘rta maxsus o‘quv yurtiga kirish uchun da’vogar. *Imtihonlarni boshlashdan avval qur’a tashlanadi. Biletlarni olish uchun abituriyentlardan to‘rt kishi chaqiriladi. Gazetadan.*

**Abzas** [nem. abzatz < abzetzen – yangi satrdan boshlash] 1. Matn (tekst)ning dastlabki qatorini bir oz o‘rin (uch harf o‘mi) qoldirib boshlash; xat boshining satrboshi. *Yangi abzasdan yozmoq.* 2. Matnning bir xatboshidan keyingi xatboshigacha bo‘lgan qismi. *Uch abzasni o‘qimoq. Bir abzats tashlab yozmoq.*

**Adabiyot** [a.] 1. Bir xalqning, davrning badiiy, ilmiy, falsafiy va boshqalar asarlari majmui. *XX asr o‘zbek badiiy adabiyoti. Jahon adabiyoti.* 2. San’atning so‘z, til vositasida badiiy obrazlar yaratuvchi turi; badiiy adabiyot. *Adabiyot hamisha haqiqat va adolat bayrog‘ini baland tutib yashamog‘i lozim.* 3. Muayyan bir fan yoki sohaga, masalaga oid asarlar, kitoblar. *Siyosiy adabiyot. Tehnik adabiyoti.*

Mavzu yuzsidan tavsiya etilgan adabiyotlar ro‘yxati.

**Algoritm, algorifm** [lot.algorithmi – X asrda yashagan buyuk o‘zbek matematigi Al-Xorazmiyning nomidan] Ma’lum bir turga oid masalalarni yechishda ishlatiladigan amallarning muayyan tartibda bajarilishi haqidagi aniq qoida (dastur).

**Alifbe (alifbo)** 1. Boshlang‘ich savod chiqarish kitobi. *Birinchi savod o‘quvchilari uchun alifbe.*

2. Ko‘chma ma’noda. Biror maslak, ta’limot, ilm va sh.k.ning boshlang‘ich asoslari, eng oddiy qoidalari. *Muhammad Jamol alifbosidan boshlab, do‘stining ongidan hurofotlar bulutini tarqatishga tirishdi. Oybek, Nur qidirib.*

**Alifbo** [Arab alifbosi boshidagi 1-va 2 - harf (alif va bo)] Biror til, yozuv shakllarining (harf va belgilarining) ma’lum tartibda joylashgan majm. *Alfav. O‘zbek alifbosi.*

**Amaliy ish** Nazorat turiga kiruvchi mashg'ulotlar bo'lib, dasturda ko'rsatilgan miqdordan oshmasligi zarur. Bu tartibdagi nazorat shakllari: laboratoriya ishlari, amaliy ishlar, bayon, insho, lug'atlar bilan ishlash va h.k.

**Annotatsiya.** Badiiy, ilmiy, metodik asarlarning muallifi, mavzusi, manbasi, unda ko'tarilgan asosiy masalani ko'rsatishga qaratilgan qisqa xabardir.

**Ariza** [a.arznoma; iltimosnoma] Muayyan muassasa yoki mansabdor shaxs nomiga yozilgan iltimos, taklif, shikoyat mazmunidagi rasmiy hujjat. Ariza quyidagi tartibda bo'ladi: a) ariza yo'llangan muassasa yoki mansabdor shaxsning nomi; b) muallif (o'quvchi-talaba)ning turar joyi, vazifasi, ismi va familiyasi; iltimos, so'rov, shikoyatning mazmun matni; e) ilova qilinayotgan hujjatlar nomi (zarur topilsa); ariza yozgan shaxsning imzosi, ismi, familiyasi; f) ariza yozilgan vaqt (yil, oy, kun). Ariza matni asosan qo'lda yozilishi; aniq, qisqa, lo'nda tushunarli bo'lishi lozim, husnihat va texnik talablarga amal qilish kerak.

**Aspirant** [lot.aspirans, aspirantis-intiluvchi] Aspiranturada shug'ullanuvchi, ya'ni nomzodlik dissertatsiyasi ustida ish olib boruvchi shaxs. Uch yil tahsil oladi. Shu davrda nomzodlik ishini yozib tugatishi talab etiladi.

**Auditoriya** [ lot. auditorium –tinglash joyi] 1. Mashg'ulot, ma'ruza va sh.k. o'tkaziladigan xona.

2.Mashg'ulot, ma'ruza va sh.k.ni tinglovchilar, shuningdek, radiotinglovchilar va teletomoshabinlar.

**Avtoreferat** [avto +referat] Ilmiy asarning, nomzodlik ishining o'z muallifi tomonidan 18-28 bet atrofida yozilgan qisqacha bayoni. *Dissertatsiya avtoreferati.*

**Bakalavr** [lot. baccalaureus] Ba'zi mamlakatlarda va O'zbekistonda oliy ta'lim dasturining birinchi bosqichini tugallagan talabalarning ilmiy darajasi.

**Bildirishnoma** Biror muassasa rahbariga (direktor, dekan, rektor va h.k.) xizmat faoliyati (o'quv ishlari) bilan aloqador muhim masalalar yuzasidan yoki yuqori idora, mansabdor shaxsga biron-bir voqea va hodisa haqida xabardor qilish zaruriyati tug'ilganda, taqdim etiladigan yozma axborot.

**Bilim** Insoniyat tomonidan yaratilgan g'oyalarni fanlar kesimidagi talqinini nazariy jihatda o'zlashtirib olish.

**Bilingvizm** [bix.+lot. lingua - til] Ikki tilda so'zlay olishlik; ikki tilda bilishlik; ikki tildan foydalanishlik; ikki tillilik. *O'zbek -tojik bilingvizmi, o'zbek-rus bilingvizmi.*

**Daftar** [a. < yun. diftera - qog'oz o'rami] 1. Kitobcha shaklida tikilgan muqovalangan va xat yozish yoki rasm chizish uchun mo'ljallangan o'quv quroli. Shuningdek, kundalik daftar, nota daftari (musiq notalari qayd etilgan daftar), xotira daftari (shaxsning o'z kundalik hayotida ko'rgan-kechirganlarini yozib boradigan daftari) va h.k. ko'rinishlari mavjud. 2. Ko'chma ma'noda -- ko'ngil daftari, temir daftar, hayot daftari.

**Dars** [a. saboq; ma'ruza] 1. Ta'lim muassasalarida ilm, ma'lumot berish maqsadida o'tkaziladigan o'quv mashg'ulotlari, saboq. 2. Ko'chma ma'noda hayotiy tajribadan kelajak uchun chiqarilgan foydali natija, ibrat, saboq. *Bu uning yaxshi dars bo'ldi.*

**Darslik** Fanning biror sohasi bo'yicha o'quvchilar va talabalar uchun mo'ljallab yozilgan kitob. *Ona tili darsligi.*

**Dastur** [f. yo'l-yo'riq, ko'rsatma, tartib-qoida] 1. Muayyan maqsad, ish harakat yoki tadbirning, o'quv ishlarining oldindan belgilab chiqilgan yo'l-yo'riq uni amalga oshirishning tartibi, qonun-qoidasi; programma. *Davlat tilini amalga oshirish dasturi.*

**Dialog** [yun.dialogos<di - ikki+logos - so'z; nutq; tushuncha] 1. Ikki kishi o'rtasidagi og'zaki muloqot, suhbat. 2. Adabiy asarda ikki yoki bir necha personaj o'rtasidagi gaplashuv, suhbat. 3. Ikki yoki bir necha kishi o'rtasidagi uzluksiz suhbat, gaplashuv shaklida yozilgan adabiy asar.

**Diktant** [lot. dictare - hadab gapirmoq, takrorlamoq; aytib turib yozdirmoq] Imloviy va punktuatsion qoidalarning o'zlashtirish darajasini tekshirish uchun aytib turib yozdiriladigan yozma ish.

**Dissertant** [lot.dissertans, dissertantis - batafsil qarab chiquvchi, tushuntiruvchi]. Ilmiy daraja olish maqsadida o'z ilmiy ishi - dissertatsiyasi maxsus ilmiy kengash a'zolari o'rtasida himoya etuvchi kishi.

**Tarjimai hol** - inson hayotining ta'rif: hayot tarzi haqida hikoya qilish; biznes hujjat turi.

**Dalolatnoma** - 1) bir harakat, harakat, harakatning namoyishi: aloqa harakati; 2) biror narsani tasdiqlovchi hujjat: aktsiyani tuzish; Tadbirkorlik hujjatlarining turi.

**Xulosa** - kitobning qisqacha tavsifi, asosiy masalalar ro'yxati - maqola sarlavhalari, monografiyalar ko'rinishidagi maqola.

**Munosabatlar** asos bo'lib, biror narsa isbotiga keltiradigan dalillar: jiddiy dalillarni keltirib chiqaradigan dalillar.

**Suhbat** - suhbat, axborot almashish, fikr-mulohazalar: do'stona suhbatlar, do'stlar bilan suhbatlashish, "davra suhbat" ortida suhbat.

**Biografiya** - birovning onasining ta'rif. Hayot: olimning biografiyasi.

**Filolog** [yun. philogos - donolarcha suhbatni sevuvchi] Filologiya sohasi tadqiqotchisi, filologiya mutaxassisi; filolog-olim.

**Hisobot** Muayyan vaqt uchun rejalashtirilgan ish yoki vazifa, topshiriqlarning bajarilishi, amaly dolzarb ishlar, xizmat va ilmiy safarlar yakuni haqida ma'lumot beruvchi rasmiy hujjat.

Hisobot oxirida muayyan topshiriq bajarilmagan bo'lsa, uning sababi ko'rsatiladi, bu boradagi takliflar qayd etiladi. Hisobotning tarkibiy qismlari:

1. Sarlavhasi: hisobot qaysi yumush uchun qanday bo'lim yoki shahs tomonidan berilayotgani (Masalan, IV "D" kurs talabalarining 2020-2020 o'quv yilida rejalashtirgan tadbirlarning tashkil etilganligi haqida hisobot).

2. Hujjatning nomi (hisobot).

3. Hisobot matni.

4. Hisobot muallifi, imzo.

5. Sana.

**Ijod** [a.yaratish, kashf etish; vujudga keltirish] 1. Badiiy, ilmiy, san'atga oid asar; yaratuvchilik faoliyati. Ijod etmoq (yoki qilmoq) 1) yaratuvchilik ishi bilan mashg'ul bo'lmoq, ijod bilan band bo'lmoq; 2) o'ylab chiqarmoq, kashf etmoq.

**Xulosa** - matndan taklif, taklif; Ishdan, hujjatdan nima yoziladi: dastlabki manbalardan ajratmalar.

**Bayonot** - xabarlar bo'limi (aloqa vositasi): rus tili haqida bayonotlar.

**Nutq** - nutq, uchrashuvda nutq, konferentsiya: qisqa bayon.

**Suhbat** - ikki yoki undan ortiq odamlar orasidagi suhbat: muloqot mavzusidagi muloqot qilish.

**Munozara** - jamoatchilik muhokamasi. Savol: yosh oilaning muammolarini haqida suhbat.

**Ishonchnoma hujjat** - mu-mu-ishonchli hujjatdir. Ushbu hujjatning emitentining nomidan harakat qilish: pul olish uchun ishonchnoma; Hujjatning turi.

**Ma'ruza** - hisobot ma'lum bir mavzu bo'yicha kengaytirilgan prezentatsiya bo'lib, xalqaro vaziyat haqida ma'ruzadir.

**Qayd etib qo'yish** - 1) nimadir haqida qisqa ma'lumot: notebookda eslatma xotiraga eslatma yozish; 2) qisqa bosma nashr: gazeta yozuvi, eslatmani o'qing.

**Ariza** - 1) og'zaki yoki yozma shaklda rasmiy muloqot: delegatsiya rahbarining bayonoti; 2) biror narsa uchun yozma iltimosnoma: dekanatning talabiga yozma;

Hujjatning turi.

**Bayonot** - (Odatda yozma ravishda) o'z so'zlari bilan: o'qilganlarning hisoboti, mavzu bo'yicha taqdimot.

**Suhbat** - matbuot anjumani, jurnalist bilan radio yoki televidenie intervyusini yuz: intervyu berish.

**Ma'lumot** - ovozli xabarda joylashgan ma'lumotlar: muhim ma'lumotlar.

**Sharh** - matnni izohlash, izohlash: maqolaga sharh; Matn bo'yicha sharh berish.

**Aloqa** - og'zaki muloqot, fikr va tuyg'ularni til yordamida etkazish: nuqtadagi aloqa vositasi sifatida.

**Konferentsiya** - yig'ilish, jamoatchilik, ilmiy tashkilotlar vakillari yig'ilishi va muhokamasi uchun. Savollar: talabalar ilmiy konferentsiyasi.

**Matn** [a.yelka; nutqning yozuvdagi ifodasi, tekst] 1. Yozuvda yoki bosma holda shakllantirilgan mualliflik asari yoki hujjat. 2. Bosma nashming rasm, chizma va izohlarsiz asosiy qismi.

**Monolog** - bu shaxsning o'ziga yoki boshqa kishiga murojaat qilgan nutqi:

Chatskiyning tabiiy monologi; Monolog shaklidagi ma'lumotlarni taqdim etish.

**Ko'rib chiqish** - umumiy mavzuga birlashtirilgan bir qator haqiqatlar, voqealar haqida qisqacha ma'lumot: hisobot mavzusi, hisobot, bibliografik tadqiqotlar bo'yicha maqolalarning umumiy ko'rinishi.

**Boshlang'ich** - muayyan hodisalarni o'rganish natijasida olingan umumiy xulosa: umumlashtirishga o'tish, eksperiment natijalarini umumlashtirish.

**Munozara** - bir narsa haqida fikrlarni ifodalash: loyihani muhokama qilish, reja, hisobot.

**O'zbek tili** Bu tilda so'zlashuvchilarning umumiy soni yigirma-yigirma besh million atrofida bo'lib, ularning asosiy qismini O'zbekistonda va unga chegaradosh bo'lgan mustaqil davlatlarda istiqomat qilib turgan o'zbek tilida so'zlashuvchi va o'zini o'zbek deb biluvchi aholi tashkil qiladi. O'zbek tili turkiy tillar oilasiga kiradi va so'zlashuvchilar soni jihatidan turk tili va ozarbayjon tilidan so'ng uchinchi o'rinda turadi.

**Yozma nutq** Grammatik shakllar, ya'ni harf, bo'g'in, so'z yordamida fikrni bayon etish yozma nutq orqali amalga oshadi. Yozma nutqda imloviy, punktuatsion me'yorlarga amal qilinadi.

Yozma nutq orqali qadimgi yodnomalar bizgacha yetib kelgan. Ma'naviy merosni kelajak avlodga qoldirishda yozma nutqning o'rni beqiyosdir.

**Davlat tili** — siyosiy, ijtimoiy va madaniy sohalarda ma'lum bir davlatda integratsiya (birlashtiruvchi) vazifasini amalga oshiradigan, shuningdek ushbu davlatning ramzi sanaladigan tildir.

**Rasmiy til** – davlat boshqaruvi, qonunchilik, sud jarayoni tilidir.



**“O‘ZBEK TILINI SOHADA QO‘LLANISHI” FANIDAN TEST  
SAVOLLARI**

**I VARIANT**

**1. O‘zbek tili fani nimani o‘rgatadi? (Mukammal javobni toping)**

A) to‘g‘ri nutq tuzishni o‘rgatadi;

B) chiroyli nutq tuzish yo‘llarini o‘rgatadi;

\*S) chiroyli nutq tuzishning qonuniyatlarini, sirlarini, til, til me‘yori, nutq, nutqning nutqiy talaffuzga doir muammolarni o‘rgatadi;

D) nutq tuzish qonunlari, nutq, nutq uslublari, talaffuzga doir muammolar uzasidan bahs yuritadi.

**2. O‘zbek tili fanining tekshirish obyektini aniqlang.**

\*A) nutqning til qurilishi, adabiy til me‘yorlari va nutqning kommunikativ aloqa uchun kerakli fazilatlarini tekshiradi;

B) nutqning til qurilishi, uslublari, nutqiy asar ko‘rinishlarini o‘rganadi;

S) adabiy me‘yordagi ikkilanishlarni bartaraf etadi;

D) o‘zbek milliy adabiy tili faoliyatini, rivojlanishini tekshiradi.

**3. O‘zbek tilining asosiy vazifasi nima?**

A) adabiy til me‘yorlari, uning tarixiyligi, taraqqiy etib borishi, undagi ba‘zi unsurlarni eskirishi, yangi me‘yorlarning paydo bo‘lishini kuzatadi;

B) nutqning til qurilishi, adabiy til me‘yorlarini kuzatadi;

\*S) adabiy til me‘yordagi ikkilanishlarni bartaraf etadi;

D) A javob to‘g‘ri.

**4. O‘zbek tili fani qanday fanlar bilan bog‘langan? (To‘liq javobni toping)**

A) tilshunoslik va adabiyotshunoslik;

B) tilshunoslik, uslubshunoslik, leksikologiya, semsiologiya;

S)adabiyot nazariyasi, mantiq, ruhshunoslik, estetika, adabiy tanqid, adabiyotshunoslik;

\*D) B va C javoblar to'g'ri.

**5. Qaysi qatordagi so'zlarda j harfi sirg'aluvchi tovushni ifodalaydi?**

A. Jamila, Jur'at, Jasur, Jahongir;

B. juda, judo, ajoyib, bajonu dil;

D. ajdar, vijdon, G'ijduvon, gijda;

S. vajohat, jilg'a, jez, jigar;

\*D) A, B javob to'g'ri.

**6. Publististik uslubning sintaktik xususiyatlari qanday holatlarda yaqqol ko'rinadi?**

A) so'roq gaplar ko'p ishlatiladi;

B) uyushiq bo'lakli gaplar keng qo'llaniladi;

S) undov gaplar va shaxsi umumlashgan gaplar ko'p ishlatiladi;

\*D) barcha javoblar to'g'ri.

**7. Nutq uslublari deb nimaga aytiladi?**

A) aloqaning maqsadga muvofiq amalga oshuvi yo'lida so'zlovchining til boyliklaridan tanlab foydalana olishi tufayli nutqning shakllangan ko'rinishidir;

B) til boyliklarini tanlab ishlatishga ko'ra nutq ko'rinishlarining xilma-xilligiga aytiladi;

S) to'g'ri javob yo'q;

\*D) A, va B javob to'g'ri.

**8. Ng harf birikmasi qaysi qatordagi so'zlarda bir tovushni anglatadi?**

A) so'ng, to'ng, to'nka, tingach;

B) senga, tanga, ming, mingan;

D) mening, ko'ngil, keng, alanga;

\*E) angla, tanglik, kengay, ohangdor.

**9. So'zlashuv uslubiga nima xos bo'ladi?**

A) oddiylik, soddalik, betakalluflik;

B) o'z leksikasi, fonetikasi, morfologisi va sintaksisi bilan xalqning oddiy so'zlashuv tilini aks ettiradi;

S) oddiylik, soddalik, betakalluflik, hayajonlilik xos;

\*D) B, S javoblar to'g'ri.

**10. Nutqning to'g'riligi deganda nimani tushunasiz?**

\*A) nutqning to'g'riligi uning adabiy til me'yorlariga mosligidir;

B) uslubiy me'yorga rioya qilgan nutq to'g'ri nutqdir;

S) grammatik me'yorga rioya qilgan nutq to'g'ri nutqdir;

D) to'g'ri nutq adabiy tilning fonetik, talaffuz, lug'aviy so'z yasalishi, grammatik uslubiy me'yorlarini mujassamlashtiradi.

**11. Aytilayotgan so'z va iboraning o'zi ifodalayotgan voqelikka mutlaqo mos va muvofiq**

**kelishiga nima deb aytiladi?**

A) mantiqiylik;

\*B) aniqlik;

S) to'g'rilik;

D) ta'sirchanlik.

**12. Har birimiz o'z ishimiz farzandlarimiz,**

**Peshona ter to'kib oldik shaklu shamoyil.**

**(U.Abdumuzimova)**

Ushbu parchada qanday adabiy til me'yori buzilganligini aniqlang.

\*A) ishimiz so'zidagi - ning tushib qolgan;

B) peshona so'zidagi - dan tushib qolgan;

S) shaklu shamoyildagi - imiz tushirib qoldirilgan;

D) adabiy me'yor buzilmagan.

**13. Birlarni bec'tiqod,**

**Birlarni riyo ko'rdim.**

**(T.Sulaymonov)**

**Ushbu parchada qanday adabiy til me'yori buzilganligini aniqlang.**

A) birlarni so'zidagi "i" tushib qolgan;

B) riyo noto'g'ri ishlatilgan;

S) I-misrada -ni tushum kelishigi noto'g'ri qo'llanilgan;

\*D) -riyo so'zidan oldin o'rin-payt kelishigi bo'lishi shart;

## II VARIANT

**1. Matn deb nimaga aytiladi?**

\* A) matn - u yoki bu holda tugallangan mazmun va nutqning birligini o'zida ifodalagan og'zaki yoki yozma asar;

B) o'zaro ichki va tashqi bog'liqliqda bo'lgan asar;

S) u yoki bu hodisa haqidagi mazmunni bildirgan asar;

D) bir necha gaplardan tashkil topgan asar.

**2. Berilgan matn mazmunini o'z so'zlari bilan qayta yozishga nima deyiladi?**

\*A) bayon;

B) insho;

S) diktant;

D) ijodiy ish.

**3. Og'zaki nutqning xususiyatlariga nimalar kiradi?**

A) og'zaki nutq tezkorlik bilan amalga oshadi;

B) so'z birikmalari va gaplarning modellari tezkorlik bilan tanlanadi;

S) so'zlovchining faol nutqiy harakati, to'xtam, ohang, urg'u, turli xil imo-ishoralar fikrning tinglovchiga yetib borishida ahamiyat kasb etadi;

\*D) A, B, S javoblar to'g'ri.

**4. Yozma nutq og'zaki nutqdan qanday xususiyatlari bilan farq qiladi?**

- A) muallif bemaol fikrlash imkoniyatiga ega;
- B) yozma nutqni qayta-qayta tahrir qilish imkoniyati mavjud;
- S) fikr uchun eng mos imkoniyatlar tanlanadi;
- \*D) A.B ,S javob to'g'ri.

**5. Monologga berilgan to'g'ri ta'rifni toping.**

- \*A) monolog so'zlovchining o'ziga yoki tinglovchilarga qaratilgan nutqidir;
- B) sintaktik jihatdan murakkab tuzilgan nutq;
- S) monolog - ikki kishining suhbat;
- D) ikki va undan ortiq kishilarning suhbat.

**6. Dialog qanday tashkil topadi?**

- A) dialog sodda gaplardan tashkil topadi;
- B) so'roq, buyruq va darak gaplardan tashkil topadi;
- S) qo'shma gaplardan tashkil topadi;
- \*D) A va B javoblar to'g'ri.

**7. Nutqiy muomala nimadan boshlanadi?**

- A) xushmuomalalikdan;
- \* B) salomlashishdan;
- S) shirin so'zdan;
- D) A va S javoblar to'g'ri.

**8. Ilm-fanga oid ma'lumotlar berish bilan mutaxassislariga mo'ljallangan asarlar qanday uslubda yoziladi?**

- A ) so'zlashuv uslubida ;
- \*B) ilmiy uslubda;
- S) publitsistik uslubga;

D) badiiy uslubda.

**9. Tilning sofligiga putur yetkazuvchi unsurlar to'la ko'rsatilgan javobni aniqlang.**

A) shevaga xos so'zlar, varvarizm, vulgarizmlar;

B) varvarizm, vulgarizm, parazit so'zlar;

\*S) varvarizm, vulgarizm, parazit so'zlar, shevaga xos so'zlar, argo va jargonlar, kanselyarizmlar, so'zlarni noto'g'ri talaffuz qilish;

D) to'g'ri javob yo'q.

**10. O'zbek adabiy tiliga xos bo'lgan me'yorlarni ko'rsating.**

A) fonetik, leksik-semantik, grafik me'yorlar, stilistik me'yor;

B) aksentologik, grammatik, grafik, punktiatsion, imlo me'yorlari, sinonimik me'yorlar;

\*S) orfoepik, so'z yasalishi, grafik, uslubiy me'yor;

D) barchasi

### III VARIANT

**1. So'zlashuv nutq uslubi qanday funksiyani bajaradi?**

A) tilning xabar, axborot berish funksiyasini;

B) tilning targ'ibot, tashviqot funksiyasini;

\*S) tilning aloqa-aralashuv funksiyasini;

D) barchasi.

**2. Konspekt necha xil ko'rinishda bo'ladi?**

A) to'liq konspekt;

B) qisqa konspekt;

S) tezisli konspekt;

\*D) barchasi to'g'ri.

**3. Matbuotda e'lon qilish, radioeshittirish yoki televideniada foydalanish uchun o'tkazilgan suhbat ..... deb ataladi**

- \*A) intervyu;
- B) sharh;
- S) muloqot;
- D) A va B javoblar.

**4. Rasmiy uslub qanday xususiyatlarni mujassamlashtiradi?**

- A) rasmiy hujjatlar til xususiyatlarini aks ettiradi;
- B) uning lug'ati rang - barang so'zlardan tashkil topadi;
- S) e'lonlar, qarorlar, qonunlar, sud va davlat idoralari hujjatlari shu uslubda yoziladi;
- \*D) A, B, S javoblar to'g'ri.

**5. Ilmiy uslub boshqa uslublardan qanday farqlanadi?**

- A) tabiat va jamiyat hodisalari aniq, qandaydir formulalar, qoidalar asosida ifodalanadi;
- B) fikr mantiqiy va ashyoviy dalillar bilan mustahkamlanib boradi;
- S) to'liqsiz gaplar, bir tarkibli so'zlar, so'z-gaplar deyarli uchramaydi;
- \*D) fanning turli sohalariga oid so'z va atamalarni ishlatish, bayonning mantiqiy dalillarga suyanishi bilan farqlanadi.

**6. "Muhokamatul lug'atayn" asari kimning qalamiga mansub?**

- A) Yusuf xos Hojib;
- B) Abdurahmon Jomiy;
- S) Alisher Navoiy;
- D) Mahmud Qoshg'ariy;
- E) Ogahiy.

**7. Bir kunlik adolat yuz kunlik toat-ibodatdan afzaldir, degan hikmatli so'z muallifi qaysi qatorda to'g'ri berilgan?**

- A) Alisher Navoiy;

- D) Zahiriddin Bobur;
- B) Amir Temur;
- E) Abdurauf Fitrat;
- S) Behbudiy.

**8. «Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida» gi qonun qachon qabul qilingan?**

- A) 1993-yil 2-sentabrda;
- B) 1996-yil 24-avgustda;
- S) 1991-yil 31-avgustda;
- D) 1989-yil 21-oktabrda.

**9. To'g'ri tarjima qilingan gapni belgilang.**

**10. Tilxat, ariza, bayonnoma qaysi uslubda yoziladi?**

- A) rasmiy uslubda;
- D) ilmiy uslubda;
- B) badiiy uslubda;
- E) og'zaki so'zlashuv uslubida;
- S) publitsistik uslubda.

**11. Roman, qissa, hikoya kabi janrlar qaysi uslub asosida yuzaga keladi?**

- A) ilmiy uslubda;
- B) publitsistik uslubda;
- S) rasmiy uslubda;
- D) badiiy uslubda;
- F) So'zlashuv uslubida.

**12. "Og'ziga talqon solmoq, oralaridan qil o'tmaydi" birikmalari qanday birikma sanaladi?**

- A) maqol;



- B) frazeologizm;
- S) hadis;
- D) so, z birikmasi;
- F) gap.

**13. Yozuv adabiy tilning qaysi shakli uchun xos?**

- A) og'zaki adabiy til uchun;
- B) yozma adabiy til uchun;
- S) faqat rasmiy til uchun xos;
- D) yozuv ilmiy uslub uchungina xos.
- F) asosiy muloqot vositasi.

**14. Qaysi qatordagi so'zlar h harfi bilan yoziladi?**

- A. ...avo, ...adya, ...azon, ...ayol;
- B. ...ayot, ...aqiqat, ...urmat, mc...mon;
- S. ...on, ...islat, ...ursand, ...azina;
- D. ...ashar, ...isob, ...ayolparast, ...azonrezgi.

**15. Qaysi qatordagi so'zlar x harfi bilan yoziladi?**

- A. ...amma, ...ayvon, ...at, ...azina;
- B. ...avf, ...amir, ...uloza, ...ayol;
- S. ...ukm, mu...abbat, ba...or, ...urmat;
- D. za...ar, no`...at, ...ashak, ...urmo.

**IV VARIANT**

**1. O'zbek tilining sohada qo'llanishi maqsad va vazifalari qaysi qatorda ko'rsatilgan?**

- A) Mazkur fanning vazifasi til tarixi, uslubiyat, yozuv tarixi haqida ma'lumot berishdan iborat.

B) O'zbek tilining sohada qo'llanishi fanining o'zbek tili va uning sohalarda qay tarzda qo'llanishi til va tafakkur masalalari, davlat tilida ish yuritish masalalari, tilning fonetik, leksik, grammatik tomonlarini o'rganadi.

C) O'zbek tilining sohada qo'llanishi fani leksikologiya, terminologiya sohalarini o'rganadi.

D) O'zbek tilining sohada qo'llanishi fani mutaxassislikka oid soha terminlarini, uslublarini o'rganadi.

**2. "Grafika" so'zining ma'nosi qaysi qatorda to'g'ri berilgan?**

A) Yunoncha "yozuv, yozaman" ma'nosini ifodalaydi.

B) Lotin tilidan olingan bo'lib, "tarixiy yozuv" ma'nosini ifodalaydi.

C) Yunon tilidan olingan bo'lib, "til" so'zini ifodalaydi.

D) Barcha javoblar to'g'ri.

**3. Qadimgi turkiy til yozma yodgorliklari qaysi davrga xos?**

A) 14-15 asrlarga xos bo'lib, Navoiy asarlari tili.

B) 6-10 asrlar O'rxun-Enasoy bo'yicha yozuvlar Kultegi, To'nyuquq yodgorliklari tili.

C) Eramizning 5 asrigacha so'g'd, xorazm yozuvlari tili.

D) 11-13 asrlar A. Yugnakiy, Yusuf Xos Hojib asarlari tili.

**4. O'zbekiston Respublikasida ta'lim olish tili erkin tanlanish huquqi berilgan.**

**Bu fikr O'zbekiston Respublikasi Davlat tili haqidagi qonunning nechanchi moddasida ko'rsatilgan.**

A) 4-modda;

B) 17-modda;

C) 6-modda;

D) 24-modda

**5. Qaysi olimning fikricha til tabiiy va suniy tillarga bo'linadi.**

A) Beruniy;

B) Alisher Navoiy

C) Gumboldt;

D) Ibn Sino

**6. Dunyodagi xalqaro tillar qaysi javobda aks etgan?**

- A) Lotin, xitoy, rus, arab, cron;
- B) Ingliz, yapon, tatar, alban, kares;
- C) Ingliz, fransuz, rus, ispan, arab, xitoy;
- D) Lotin, fransuz, tojik, rus, nemis

**7. Faol nutq aʼzolari?**

- A) tovush panchalari, lablar, til, kichik til
- B) qattiq tanglay, burun boʻshligʻi, yuqori va pastki tishlar
- C) oʻpka, yuqori va pastki tishlar, kichik til, qizil oʻngach,
- D) lablar, yuqori va pastki tishlar, kichik til, qattiq tanglay

**8. Hujjatlarda asosan qaday gaplar ishlatiladi?**

- A) *Darak va buyruq gaplar*
- B) *Darak va undov gaplar*
- C) *Faqat buyruq gaplar*
- D) *Buyruq va soʻroq gaplar.*

**9. Taqriz soʻzi qanday maʼnoni anglatadi?**

- A) Arabcha "tanqid" soʻzini anglatadi.
- B) Arabcha "matn" soʻzini anglatadi.
- C) Arabcha "aʼlo baho" soʻzini anglatadi
- D) Arabcha "ijobiy baho" soʻzini anglatadi.

**10. Ikki tomonlama fuqarolik huquqlari va majburiyatlarini belgilash, oʻzgartirish, toʻxtatish haqidagi rasmiy hujjat nima deyiladi?**

- A) Guvohnoma
- B) Shartnoma
- C) Dalolatnoma
- D) Ishonchnoma

11. *Qaysi nutq uslubiga mansub? Sizga shuni ma'lum qilamanki...*

A) Rasmiy uslub

B) *Ihmiy uslub*

C) *Badiiy uslub*

D) *Ommaviy uslub*

12. *Badiiy asarlar berilgan qatorni toping.*

A) *Adabiyot nazariyasi, Aruz nazariyasi*

B) Imlo qoidalari. *Mehrobdan chayon*

C) *O'tkan kunlar, Dunyoning ishlari*

D) *Imlo qoidalari . Yulduzli tunlar*

13. *Inson yaratgan narsalar ichida kitob qalbimizga eng yaqinrog'idir. Ushbu fikr kinga tegishli?*

A) *Jozef Konrad*

B) *Jorj Semenon*

C) *Konfutsiy*

D) *Lev Tolstoy*

14. *Lug'atlar haqidagi ta'limot nima deb nomlanadi?*

A) Terminologiya

B) *Leksikologiya*

C) *Orfografiya*

D) *Orfoepiya*

15. *O'zbek tilining til qatlamlari nechta?*

A) 4

B) 2

C) 3

D) 5

## V VARIANT

1. O'zbek tilining imlo tamoyillari qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A) Fonetik, morfalogik, tarixiy-an'anaviy, shakliy, farqlash
- B) morfalogik, tarixiy-an'anaviy, shakliy, leksik, fonetik
- C) Fonetik, morfalogik, tarixiy-an'anaviy, sintaktik, leksik
- D) morfalogik, tarixiy-an'anaviy, shakliy, farqlash, leksik

2. Matnlar uslubiy xususiyatiga ko'ra nechaga bo'linadi?

- A) 3
- B) 2
- C) 4
- D) 5

3. Faqat terminlar berilgan qatorni aniqlang.

- A) inson, kishi, odam
- B) yuz, bet, qosh
- C) odam, o'pka, ichak
- D) peshona, manglay, bosh

4. Tarixiy so'z ishtirok etgan gapni ko'rsating.

- A) Ko'kning qopqasi qoqqan soatda, Quyosh ko'z uqalab uyg'onar edi.
- B) U kunlarda alg'ov bilan yer haydalmasa, kun kechirib bo'lmas edi.
- C) Er Hubbiga borib astoydil sig'inib, kekxa chinorlarga alam bog'ladi, bo'lmadi.
- D) Anvar bugungi noma va arizalarni yig'ishtirib, udaychiga topshirdi.

5. "Ko'ziga cho'p solmoq" iborasining ma'nosi nima?

- A) aldanmoq
- B) aldamoq
- C) almashmoq
- D) A, B.

6. Faqat ochiq bo'g'inli so'zlarni toping.

- A) g'o'za, baraka, ibora
- B) arava, ashula, ilgari
- C) ilova, olim, andisha
- D) ijod, izza, rubob

7. Qaysi qatordagi so'zlarda urg'u so'zning oxirgi bo'g'iniga tushmagan?

- A) nafosat, odamzod, madaniyat
- B) qulupnay, qo'g'irchoq, hujayra
- C) hamma, texnika, hamisha
- D) iltimos, kelajak, darvoza.

8. Transport so'zidagi ikkinchi bo'g'in necha unli va undoshdan tuzilgan?

- A) bir unli va ikki undoshdan
- B) bir unli va uch undoshdan
- C) bir unli va to'rt undoshdan
- D) bir unli va besh undoshdan

9. Quyidagi so'zlarning qaysi biri tarkibida ochiq bo'g'in bor?

- A) san'atkorlik
- B) to'rtlikdan
- C) otlantirmoq
- D) biriktirmoq.

10. Faqat ochiq bo'g'inli so'zlarni toping.

- A) g'o'za, baraka, ibora
- B) arava, ashula, ilgari
- C) ilova, olim, andisha
- D) ijod, izza, rubob.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Aminov M., Madvaliyev A., Mahkamov N., Mahmudov N. Ish yuritish. — Toshkent, 2020.
2. Aminov M., Madvaliyev A., Mahkamov N., Mahmudov N. Ish yuritish. — Toshkent, 2000.
3. Mahmudov N. va bosh. Ish yuritish asoslari. – Toshkent: O'zME davlat ilmiy nashriyoti, 2006.
4. Hamidova M. Ona tili nazariyasi va amaliyoti (darslik).- Namangan: Usmon Nosir Media, 2022.
5. Hamidova M. Ona tili va bolalar adabiyoti (darslik).- Namangan: Usmon Nosir Media, 2022.

### Qo'shimcha adabiyotlar:

6. Mirziyoyev. Sh.Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatining birgalikda barpo etamiz. -Toshkent: O'zbekiston, 2016. -56 b.
7. Mirziyoyev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - Toshkent: O'zbekiston, 2016.- 488 b.
8. Mirziyoyev Sh.Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash-yul tarqiqiyoti va xalq farovonligining garovi. - Toshkent: O'zbekiston, 2016.- 488 b.
9. Mirziyoyev Sh. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – Toshkent: O'zbekiston, 2017.- 104 b.
10. 2017-2021 - yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning besh ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni.
11. Mahmudov N., Rafiyev A., Yo'ldoshev I. Davlat tilida ish yuritish. Toshkent, 2015.
12. To'xliyev N. Ish yuritish. – Toshkent, 2017.
13. Suyarova A. O'zbek tilida ish yuritish. Uslubiy qo'llanma. – Namangan, 2018.
14. Boltayev M. Lotin yozuviga asoslangan yangi o'zbek alifbosi va imlosi. T.: O'qituvchi, 2003.

### Axborot manbaalari:

15. www. tdpu. uz
16. www. pedagog. uz
17. www.lex.uz
18. www. Ziyonet. uz
19. www. edu. uz
20. tdpu-INTRANET. Ped

## MUNDARIJA:

Kirish.....	3
“O‘zbek tilini sohada qo‘llanilishi” fanini o‘qitishning maqsad va vazifalari.....	7
Til va yozuv masalalari.....	19
O‘zbek tilining leksik qatlamlari.....	28
Til va terminologiya.....	38
Terminlarning yasalishi.....	47
Matn va uning turlari. Mikro matn va makro matn.....	52
O‘zbek adabiy tili unli va undosh harflari imlosi: kasbiy sohaga doir matnlar tanlanib, unli va undosh harflarning to‘g‘ri yozilishi ustida amallar bajariladi.....	55
O‘zbek adabiy tilida qo‘shib yozish: kasbiy sohaga doir matnlar tanlanib, qo‘shib yozish ustida amallar bajariladi.....	61
O‘zbek adabiy tilida chiziqcha bilan yozish: kasbiy sohaga doir matnlar tanlanib, chiziqcha bilan yozish ustida amallar bajariladi.....	67
O‘zbek adabiy tilida ajratib yozish: kasbiy sohaga doir matnlar tanlanib, ajratib yozish ustida amallar bajariladi.....	69
O‘zbek adabiy tilida bosh harflar imlosi: kasbiy sohaga doir matnlar tanlanib, bosh harflar imlosi ustida amallar bajariladi.....	72
O‘zbek adabiy tilida ko‘chirish qoidalari: kasbiy sohaga doir matnlar tanlanib, ko‘chirish qoidalari ustida amallar bajariladi.....	75
Adabiy til uslublari: kasbiy sohaga doir matnlar tanlanib, adabiy til uslublari ustida amallar bajariladi.....	78
Uslubiyat haqida ma’lumot: kasbiy sohaga doir matnlar tanlanib, uslubiyat turlari ustida amallar bajariladi.....	90
Uslubiyat. Ilmiy uslub va uning uslubiy xususiyatlari.....	92
Fonetik uslubiyat: kasbiy sohaga doir matnlar tanlanib, undagi tovush, urg‘u va ohangning uslubiy xususiyatlari ustida amallar bajariladi.....	99
Leksik uslubiyat: kasbiy sohaga doir matnlar tanlanib, leksik vositalarning uslubiy xususiyatlari ustida amallar bajariladi.....	105



Morfologik uslubiyat: kasbiy sohaga doir matnlar tanlanib, morfologik birliklarning uslubiy xususiyatlar.....	108
Sintaktik uslubiyat: kasbiy sohaga doir matnlar tanlanib, sintaktik vositalarning uslubiy xususiyatlari ustida amallar bajariladi.....	113
Soha bo'yicha belgilangan mavzu asosida ilmiy tadqiqot olib borish jarayonlari.....	117
Rasmiy-idoraviy uslub va uning uslubiy xususiyatlari.....	124
Nutq va adabiy mc'yor.....	126
Sohada o'zbek tilida muloqot va kommunikatsiya jarayoni.....	131
Kasbiy muloqot jarayoni.....	138
Og'zaki muloqot va uning xususiyatlari.....	148
"O'zbek tilini sohada qo'llanishi" fani bo'yicha glossariy.....	156
"O'zbek tilini sohada qo'llanishi" fanidan test savollari.....	162
Ifoydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	177

